

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**IMANOVA UMIDA BAXTIYOROVNA**

**MAHALLIY BYUDJETLARNI O‘RTA MUDDATLI**  
**REJALASHTIRISH ISTIQBOLLARI**  
**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**  
**iqtisodiyot fanlari doktori**  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**

**Toshkent – 2023**

## MUNDARIJA:

|  |  |            |
|--|--|------------|
|  |  |            |
| <b>KIRISH</b> .....                            |  | <b>3</b>   |
|  |  |            |
| <b>I BOB.</b>                                  | <b>MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING NAZARIY, TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI.....</b>                                 | <b>12</b>  |
| 1.1.   | Mahalliy byudjetni o'rtta muddatli rejalashtirishning iqtisodiy mohiyati va zarurligi .....  | <b>12</b>  |
| 1.2.   | Mahalliy byudjetni o'rtta muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari .....  | <b>28</b>  |
| 1.3.   | Mahalliy byudjetni rejalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari .....  | <b>39</b>  |
|  |  |            |
| <b>II BOB.</b>                                 | <b>MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISH AMALIYOTINI JORIY ETISH HOLATI.....</b>  | <b>51</b>  |
| 2.1.   | Mahalliy byudjetni rejalashtirishning rivojlanish tendensiyalari .....   | <b>51</b>  |
| 2.2.   | Mahalliy byudjetlarni o'rtta muddatli rejalashtirishda daromad va xarajatlari, ularning tarkibi va barqarorlashtirish amaliyoti..... | <b>58</b>  |
| 2.3.   | Mahalliy byudjetni o'rtta muddatli rejalashtirishning ilg'or xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari.....  | <b>67</b>  |
|  |  |            |
| <b>III BOB.</b>                                | <b>MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING KELGUSIDAGI USTUVOR YO'NALISHLARI .....</b>                                  | <b>75</b>  |
| 3.1.   | Mahalliy byudjetlarni o'rtta muddatli rejalashtirishda xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlash amaliyoti.....                  | <b>75</b>  |
| 3.2.   | Mahalliy byudjetni o'rtta muddatli rejalashtirishni ustuvor jihatlari .....  | <b>86</b>  |
|  |  |            |
| <b>XULOSA</b> .....                            |  | <b>121</b> |
|  |  |            |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b> |  | <b>123</b> |

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** . Jahon iqtisodiyotiga global o'zgarishlarning salbiy ta'siri oqibatida makroiqtisodiy beqarorlikning kuchayishi sharoitida davlat budjeti xarajatlarini amalga oshirishning optimal natijalarini ta'minlash dolzarbligi ortib bormoqda. Jahonda davlat budjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mahalliy budjetni o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotini milliy iqtisodiyotga keng joriy etishga alohida urg'u berilmoqda. Xususan, "1990-yilda o'rta muddatli rejalashtirish (medium-term budgetary framework – MTBF) amaliyotini joriy qilgan davlatlar soni sanoqli bo'lgan bo'lsa, hozirda mazkur amaliyotni to'liq joriy etgan davlatlar soni 132 tani tashkil etmoqda"<sup>1</sup>. Xalqaro amaliyotga ko'ra, o'rta muddatli rejalashtirishni joriy etish pirovardida davlatning o'rta va uzoq muddatli davr uchun moliyaviy resurslarini samarali taqsimlashni rag'batlantirmoqda.

Jahonda iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashning dolzarbligi kuchayib borayotgan sharoitda mahalliy budjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish muammolariga yo'naltirilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Global moliyaviy beqarorlik sharoitida mahalliy budjetni o'rta muddatli rejalashtirishning zarurligi, uning tashkiliy-uslubiy jihatlari va me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, daromad va xarajatlari tarkibi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, mahalliy budjetni o'rta muddatli rejalashtirish uslubiyatiga zamonaviy vosita va usullarni joriy etish, mahalliy budjetni prognozlashtirish jarayonlarida raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish hamda hududlarning o'zaro mutanosib taraqqiyotini ta'minlashda mahalliy budjetlarni moliyalashtirish, jumladan, o'rta muddatli rejalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash

---

<sup>1</sup> OECD data – General Government. <https://data.oecd.org/gga/general-government-revenue.htm#indicator-chart>

va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo‘lishini ta‘minlash – eng muhim ustuvor vazifa”<sup>2</sup> sifatida belgilab berildi. Mazkur vazifa ijrosi borasida davlatning moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda o‘rta muddatga mo‘ljallangan soliq-budjet siyosatiga to‘liq o‘tish, “yuqoridan pastga” budjetlashtirish yondashuvini joriy etish, makrofiskal nazoratini kuchaytirish, budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning javobgarligi va hisobdorligini oshirish, budjet mablag‘larining natijadorligini baholash tizimiga o‘tish, fiskal tavakkalchiliklarini baholash modullarini qo‘llash kabi islohotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega<sup>3</sup>. Shuningdek, o‘rta muddatli budjet asoslarining huquqiy bazasini takomillashtirish, budjetni o‘rta muddatli davr uchun rejalashtirishda kelgusi yil uchun budjet so‘rovlarini taqdim etish muddatlarini yangi budjet taqvimiga mos holda ishlab chiqish orqali muvofiqlashtirish, soliq-budjet siyosatining “natijaga yo‘naltirilgan budjet” tizimi strategik yondashuviga mosligini ta‘minlash, mahalliy budjetlar hisobidan ajratiladigan budjet mablag‘larining chegaraviy miqdorlarini tasdiqlash orqali budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini aniqlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim hisoblanadi.

***Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.*** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

***Muammoning o‘rganilganlik darajasi.*** Mahalliy budjetlarni o‘rta muddatli rejalashtirishga oid tadqiqotlar xorijiy mamlakatlarning iqtisodchi olimlari A.Richard, G.Adams, R.Masgreyv, X.Rosen, F.Uilloubi, A.Vildavskiy, D.Jons, A.Shika, D.Ippolito, N.Keydena, I.Rubin, D.Sevidj, T.Greytens, G.Uemslı, V.Key

---

<sup>2</sup>Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. 8-b.

<sup>3</sup>Allakulliev A. O‘rta muddatga mo‘ljallangan budjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari. Avtoreferat. – T., 2022. 5-b.

va P.Samuelson, N. Groenendijk, A.Yansoo, K.Romenska, V.Chesov, O.Rozhko, S.Simondi, A.Ter va J.Mak Kulloh<sup>4</sup> va boshqalarning asarlarida o‘z aksini topgan.

MDH davlatlarida A.Golovchenko, E.Cherkesova, M.Chinenov, V.Semibratov, B.Boldırev, L.Pavlova, L.Drobozina, F.Niti. N.Kul’kitov, S.Pepelyaeva, G.Polyak, B.Sabanti, A.Kireeva, N.Melnikova, Ye.Shinkaruk, S.Ovchinseva, M.Proxorik, N.Pasechniy, V.Kovalchuk, Sh.Salimbaeva, B.Yesekina, A.Zeynelgabdin, M.Nurmaganbetova, G.Daulieva, A.Niyazbaeva, V.Zubenko, A.Masalimova<sup>5</sup> kabi olimlar davlat budjetini o‘rta va uzoq muddatli rejalashtirish va prognozlashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Vahobov, T.Malikov, N.Xaydarov, Sh.Toshmatov, D.Pulatov, O.Abduraxmonov, U.Burxanov, S.Xudoyqulov, J.Qo‘chqorov, B.Jo‘raev, A.Islamkulov, U.Pardaev, Yo.Fayzullaev,

---

<sup>4</sup> Richard A. Musgrave. The Theory of Public Finance. -McGraw-Hill, 1959. Pp. 628; Henry C. Adams. The Theory of Public Expenditures (1985), American Economic Association; Key V.O. The lack of budgetary theory. The American Political Science Review, Vol. 34, No. 6 (Dec., 1940), pp. 1137-1144; Paul A. Samuelson. The pure theory of public expenditure. (Review of Economics and Statistics, 1954. Vol. 36, No.4, pp. 387-389); Harvey S. Rosen. Public Finance sixth edition. – McGraw-Hill, inc. USA, 2002; Валентин Роик. Экономика, финансы и право социального страхования. Институты и страховые механизмы. – М.: Альпина Паблишер, 2012. – 258 стр.; William F Willoughby. The movement for budgetary reform in the states, New York, London, D. Appleton and Company, 1918; Aaron Wildavsky. Politics of the Budgetary Process; Bryan D Jones, Christian Brewing. Noah and Joseph Effects in Government Budgets: Analyzing Long-Term Memory. // Policy Studies Journal, 2007/8.

<sup>5</sup>Кулькитов Н.Б. Проблема формирования и исполнения бюджета муниципального образования. Маг. дис. 2017. С. 7; Пепеляева С.Г. Налоговое право. Учебное пособие. – М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2000. – 608 с.; Поляк Г.Б. Финансы. Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2015 г. // Сабанги Б.Н. Теория финансов. Учебное пособие. 2-е изд. – М. Менеджер, 2000 г. – 99 с. // Киреева А.В. Среднесрочное бюджетное планирование на современном этапе. Автореферат. – М., 2005 г. // Мельникова Н.А. Среднесрочное планирование бюджета как метод снижения бюджетных рисков. «Актуальные проблемы финансового обеспечения Вооруженных Сил»: материалы VI меж. конф., – Минск, 2018 г. // Шинкарук Е.В. Совершенствование среднесрочного бюджетного планирования. – М.: Бюджетное планирование, 2007. 23 (263). // Прохорик М. Вопросы перехода на среднесрочное планирование. – М.: Прохорик. // «Финансы. Учет. Аудит». 2014. №7. С. 9-11. // Овчинцева С.А. Исполнение бюджетов по расходам в условиях перехода к бюджетированию, ориентированному на результат. Автореферат. 2009 г. // Пасечный Н.Д. Среднесрочное прогнозирование и планирование в системе бюджетных отношений. «Економічний вісник університету». Випуск № 33/1. 2017 г. // Ковальчук В.А. Реформирование бюджетной системы Украины в условиях евроинтеграции Стан та перспективи розвитку невиробничої сфери економіки: регіональні особливості: збірник тез доповідей міжнар. наукової інтернет-конфер., 17 лист., 2017. С. 120-121. // Салимбаева Ш.Д., Валиева Е.Н. Современное состояние бюджетной системы Республики Казахстан в условиях мирового кризиса. <https://studconf.com/pdf/iii/2537.pdf> // Есекина Б.К., Джунусбекова Г.А., Кожумов, А.С. Оценка реализации долгосрочной стратегии развития «Казахстан-2050» с учетом подходов ОЭСР. Экономика: стратегия и практика, № 4 (15), 2020 г. // А.Б.Зейнельгабдин Влияние взаимосвязи денежно-кредитных и налогово-бюджетных инструментов на формирование и использование государственных финансовых ресурсов в Республике Казахстан - «Тұран» университетінің хабаршысы» ғылыми журналы 2020 ж. № 2(86). // Нурмаганбетова М.С., Даулиева Г.Р., Ниязбаева А.А. О вопросах управления и формирования финансовых ресурсов местных бюджетов. Статистика и Экономика. 2021, 18(1):37-46. // Зубенко В.А., Масалимова А.М. Анализ глобальных экономических и политических факторов и вызывов евразийской экономической интеграции. «Мир новой экономики». 2020, 14(3):34-43.

A.Allakulievning<sup>6</sup> ilmiy ishlarida mahalliy budjetlarni o'rtta muddatli rejalashtirish bevosita va bilvosita tadqiq qilingan.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan o'rtta muddatga mo'ljallangan budjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

***Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.*

**Tadqiqotning maqsadi** mahalliy budjetlarni o'rtta muddatli rejalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

mahalliy budjetni o'rtta muddatli rejalashtirishning iqtisodiy mohiyati va zarurligini asoslash;

mahalliy budjetni o'rtta muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlarini

---

<sup>6</sup>Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2012. 284 b.; // Xaydarov N.X. Davlat moliyasini boshqarish. – T.: Akademiya, 2005. – 128 b.; // Toshmatov Sh.A. O'zbekiston Respublikasida moliya tizimining konstitutsiyaviy asoslari. «O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy rivojlanishi: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – T.: Akademiya, 2018. 60-64-b. // Abdurahmanov O.K. Налоговые системы зарубежных стран: пром. развитые страны, развивающиеся страны, налоговые "оазисы". Монография. – М.: Палеотип, 2005. – 355 стр. // Burxanov U.A. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat budjeti taqchilligining omillari va qisqartirish masalalari. Avtoreferat. – T.: BMA, 2002. – 22 b.; // Jo'raev B.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat budjetining roli. Avtorferat. – T., 2001. – 21 b.; // Fayzullaev Yo.Sh., Azizova I.A. Budjetni o'rtta muddatli rejalashtirish. – T.: «infoCOM.UZ», 2010. 152 b.; // Pulatov D.X. O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti g'azna ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlarini. // Avtoreferat. – T., 2017-y. – 65 b.; Islamkulov A.X. Budjetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish. // Avtoreferat. – T., 2020. – 72 b.; // Pardaev U.U. Davlat budjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. // Avtoreferat. – T., 2018. – 58 b.; Xazratkulova L.N. O'zbekiston Respublikasida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish. // Avtoreferat. – T., 2020. – 70 b.; Allakuliev A.B. O'rtta muddatga mo'ljallangan budjetlashtirishning milliy iqtisodga metodologik asoslari. // Avtoreferat. – T., 2022. – 58 b.

tadqiq etish;

mahalliy budjetni o'рта muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy, me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish;

mahalliy budjetni rejalashtirishning rivojlanish tendensiyalarini baholash;

mahalliy budjetlarni o'рта muddatli rejalashtirishda daromad va xarajatlari, ularning tarkibi va barqarorlashtirish amaliyotini tasniflash;

mahalliy budjetni o'рта muddatli rejalashtirishning ilg'or xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

mahalliy budjetlarni o'рта muddatli rejalashtirishda xarajatlarning chegaraviy miqdorini aniqlash;

mahalliy budjetni o'рта muddatli rejalashtirishning ustuvor jihatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** mahalliy budjetlarning daromad manbalari va xarajat yo'nalishlarini o'рта muddatli rejalashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, qiyosiy va iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, prognozlash hamda tadqiqot ob'ektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'рта muddatli budjetni tayyorlash jarayonini ikki bosqichda (tuzish va tayyorlash) amalga oshirish bo'yicha yagona qo'llanmalar to'plami(sirkulyar)ni ishlab chiqish orqali o'рта muddatli budjet asoslarining huquqiy bazasini takomillashtirish asoslangan;

budjetni o'рта muddatli davr uchun rejalashtirishda kelgusi yil uchun budjet so'rovlarini taqdim etish muddatlarini yangi budjet taqvimiga mos holda ishlab chiqish orqali budjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish taklifi asoslangan;

mahalliy budjetlarni oʻrta muddatli rejalashtirishda moliyalashtirish manbai aniq boʻlmagan, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlari(ishchi loyiha, ish hujjatlari, loyiha-smeta hujjatlari)siz yoki loyiha hujjatlarini qurilish-montaj ishlari bilan bir vaqtda tayyorlash, yaʼni parallel ravishda olib borish hollarida budjet tizimi budjetlari hisobidan xarajatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishni taqiqlash orqali soliq-budjet siyosatining “natijaga yoʻnaltirilgan budjet” tizimi strategik yondashuviga mosligini taʼminlash asoslangan;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjet soʻrovini tuzish jarayonida hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga mahalliy budjetlar hisobidan ajratiladigan budjet mablagʻlarining chegaraviy miqdorlarini tasdiqlash orqali budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini aniqlashtirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oʻrta muddatli budjet asoslarining yagona huquqiy bazasini taʼminlashga xizmat qiladigan budjet tizimi darajalari oʻrtasidagi oʻrta muddatli rejalashtirish mexanizmini aks ettiradigan meʼyoriy-huquqiy baza ishlab chiqilgan;

mahalliy budjetlar budjet soʻrovining muddatlari oʻrta muddatga moʻljallangan fiskal strategiyaga mosligi taʼminlanib, ularning oʻrta muddatga moʻljallangan uch yillik prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan;

mahalliy budjetlarni oʻrta muddatli rejalashtirishning sifat va miqdor jihatdan yaxshilanishi hamda amalga oshirilayotgan loyihalar natijadorligining taʼminlanishiga erishilgan;

mahalliy budjetlarning soliq-budjet qoidalarini (uzoq muddatli soliq-budjet koʻrsatkichlarini) ishlab chiqishga xizmat qiladigan oʻrta muddatli budjetni rejalashtirishning uslubiy va meʼyoriy bazasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qoʻllanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, maʼlumotlar bazasining rasmiy manbalardan olingani, xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi hisobot maʼlumotlariga asoslanganligi, shuningdek,



chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'рта muddatli budjetlashtirish uslubiyati qiyosiy tahlilini amalga oshirishda, joriy davlat budjeti sohasida yuzaga kelayotgan muammolarga o'z vaqtida yechim topish hamda ularni bartaraf etish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatning turli hududlarida mahalliy budjetlarni o'рта muddatli rejalashtirish bo'yicha maxsus yo'riqnoma, uslubiy ko'rsatma va me'yoriy-huquqiy tavsifdagi qo'llanmalarni ishlab chiqish, mahalliy budjetlar daromad va xarajatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan dasturiy ishlanmalar, oliy ta'lim muassasalarida mazkur yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi o'quv adabiyotlari va me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mahalliy budjetlarni o'рта muddatli rejalashtirish istiqbollari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

o'рта muddatli budjetni tayyorlash jarayonini ikki bosqichda (tuzish va tayyorlash) amalga oshirish bo'yicha yagona qo'llanmalar to'plami(sirkulyar)ni ishlab chiqish orqali o'рта muddatli budjet asoslarining huquqiy bazasini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 506-sonli qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 16-maydagi 06/04-01-01-37/1599-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida budjet tizimi darajalari o'rtasidagi o'рта muddatli rejalashtirish mexanizmini ishlab chiqish va undan foydalanish imkoni yaratilgan;

budjetni o'рта muddatli davr uchun rejalashtirishda kelgusi yil uchun budjet so'rovlarini taqdim etish muddatlarini yangi budjet taqvimiga mos holda ishlab chiqish orqali budjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrda "Budjet jarayoni

takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-660-sonli qonuniga muvofiq tegishli o‘zgartirishlarni kiritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 16-maydagi 06/04-01-01-37/1599-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 92-moddasiga tegishli o‘zgarishlar kiritilib, mahalliy budjetlar budjet so‘rovining muddatlari o‘rta muddatga mo‘ljallangan fiskal strategiyaga mosligi hamda ularning o‘rta muddatga mo‘ljallangan uch yillik prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilishini ta’minlash imkoni yaratilgan;

mahalliy budjetlarni o‘rta muddatli rejalashtirishda moliyalashtirish manbai aniq bo‘lmagan, belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha hujjatlari(ishchi loyiha, ish hujjatlari, loyiha-smeta hujjatlari)siz yoki loyiha hujjatlarini qurilish-montaj ishlari bilan bir vaqtda tayyorlash, ya’ni parallel ravishda olib borish hollarida budjet tizimi budjetlari hisobidan xarajatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishni taqiqlash orqali soliq-budjet siyosatining “natijaga yo‘naltirilgan budjet” tizimi strategik yondashuviga mosligini ta’minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrda PQ-4555-sonli qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 16-maydagi 06/04-01-01-37/1599-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida rejalashtirilgan loyihalarning o‘rta muddatlardagi prognoz istiqbol mo‘ljallaridan kelib chiqib, uch yillik prognoz ko‘rsatkichlari aniqligi oshishi mahalliy budjetlarni o‘rta muddatli rejalashtirishning sifat va miqdor jihatdan yaxshilanishi hamda amalga oshirilayotgan loyihalar natijadorligi ta’minlanishiga imkon yaratilgan;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjet so‘rovini tuzish jarayonida hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga mahalliy budjetlar hisobidan ajratiladigan budjet mablag‘larining chegaraviy miqdorlarini tasdiqlash orqali budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini aniqlashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrda “Budget jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-660-sonli qonunida aks etgan (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 16-maydagi 06/04-01-01-37/1599-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28-moddasiga o'zgartirish kiritilib, o'rta muddatli budjetni rejalashtirishning uslubiy va me'yoriy bazasi, davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash uchun soliq-budjet qoidolari (uzoq muddatli soliq-budjet ko'rsatkichlari) ishlab chiqilishini ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, shuningdek, 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 121 betni tashkil etadi.

# **I BOB. MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING NAZARIY, TASHKILiy-USLUBIY ASOSLARI**

## **1.1. Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning iqtisodiy mohiyati va zarurligi**

Jahon mamlakatlari uchun moliyaviy barqarorlikni oshirishning yo'llarini izlash muhim bo'lib qolmoqda. Mazkur holat yangi global muammolarning, jumladan, COVID-19 pandemiyasining paydo bo'lishi va yana bir qancha global muammolarning vujudga kelishi bilan yanada murakkablashdi. Mahalliy byudjet daromadlarini kengaytirish hamda soliq to'lovchilarni aniqlashtirish va unga nisbatan yondashuvlarning asoslangan holda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish mamlakat miqyosida bir xil xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin, lekin hududiy nuqtai nazardan o'zaro farqlanishi mavjud bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning ijrosini ta'minlash va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash moliyaviy strategiyaning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ikki jihatdan qaralishi mumkin. Jumladan:

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirishning barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish belgilandi.

Ushbu yo'nalishlarning iqtisodiyot va byudjet barqarorligini ta'minlash ekanligi ta'kidlanib, barcha sohalarga byudjet tushumi va xarajatlarini optimallashtirish topshirildi. Korxonalar faoliyatini qayta tiklash va soliq ma'muriyatchiligini yaxshilash hisobiga qo'shimcha daromadlarni ta'minlash,

tashqi qarz bitimlarini tuzishda belgilangan cheklovdan oshmaslik bo'yicha ko'rsatma berildi<sup>7</sup>.

Bizningcha, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi samarali ishlashi ko'p jihatdan hududning moliyaviy potensialiga bog'liq. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan vertikal moliyaviy vakolatlarni gorizontal xususiyatga o'tkazishni taqozo etadi. Ushbu holatning joriy etilmasligi moliyaviy mustaqillikning istiqbolini mavhumlashtiradi. Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasini shakllantirishning muhim omili moliyaviy mustaqillik hisoblanadi. Mahalliy byudjetlarning ijrosini ta'minlash va ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash moliyaviy strategiyaning muhim yo'nalishlari sanaladi.

Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ikki jihatdan qaralishi mumkin. Xususan:

Bizningcha, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi samarali ishlashi ko'p jihatdan hududning moliyaviy potensialiga bog'liq hisoblanadi. Bu esa hozirda mavjud bo'lgan vertikal moliyaviy vakolatlarni gorizontal xususiyatga o'tkazishni taqozo etadi. Ushbu holatning joriy etilmasligi moliyaviy mustaqillikning istiqbolini mavhumlashtiradi.

Shu bois, mahalliy byudjetlarning xarajatlarini amalga oshirishdagi barqarorligi moliyaviy staregiyani mustaqil shakllantirishdagi vakolatlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasi markazlashtirilgan holda amalga oshiriladi. Bunda xarajatlar yagona huquqiy hujjat bilan belgilanadi va daromadlar markazga to'planib, qayta taqsimlash orqali hududlarga beriladi. Mahalliy byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilash deganda davlatda yuritilayotgan siyosatning qiymati, istiqbollari haqida aniq tasavvur hosil qilishga, yangi islohotlarni joriy qilishni, shu bilan birga nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish shakli sifatida xizmat qiladi.

---

<sup>7</sup> Iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilandi// Xalq so'zi, 2020.

Iqtisodchi olimlar tomonidan, XX asr boshlarida G‘arb jamoatchilik fikri milliy iqtisodiyotni rejalashtirish imkoniyatini inkor etib, bozor o‘zini o‘zi tartibga solishga qodir deb hisobladi.

Globalashuvning hozirgi bosqichi vositasi sifatida rejalashtirilayotgan moliyaviy munosabatlarga davlat aralashuvi zarurligi masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yigirmanchi asr oxirida davlat tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanadi, bashorat qilish va dasturlashning turli shakllari keng amaliyotda qo‘llanildi<sup>8</sup>. Ko‘p afzalliklarga qaramay, ularning asosiylari cheklangan resurslarni yanada oqilona taqsimlash, ijrochilarning harakatlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyati, rejalashtirishning bir qator kamchiliklari ham bor, ularning asosiysi – imkonsizligi, rejada har xil turmush sharoitlarini aks ettirishdir<sup>9</sup>.

Umumiy rejalashtirish, xususan, byudjetni rejalashtirish umumiy nazariy asosga ega: “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish milliy dasturi asosida byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni maqsadli taqsimlash va qayta taqsimlash, turli darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg‘armalarni tuzish va bajarish jarayoni ”<sup>10</sup> deb keltirilgan iqtisodchi olimlar tomonidan.

Mahalliy byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish davomida kelgusi moliyaviy yil uchun moliyaviy resurslar miqdori, daromadlari manbalari, xarajatlarining hajmi va yo‘nalishi, byudjet defitsiti miqdori, uni qoplash uchun tashqi va ichki qarz mablag‘larining miqdori va manbalari, transfertlar miqdori va inflyatsiya darajasi aniqlanadi. Byudjetni rejalashtirish iqtisodiyot va ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish maqsadida moliyaviy resurslardan kompleks foydalanishni kuchaytirishga qaratilgan<sup>11</sup>.

---

<sup>8</sup>Петрова С. В. Государственное планирование и обеспечение реализации планов в условиях рыночной экономики: материалы научно-технической конференции МГТУ. М., 2000.

<sup>9</sup>Чиненов М. В., Семибратов В. С. Бюджетное планирование и прогнозирование: учебное пособие. Балашиха: ИСЭПиМ, 2008. 117 с.

<sup>10</sup>Смородинова Н. И., Золотарева Г. И. Планирование доходов и расходов бюджета: учебное пособие. Красноярск: Сибирский гос. аэрокосмический ун-т им. акад. М. В. Решетнева, 2006. 116 с.

<sup>11</sup>Болдырев Б. Г., Павлова Л. П., Дробозина Л. А. и др. Финансы капиталистических государств: учебник для вузов по специальности «Финансы и кредит» / под ред. Б. Г. Болдырева. 4-е изд., перераб. и доп. М.: Финансы и статистика, 1985. 344 с

Natijada o'z oldiga byudjet mablag'larini taqsimlashning asoslanish darajasini oshirish, davlat sarmoyasini xususiy sektorning investitsiya rejalari bilan muvofiqlashtirish vazifasini qo'yadi.

O'rta muddatli rejalashtirish byudjetni tayyorlash jarayoniga strategik yondashuvni ta'minlovchi uni ishlab chiqishning yaxlit tizimi bo'lib, byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilash jarayoni har yilgi byudjet jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolishi shart. Byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilashning to'liq va samarali olib borilishi bizga byudjet ijrosini hatto alohida sektorlar va muassasalar bo'yicha ham qat'iy intizom asosida ta'minlashga imkon beradi<sup>8</sup>.

Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab iqtisodchi-olimlar o'z navbatida, byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning tutgan o'rni byudjet daromadi manbasi sifatidagi roliga bo'lgan turli qarashlarni keltirib chiqargan va tadqiq etilgan.

Xususan, mahalliy byudjetlarning moliyaviy asoslari, mahalliy byudjetlarni tartibga solish masalalari xorijiy iqtisodchi-olimlardan Italiyalik olim F.Nittineing keltirishicha "soliqlar-davlatning iqtisodiy siyosatini ajralmas qismidir. Agar yig'iladigan soliqlarning sezilarli qismi ishlab chiqarish maqsadlariga samarali ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishga va ilmiy tadqiqotlarga ishlatilsa, agar armiya va davlat apparatini saqlash xarajatlari nisbatan katta bo'lsa u holda soliqlar ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi. Va, aksincha, agar yig'iladigan soliqlar byudjet sohasi orqali iste'molga yo'naltirilsa, ya'ni yeb yuborilsa u holda ular mamlakat iqtisodiyotiga vayron qiladigan tarzda ta'sir ko'rsatadi"<sup>12</sup>.

Iqtisodiy nazariya klassik namoyandalari A.Smit, D.Rikardo, A.Vagner asarlarida davlat g'aznasi (byudjeti)ning turli darajada mavjud bo'lishligi haqidagi ilmiy qarashlarni ko'rish mumkin. Bu olimlarning tadqiqot obyekti mahalliy jamoalarning daromadlari, xarajatlari, ularning muxtoriyati, soliq tizimining samaradorligi edi<sup>13</sup>, lekin mahalliy byudjetning ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan bog'liqligiga unchalik e'tibor berilmadi.

---

<sup>12</sup>Нити. Ф. "Основные начала финансовой науки" 241-бет

<sup>13</sup>Кулькитов Н. Б "Проблема формирования и исполнения бюджета муниципального образования" –маг.дис-2017 й Б-7

O‘z navbatida, I.Ozerov ham mahalliy byudjet o‘rta muddatli rejalashtirish mohiyatini aniq ochib bermay, ularni o‘z moliyaviy iqtisodiyotiga ega bo‘lgan ijtimoiy birlashmalar<sup>14</sup> deb ta’riflaydi, ularning moddiy asosini, shakllanishi va taqsimlanishini aks ettirmaydi.

S.Pepelyaev o‘z tadqiqotlarida mahalliy byudjetlarning daromadlari qonuniy, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining daromadlari ular faoliyatining o‘zgarishidan qat’iy nazar doimiy va barqaror bo‘lishi hamda o‘zining vakolatlari doirasida mustaqil belgilangan daromadlariga, ya’ni mahalliy soliqlar va yig‘imlar hisobiga shakllanishi lozimligini ta’kidlaydi. Byudjet daromadlari tizimining tamoyillariga ko‘ra, mahalliy byudjetlar yetarli, barqaror va mustaqil bo‘lishi kerakligini e’tirof etgan,<sup>15</sup> J.Keynsning fikriga ko‘ra, bozor mexanizmi takomillashgan mexanizmdir, shuning uchun iqtisodiyot o‘z-o‘zini boshqarishning samarali instrumentlariga ega emasdir. Bunday sharoitda faqat davlat fiskal va pul kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish qobiliyatiga egadir. Yuqori progressiv soliqlar davlat byudjetini muvozanatlashga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlatning adolatli ijtimoiy siyosati muhim ahamiyat kasb etib, soliq yuki to‘liq badavlat soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklanadi<sup>16</sup>.

XIX asrda S.Simondi soliqlarning byudjet daromadlari sifatidagi mohiyatini tadqiq qilish asosida shunday xulosaga keladi: Soliq to‘lovchi davlat xizmatlarini kelgusida iste’mol qilish maqsadida joriy ne’matning ma’lum qismini hukumat foydasiga qurbon qiladi. XIX asrning boshqa iqtisodchilari A.Ter va J.Mak-Kulloh soliqni davlatga berilgan “sug‘urta to‘lovi” sifatida qaraydilar<sup>17</sup>.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda mahalliy byudjetlarga mustaqillik berishning predmetlarini E. Cherkesova va A. Golovchenko keltirishicha: “Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajalarini moslashtirish; mahalliy byudjetlarga mustaqillik berish mulk egalariga imkoniyat yaratish; xarajatlarni moliyalashtirishga ta’sir qilishning to‘g‘ri va teng nisbatlarini shakllantirishga ta’sir

---

<sup>14</sup> Озеров.И «Основы финансовой науки»

Источник: <https://www.rea.ru/ru/org/faculties/finfak/Pages/ozerov.aspx> © ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В.Плеханова»

<sup>15</sup> С,Г Пепеляева С,Г “Налоговое право”: Учебное пособие / .- М.: “ИД ФБК-ПРЕСС” 2000-608С

<sup>16</sup> Кейнс.Д.М. “Общая теория занятости, процента и денег” М.Прогресс, 1978й 365-бет

<sup>17</sup> Jo‘rayev.A “Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo‘llari” // T.:Fan, 2004 y. 24 bet



ko'rsatish; optimal ta'minlash uchun mahalliy byudjet muassasalari, quyidagilardan iborat deb ta'riflaydi"<sup>18</sup>.

Iqtisodchi U.Pardaev "davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirishda soliq potensialidan fodalanish zarurligini e'tirof etgan holda, soliq potentsiali bo'yicha nazariy qarashlarini ilgari surgan"<sup>19</sup>.

Byudjetlarning o'rta muddatli rejalashtirishning afzalliklari haqida ayrim o'zbek iqtisodchi olimlari ham o'z fikr va mulohazalarini keltirib o'tgan, xususan, A.Shernaev o'rta muddatli rejalashtirish haqida eng muhim to'rt afzalliklarni sanab o'tgan bo'lib, "Birinchisi, byudjet daromadlarining faqatgina bir yilga rejalashtirilishi belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha chora-tadbirlarni sifatli darajada rejalashtirilmassligiga sabab bo'lishi. Ikkinchidan, korxonalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki kengaytirishda o'z xarajatlarini, shu jumladan, soliq va to'lovlarni ham rejalashtiradi. Soliq siyosatining o'rta muddat uchun belgilangan yo'nalishlari ular uchun muhimligi haqida gapirib o'tilgan. Navbatdagi uchinchi sabab, davlat byudjeti solikli daromadlarini o'rta muddatga rejalashtirishda iqtisodiy siyosatning ko'zlangan maqsadlari hisobga olinishi. To'rtinchidan, chet ellik investorlar tomonidan mamlakatga investitsiya kiritish uchun ushbu davlatda o'rta muddatli soliq siyosati yo'nalishlari mavjudligi muhim rol o'ynaydi"<sup>20</sup>.

U.Pardaev tadqiqotlari natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlarni respublika byudjetidagi umumdavlat soliqlari tarkibidan mahalliy byudjetning biriktirilgan daromadlari tarkibiga o'tkazilishi taklif qilingan"<sup>21</sup>.

Byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilash tizimi va amaliyotiga o'tish tez va oson yuz beradigan jarayon emas, albatta. Bunga turli davlatlarda turlicha yondashuv va islohotlar asosida mazkur amaliyotga o'tish uslubiyotlari ishlab

---

<sup>18</sup> Черкесова Э.Ю. Головченко А.В "среднесрочное финансовое планирование и разработка бюджета муниципального образования"; "Новые технологии в социально гуманитарных науках и образовании: современное, проблемы, перспективы развития" Сборник научных трудов по материалам Международной научно-практической конференции; г. Белгород, 28 апреля 2018 г. 140-141 бетлар

<sup>19</sup> Pardaev.U. "Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish"// 2013 № 5//65-70 -betlar

<sup>20</sup> Shernanayev.A.A " davlat byudjeti solikli daromadlarining o'rta muddatli istiqbollari belgilash masalalari" i.f.n. olish uchun yozilgan dis. 40-41 betlar

<sup>21</sup> Pardaev.U. "Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish"// phd diss.avtoref.-T.-:2018y. 25-26 betlar.

chiqilib, takomillashtirilib borilmoqda.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirib beradi.

Ular:

a) mahalliy byudjetlarning xarajatlari darajasida ularning shunga teng bo'lgan daromadlar bilan ta'minlanganligi;

b) respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarning daromadlariga qayta beriladigan daromadlarni hisobga olgan holda mahalliy byudjetlarning daromadlari darajasini xarakterlovchi ko'rsatkich;

d) mahalliy byudjetlarning xarajatlarini o'z vaqtida va belgilangan summalarda to'liq moliyalashtirilganligini ifodalovchi ko'rsatkich;

e) mahalliy byudjetlarning daromad bazalari sifatida e'tirof etilgan daromadlarning belgilangan summalari va o'z vaqtida byudjetga to'liq tushib turishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich;

f) mahalliy byudjetlar umumiy daromadlari tarkibida birlashtirilgan daromadlarning salmog'i orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich;

g) mahalliy byudjetlar umumiy daromadlarining tarkibida tartibga soluvchi daromadlarning salmog'i orqali ifodalanuvchi ko'rsatkich;

h) mahalliy byudjetlarni maqsadli subvensiyalashtirish ko'rsatkichi;

i) mahalliy byudjetlar xarajatlari bir qismining dotatsiyalar hisobidan qoplanish darajasi orqali ifodalanuvchi ko'rsatkichi kabilarni keltirib o'tadi.

Sh.Qiyosov mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammolarini hal qilish maqsadida tabaqalashtirilgan daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlariga quyidagi vakolatlarni berishni tavsiya etadi<sup>22</sup>:

– mintaqlardagi soliqlarni muvozanatlash va byudjet ehtiyojlarini muvofiqlashtirish;

– investitsiyalar, bandlik bozorlari faoliyatini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan soliq rejimlarini o'rnatish;

---

<sup>22</sup>Қиёсов Ш. Маҳаллий бюджет даромадларини шакллантириш муаммолари //Молия журнали. –Т.: 2014. -№1. – Б. 36-40.

- yuqori va quyi bo‘g‘inlarini bir-biriga bo‘ysunishini yangilash va tizimlash;
- mintaqada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida tabiiy zaxiralardan foydalanish solig‘i stavkalarini belgilash;
- imtiyozli soliq solishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash.

X.Qobulov hududiy imkoniyatlar va mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida tadqiqotlar olib borib ilmiy xulosalarni shakllantirib beradi<sup>23</sup>. Uning fikriga ko‘ra, mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari tavsiflanganda daromadlar bazasi bilan cheklanib qolmaslikni, balki uni o‘sib borayotgan majburiyatlar sur‘atlariga muvofiq tarzda davlatning qo‘shimcha tadbirlari tizimidagi aniq choralar bilan ham muvofiqlashtirish lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Ya’ni “mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyati uning xarajatlari dinamikasidagi o‘sish sur‘atlariga, shuningdek jahon andozalariga mos tarzda shakllangan byudjet me‘yorlarining bajarilishini ta’minlashga imkon beruvchi daromad bazasidir” deb qayd etib o‘tadi.

A.Islamkulov, “ Respublikada davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta’minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohalarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta’kidlaydi”<sup>24</sup>.

Professor Sh.Toshmatov, “mahalliy byudjetga soliqlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash tizimini mahalliy hokimiyatlarning soliq tushumlarini maksimallashtirishdan manfaatdorligini ta’minlash kontekstida takomillashtirish” deb ta’rif beradi”<sup>25</sup>.

Fikrimizcha, byudjet tizimining turli sohalar o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash tizimining negizini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi assimetrik tafovut hisoblanadi.

---

<sup>20</sup> Qobulov H.A. “Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari” // i.f.n/ avtoref-T.: BMA//2011-y// 22bet

<sup>21</sup> Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash masalalari// “iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali//№4, iyul-avgust,2016-y// [http:// iqtisodiyot.uz/ sites/ default/ files/ maqolalar/ 43\\_A\\_Islamkulov.pdf](http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43_A_Islamkulov.pdf)

<sup>25</sup> Toshmatov. Sh . A. “ Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda davlat byudjeti daromadlari manbalarini kengaytirish yo‘nalishlari // respublika ilmiy –amaliy anjumani materillari to‘plami // 2017 y,10 noyabr –T.: TDIU, 2017 y, 27-28 betlar

Ram<sup>26</sup> (Ram, 1986), Holmes va Hutton<sup>27</sup> (Holmes and Hutton, 1990) hamda Aschauer<sup>28</sup> (Aschauer, 1989)lar davlat byudjeti va makroiqtisodiy o'sish o'rtasida to'g'ridan to'g'ri holatdagi ijobiy bog'liqlik borligini ta'kidladilar.

Bu borada iqtisodchilar N. Groenendyuk va A.Yansoolar<sup>29</sup> (Nico Groenendijk, Annika Yansoo) o'tish davrini boshdan kechirayotgan Boltiqbo'yi mamlakatlarini solishtirma tahliliga asoslanib daromadlarni markaziy byudjet orqali qayta taqsimlash tizimining ko'lami va masshtabi mamlakat hududlarining iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutga bog'liqligini asoslaydilar. Mamlakatning yaxlit muvozanatli taraqqiyotini ta'minlashning R. Masgreyv (R.Musgrave) nazariyasiga ko'ra<sup>30</sup>, markaziy hokimiyatning asosiy funksional vazifasi hisoblanadi.

M.Xusainov mahalliy byudjetlarning xarajatlarini taqsimlashda iyerarxik baholash orqali byudjet xarajatlari yo'nalishlariga ustunlik berish orqali mablag'larni taqsimlashni taklif etadi. Bunda mahalliy byudjetni ko'p qamrovli klaster shaklida tasvirlab, ijtimoiy, maishiy, ma'muriy va madaniy sohalarning ustunlik darajasini o'rtacha vaznga hisoblash orqali amalga oshirishni taklif etadi. Shu nuqtayi nazardan, ekspert-so'rovnoma metodidan foydalanishni tavsiya etadi<sup>31</sup>.

N.Yuldashevaning firiga ko'ra, "jismoniy shaxslarning mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadidan to'lanadigan soliqlarni tuman va shaharlar byudjetiga birlashtirish asosida mahalliy budjetlarning daromad bazasi barqarorligini ta'minlash zarur;

Ijtimoiy nafaqa xarajatlarini moliyalashtirishni quyi mahalliy byudjetlarga o'tkazish lozim;

Hududiy moliya organlari, adliya, pensiya ta'minoti sohasi, suv xo'jaligi, malaka oshirish markazlarini saqlash xarajatlarini mahalliy byudjetlarga o'tkazish kerak;

---

<sup>26</sup> Ram, R. (1986). Government size and economic growth: A new framework and some evidence from cross-section and time-series data. *The American economic review*, 76(1), – Pp.191-203.

<sup>27</sup> Holmes, J. M., & Hutton, P. A. (1990). On the casual relationship between government expenditures and national income. *The Review of Economics and Statistics*, – Pp. 87-95.

<sup>28</sup> Aschauer, D. A. (1989). Is public expenditure productive? *Journal of monetary economics*, 23(2), – Pp. 177-200.

<sup>29</sup>NicoGroenendijk, Annika Yansoo. Fiscal federalism in transition countries: the three Baltic state compared/ *Public finance and management/ volume 16, №3, pp.255-280, 2016.*

<sup>30</sup> Richard A. Musgrave. *The Theory of Public Finance.* -McGraw-Hill, 1959. – pp.628.

<sup>31</sup> Husainov.M "Mahalliy byudjetni kalsterli tahlil etish"//*Iqtisodiyot va ta'lim jurnali //T.:*, 2011-y № 6-117-119 betlar

Noruda qurilish materiallari bo'yicha yer ostidan foydalanganlik uchun soliqlardan tushumlarni mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish lozim"<sup>32</sup> deb hisoblaydi.

Yuqorida iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari keltirilgan fikr mulohazalarda mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirishning hozirgi sharoitdagi dolzarb moliyaviy omillari tadqiq etilgan bo'lib, mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejaga o'tishga asos bo'lgan quyidagi sabablarni aytib o'tish mumkin:

- bir yildan ortiq davom etayotgan davlat dasturlarining moliyalashtirilishining zarurligi va kafolatlar talab etishi;

- davlat dasturlari bilan ularni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar o'rtasida ishonchli bog'liqlik bo'lishi zarurligi;

- byudjet jarayonining oldindan bashoratlay olish va shaffofligi darajasini oshirish zaruriyatining mavjudligi va boshqalar.

Boshqacha so'z bilan aytganda, ko'plab byudjet dasturlari bir necha yilga mo'ljallanishi qisqa muddatli byudjetlashtirish amal qilgan sharoitda ushbu holat salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin, chunki dasturni amalga oshirish yuzasidan faoliyat yurituvchi ishchi guruh ixtiyorida yetarli mablag'ning bo'lmasligi hisoblanadi. Byudjet xarajatlarini o'rta muddatli istiqbolga ko'ra rejalashtirish esa bu kabi holatlarga barham beradi. Bunda tegishli organlar ko'zda tutilgan dasturlarni ushbu davr mobaynida amalga oshirishi uchun mutanosib asosga ega bo'ladi.

Byudjetning o'rta muddatli istiqbolini belgilashda byudjet shaffofligini oshirishdagi eng samarali vositalardan biri bu aynan byudjetni o'rta muddatli shaklda rejalashtirish doirasida mablag'lar sarfini dasturli asosda tuzish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin. Uning o'rta muddatli istiqbolini belgilash esa kelgusi davr uchun ishlab chiqilgan dasturli byudjetni tayyorlashda asosli ko'rsatkichlardan foydalanish imkonini beradi, shuningdek, vazirliklar va boshqaruv idoralari faoliyatiga baho berish mumkin bo'ladi.

---

<sup>32</sup>Yuldasheva N.B "Mahalliy byudjetlarni tartibga solish usullarini takomillashtirish" i.f.boyicha.dis.avtoreferat//2021y,8-bet

Byudjetning oʻrta muddatli istiqbolini belgilashda buudjet jarayoni boshlanishida avvalgi byudjet siklida maʼqullangan istiqbolli (oʻrta muddatli) va moliyaviy rejalar koʻrsatkichlarini koʻrib chiqish, oʻzgarishlarni tahlil qilish, ular asosida rejalashtirilayotgan yil uchun asosiy byudjet parametrlarini belgilash, shuningdek kelgusi davr uchun byudjetni rejalashtirishda tuzatishlar va qoʻshimchalar kiritish mumkin boʻladi.

Oʻrta muddatli rejalashtirishni tadbiq qilishda, avvalombor, aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish, rejalashtirishning turi va shakl, muddatlarini aniqlash, koʻrsatkichlar darajalarini belgilash demakdir.

Oʻz mohiyatiga koʻra, oʻrta muddatga byudjetni rejalashtirish va istiqbolini belgilash quyidagilarni nazarda tutadi:

- byudjetning oʻrta muddatli istiqbolini belgilash, ishlab chiqish va tasdiqlash;
- mahalliy byudjet xarajatlari yoʻnalishi ijrosini taʼminlash shakllariga koʻra yoki boshqa tartibda yuritilayotganiga koʻra olib borish;
- mahalliy budjetning oʻrta muddatga xarajatlar yoʻnalishini meʼyorlarini oʻrnatish deb hisoblaymiz.

Mahalliy budjetning moliyaviy barqarorligini tizimli baholash budjetga zarur oʻzgartirishlar kiritish, byudjetni rejalashtirish sifati va byudjet siyosatining samaradorligining samaradorligi toʻgʻrisida qarorlarni qabul qilishning zaruriy sharti, degan xulosaga keldik. Jahon moliyaviy –iqtisodiy beqarorlikning chuqurlashishi bilan inqirozni boshqarish tizimida byudjet barqarorligining chuqurlashishi bilan inqirozni boshqarish tizimida byudjet barqarorligini oshirish yoʻllarini izlash muhim muammo boʻlib qolmoqda. Bu dolzarblik, yangi global muommolarning, jumladan, Covid pandemiyasining paydo boʻlishi bilan murakkablashdi. Tadqiqotimiz mohiyati mahalliy byudjetning moliyaviy barqarorligini oʻz vaqtida va kompleks tahlil qilish moliyaviy –iqtisodiy tavakkalchiliklarni har tomonlama baholash, ijtimoiy va boshqa muaommolarni aniqlash asnosida mahalliy byudjetlarni oʻrta muddatga rejalashtirish orqali mahalliy byudjetdan qilinadigan xarajatlarni toʻgʻri amalga oshirish, aniqroq qilib

aytganda mintaqaviy byudjet siyosatini to'g'ri va samarali shakllantirish imkonini beradi.

## **1.2. Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari**

O'zbekiston iqtisodiyotida ro'y berayotgan islohotlar, barcha sohadagi majburiyatlarining bajarilishini davlat byudjetini rivojlantirishni ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Byudjet tizimini tubdan isloh qilish, davlat byudjetini xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish, byudjet istiqbolini belgilashning yangi mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti istiqbolini belgilashning takomillashtirilishini talab etadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar doirasida qisqa muddatli byudjetlashtirish amaliyotidan o'rta muddatli byudjet istiqbolini belgilashga o'tish yuzasidan qator tadbirlar va amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlar davlat moliyasini boshqarish borasidagi islohotlarning davomi hisoblanadi.

Davlat moliyasi sohasidagi ushbu yangicha yondashuvning mohiyati shundaki, davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirish va uning ijrosi borasida aniq ko'rsatkichlar va tamoyillar asosida yuqori natijaviylikning ta'minlanishiga erishishdir. O'zbekistonda davlat byudjetining xarajatlari 3 yilga rejalashtirilishi va ularning aniq solishtirma ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi ta'minlanishini ko'rsatadi. Ko'plab o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan, bir qator MDH davlatlari O'rta muddatli rejalashtirish va natijaviylikka yo'naltirilgan byudjetga o'tish yuzasidan ilg'or tajribaga ega va ular jadal sur'atlar bilan ushbu jarayonni amalga oshirmoqdalar.

Ko'plab iqtisodchi olimlar fikrlariga e'tibor qaratsak, ularning xorij tajribasiga murojaat qilishlarini tez-tez kuzatamiz. Biroq birgina mamlakat tajribasini to'lig'icha biror mamlakatga joriy etib bo'lmaydi. Uzil-kesil qarorlarga kelish bir necha mamlakatlardagi umumiy tendensiyalarni o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Oʻrta muddatli byudjet istiqbolini joriy etishda ham umumiy tendensiyalar va uni joriy etish shart-sharoitlari, makroiqtisodiy koʻrsatkichlarga ijobiy natijalarga erishish uchun qoʻyiladigan talablar mavjuddir.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, davlat byudjetini yillik byudjetdan oʻrta muddatga rejalashtirishga oʻtish uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

– barqaror iqtisodiy oʻsish hamda uning darajasini oʻrta va uzoq muddatli istiqbolda saqlab turish (xalqaro ekspertlar baholashishicha, oʻrta hisobda 6 % YaIMning yillik oʻsishi, 2-4 % inflyatsiya darajasi, 2-3 % ichki qarz, 27-28 % YaIMga nisbatan davlat byudjeti daromadlari ulushi, 30-31 % YaIMga nisbatan davlat byudjeti xarajatlari ulushining boʻlishi natijaviylikka yoʻnaltirilgan oʻrta muddatli davlat byudjeti istiqboli tizimini joriy etishda ijobiy natijalarga erishish mumkin);

– uzoq va oʻrta muddatli rivojlanish dasturlarining mavjudligi hamda davlat, tarmoq, hududiy miqyosda islohotlar va ularni davlat byudjetidan moliyalashtira olish imkoniyati mavjudligi;

–barqaror soliq tizimi va davlat daromadlarini prognozlashtirishning ishonchli dastaklari mavjudligi.

Davlat moliyasini tizimi va byudjet ijrosini samarali kuchaytirish, soliq-byudjet tizimining shaffofligini taʼminlash, mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet daromadlari prognoz koʻrsatkichlari bajarilishida manfaatdorligini kuchaytirish uchun 2020-2024 - yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilangan<sup>33</sup>:

– Soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida oʻrta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi «natijaga yoʻnaltirilgan byudjet» tizimini joriy etish;

– Makrofiskal prognozlar ishonchliligini taʼminlash boʻyicha institutsional salohiyatni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining masʼuliyatini oshirish;

---

<sup>33</sup> 2019 yil 30-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasining “2020 yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining davlat byudjeti toʻgʻrisida” gi qonuni ijrosini taʼminlash chora –tadbirlari toʻgʻrisidagi 4555-sonli Prezidenti qarori



-Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;

-Fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;

-Byudjet hisobi standartlarini unifikatsiya qilish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;

-Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;

-Byudjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Mamlakatda byudjet tizimini o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirishga o'tkazish bo'yicha ishlar ancha oldin boshlangan va bugungi kunda yanada avj olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda. Byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish haqida gap borganda ko'p hollarda asosan ikkita masalaga ya'ni, byudjetning daromadlar qismini ta'minlab beradigan iqtisodiy o'sish va uning barqaror bo'lishi hamda xarajatlarning natijador bo'lishi haqida fikrlar bildiriladi. Byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirishni zaruratga aylantiradigan xarajatlarning natijador bo'lishiga tadqiqotlarda e'tibor qaratiladi. Chunki davlat byudjetini o'rta va uzoq muddatga tuzilishi zaruriyati, avvalo, davlat oldiga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifasini uzoq muddatli jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Huddi uzoq va o'rta muddatli rejalashtirish kabi natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish yoki dasturiy-maqсадli moliyalashtirishga o'tish hisoblanadi. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tish uchun byudjetni o'rta va uzoq muddatli rejalashtirish mexanizmlari bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Fikrimizcha, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish (dasturiy-maqсадli moliyalashtirish) tizimi yoki uning elementlari bo'lmasa, byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirishning mantiqiy asoslari yo'qoladi. Ya'ni, byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish aynan natijalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralardan biridir.

Zamonaviy sharoitda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish, tez o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida o'rta muddatli rejalashtirishni taxminlashtirish, davlat moliyasini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlarini realizatsiya qilishdagi imkoniyatlarini baholash maqsadida O'zbekistonda o'rta muddatli fiskal siyosatni amalga oshirish uslubiyotiga asoslangan davlat moliyasini boshqarish tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim sharoitida davlat byudjeti daromadlarining kelgusi yiliga prognozi va navbatdagi 2 yili uchun taxmin ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar davlat moliyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha ham keng islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda<sup>34</sup>.

O'rta muddatli davlat byudjeti daromad va xarajatlari rejasini o'zida namoyon qiluvchi o'rta muddatli fiskal siyosat davlat moliyasining istiqboldagi iqtisodiy taraqqiyotni o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlariga uyg'unlashgan ravishda shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekistonda davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirish: o'rta istiqbolga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kompleks dasturlarini realizatsiya qilish amaliyotining joriy etilganligi, ushbu dasturlarni ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb qilish bo'yicha davlat qarz siyosatini yuritilayotganligiga ham bog'liq bo'lmoqda.

Mamlakatda amaldagi tartiblarga muvofiq, davlat byudjeti indeksatsiyalarni qo'llash metodi bilan bir yillik asosda tuziladi. Chunki byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet tashkilotlari o'zlarining istiqbollarni rejalashtirilgan yildan uzoqroq davrga prognozlashtira olmaydi. Buning asosiy sababi esa kelajakdagi makroiqtisodiy o'zgarishlarni va ularning fiskal ko'rsatkichlarga ta'sirini oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligidir.

---

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrda PQ-4555 –son "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida" gi qonuni ijrosini ta'minlash chora –tadbirlari to'g'risidagi qarori

Aynan ushbu indikatorlardan mamlakat byudjet tizimida oʻrta va uzoq muddatlarda natijaga yoʻnaltirilgan byudjetlashtirishda foydalanilishi mumkin. Buning uchun dastlabki qadamlar qoʻyildi deyishimiz mumkin. Jumladan, mamlakatimizda aynan 2019- yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti boʻyicha davlat byudjeti harajatlarning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bogʻliqligi tahlili amalga oshirildi va u 71,5 foizni tashkil etmoqda<sup>35</sup>.

Oʻrta muddatga byudjetni rejalashtirish – davlat byudjetini bir necha yilga (qoida tariqasida 3-5 yilga) tuzish jarayonidir. Rivojlangan xorij mamlakatlarida ushbu tizim shakllantirilgan. Mamlakatimizda ham ushbu tizimni joriy etish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda va dastlabki shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, valyuta kursi liberallashtirildi va natijada oʻzbek soʻmining kursi barqarorlashdi. Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasi strategik rejalashtirish tizimini yaratishni koʻzda tutadi. Unga koʻra, «qisqa muddatli», «oʻrta muddatli», «uzoq muddatli» kabi tushunchalar kiritilmoqda. 2018- yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish va shakllantirishning yangi tartibi joriy etildi. Oʻrta muddatli byudjet tuzish konsepsiyasiga koʻra, oʻrta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni “yuqoridan-pastga” va “pastdan-yuqoriga” yondashuvlari asosida amalga oshiriladi. Yaʼni, “yuqoridan-pastga” yondashuvida makroiqtisodiy prognoz modellari asosida 3-4 yillik byudjetning yuqori chegaralari aniqlanadi, “pastdan-yuqoriga” yondashuvida esa vazirlik va idoralarning byudjet soʻrovi koʻrinishida byudjet mablagʻlariga 3-4 yillik talabi aniqlanadi.<sup>36</sup>

Byudjet loyihasini tayyorlash va yillik monitoringning markaziy komponenti prognozlashtirish atrofida boʻladi. Yangilangan makroiqtisodiy tizim tegishli siyosatni ishlab chiqish hamda daromadlar va xarajatlarning ishonchli prognozlarida reallikni taʼminlash uchun zarurdir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti eksperti Kosta Lingmanning fikricha, Moliya vazirligi barcha tegishli

---

<sup>36</sup> 2019 yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti boʻyicha fuqorolar uchun byudjet nashri

makroiqtisodiy o‘zgaruvchilarning yiliga to‘rt-besh marta qayta ko‘rib chiqilgan prognozini tayyorlaydi. Bundan tashqari, davlat ma‘muriyati byudjetdagi har bir xarajatlar va daromadlarni prognoz kontingentining ishlab chiqilishini doimiy ravishda baholashi

## 1-jadval

### Mahalliy byudjetlarini o‘rta muddatli rejalashtirish usullarining afzalliklari va kamchiliklari<sup>37</sup>

| №  | Усул                                  | Афзалликлар   | Камчиликлар   |
|----|---------------------------------------|---|---|
| 1. | Молиявий прогнозлаш усули             | Ноаниқлик хавфини камайтиришга имкон беради ва зарур дастлабки маълумотларни тақдим этади                             | Турли хил шароитлар (иқтисодий, ижтимоий ва бошқалар) туфайли энг муҳим (ташқи ва ички) омилларни йўқотиши мумкин |
| 2. | Молиявий таҳлил усули                 | Маҳаллий бюджетларини ўрта мuddатга режалаштиришнинг молиявий ҳолати ҳақида катта ҳажмдаги маълумотларни тақдим этади | Таҳлил қилиш учун ишончли маълумотни олиш ҳар доим ҳам мумкин эмас, бу ҳисоб-китобларни мураккаблаштиради         |
| 3. | Стратегик молиявий режалаштириш усули | Маҳаллий бюджетларни келажак давр учун харажатлар режасини тузишга имкон беради                                       | Ташқи таъсир туфайли ички омилларнинг кескин ўзгариши эҳтимоли мавжуд   |
| 4. | Моделлаштириш усули                   | Маҳаллий бюджетни ўрта мuddатли давр учун моделини ишлаб чиқиш  | Маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлигини баҳолашнинг мумкин эмаслиги  |
| 5. | Экспорт усули                         | Потенциал ечимни кўриш учун вазиятга кенгрок қараш имконияти, кўрсатилган муаммо бўйича тўлиқ маълумот олиш           | Субъектив фикрнинг эҳтимоллиги мавжудлиги   |
| 6. | Скрипт яратиш усули                   | Ҳар қандай бозор конъюктурасини тавсифловчи ноаниқликка бюджетнинг эътиборини қаратади                                | Фақат бир нечта мумкин бўлган лойиҳа натижаларнинг ҳисобга олинishi   |

O‘rta muddatli istiqbolda davlat xarajatlarning to‘liq prognozi yiliga besh-olti marta amalga oshiriladi. Xarajatlarni tez-tez va ambitsiyalar bilan bashorat qilish kompyuterlashtirilgan tizim orqali amalga oshirilishini ta’kidlashadi.

Natijada, davlat byudjetini o‘rta muddatli rejalashtirish algoritmining prizmasida yirik va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiyalar va defitsitning mumkin bo‘lgan darajasini moliyalashtirish uchun o‘rta muddatli qarz siyosatini aniqlab olish hisoblanadi. Chunki, joriy davlat qarzi siyosati, istiqbolda davlat

<sup>37</sup>Muallif ishlanmasi

byudjetiga qarzga xizmat ko'rsatish shaklida (qarz foizlari va amortizatsiyasi xarajatlari) moliyaviy yuk bo'lib tushishi mumkin. Bunday holatda davlat xarajatlarini davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar bilan uyg'unlashgan holda taxminlashtirishni talab qiladi. Ushbu omilni inobatga olmaslik istiqbolda qarz qopqoniga tushish orqali byudjet riskining ehtimolligining ortishiga olib keladi.

Shuningdek, prizmaning keyingi bosqichidagi vazifa byudjetlararo transfertlar va byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi pul oqimlarining prognoz ko'satkichlarini aniqlash hisoblanadi. Byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning yana bir funksional vazifalaridan biri davlat byudjetini joriy holatga emas, balki o'rta muddatga aniq va muayyanligini ta'minlashga yo'naltirilgan zamonaviy rejalashtirish texnologiyalarini joriy qilishdir.

Ma'lumki, davlat byudjeti daromadlarining yetarli darajada bo'lishi mamlakatda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarni belgilangan miqdorda va muddatlarda moliyaviy ta'minlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun bugungi kunda byudjet daromadlarini samarali shakllantirish va ularning hajmini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, bu boradagi ishlarni amalga oshirish natijasida jamiyatning barcha qatlamlarini qo'llab quvvatlash va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun imkon bermoqda<sup>38</sup>.

Respublikada davlat byudjeti daromadlarining asosini soliqlar tashkil qiladi. Soliqlarni undirish jarayonida bevosita respublika byudjetiga tushadigan hamda mahalliy byudjetlarga undiriladigan soliqlarni ko'rishimiz mumkin. Respublika byudjetiga undiriladigan umumdavlat soliqlarining bir qismi hududlar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldiriladi.

O'rta muddatli fiskal siyosat sharoitida byudjet daromadlarini prognozlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanish nisbatlari kesimida soliq bazasining shakllanishi va soliq siyosatining strategik yo'nalishlarining pirovard

---

<sup>38</sup>IMF, 2014. Fiscal Multipliers: Size, Determinants, and Use in Macroeconomic Projections. Fiscal Affairs Department, Technical Notes and Manuals. International Monetary Fund, Washington. April 2014.

maqsadlari kabi bir qator omillar ta'sirida shakllantiriladi. Xususan, iqtisodiyotdagi soliq yukining o'rta muddatli istiqbollari bunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir vaqtda, o'rtacha muddatli byudjet ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin. Jumladan:

Birinchiidan, amaldagi byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish vositasida yalpi fiskal balans shakllantiriladi. Yalpi fiskal balansga asoslangan o'rta muddatli byudjetni shakllantirish murakkab rejalashtirish prizmasini o'zida mujassamlashtiradi. Xususan, bunday rejalashtirish ko'p sonli kompetent kadrlar komandasini talab qiladi. Rejaga nisbatan transaksiyon xarajatlarning ortishiga olib keladi.

Ikkinchiidan, iqtisodiyotda turbulent tebranishlar kuzatilgan sharoitda bunday byudjetlarning aniqlik darajasi yo'qoladi. Natijada boshqaruv organlari uchun byudjet parametrlariga asoslangan targetlash siyosatida mavhumlikni keltirib chiqaradi. Lekin byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish jarayoni iqtisodiyotni dasturlashtirilgan boshqaruv tizimi sharoitida yuqori afzalliklari ushbu uslubiyotni joriy qilish va yanada takomillashtirish bo'yicha islohotlarni olib borishni taqozo qiladi.


Davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirish o'tish davri bilan bog'liq turli shok, turbulent holatlardan makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sishga o'tgan mamlakatlarda davlat moliyasini o'rta muddatli taraqqiyot tedensiyalariga uyg'unlashtirish kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasi tizimida byudjetlashtirish amaliyotiga o'rta muddatli istiqbolni kiritish, vazirliklar tomonidan ajratilmagan mablag'ni bir moliya yilidan boshqasiga o'tkazish orqali vaqtning ma'lum stansionar (yil) intervallarida samaradorlikni oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Umumiy byudjet intizomini ta'minlashda davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirishning turli modellari samaradorligi mamlakatlarning uzoq muddatli byudjet prognozlarining aniqligi tahlili asosida baholanadi. Prognozlarning aniqligi oldingi uch yillik prognozlar va davlat xarajatlari, daromadlari va balansining o'sish sur'atlaridan oshib ketadigan o'rtacha farq bilan o'lchanadi.

**Byudjetni rejalashtirish** – milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarni

amalga oshirish maqsadida yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni moliya tizimi (munosabatlari)ning turli bo‘g‘inlari bo‘yicha markazlashgan holda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonidir.<sup>39</sup>

**Byudjetni prognozlashtirish** – rejalashtirilgan byudjet davri uchun maqsadli va hisoblangan daromadlar hamda xarajatlarni nazarda tutuvchi kompleks tarzidagi ehtimoliy, obyektivlikka intilgan va ma’lum prognozlash metodlariga asoslangan hisob-kitoblar tizimi<sup>40</sup>

Davlat byudjeti o‘rta muddatli istiqbolini belgilash deganda davlatda yuritilayotgan siyosatining qiymati, istiqbollari haqida aniq tasavvur hosil qilishga, yangi islohotlarni joriy qilishni, shu bilan birga nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish shakli sifatida xizmat qiladi.



### 1.1-rasm. O‘rta muddatli rejalashtirish jarayonida mahalliy byudjetlarning daromad va xarajat sirkulyar ko‘rsatkichlari<sup>41</sup>

Byudjetlarda har yili byudjet taqvimiga ko‘ra, Moliya vazirligi kelgusi yil uchun Davlat byudjeti loyihasi bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritish

<sup>39</sup> Allakullayev.A dis. “O‘rta mudalli mo‘ljallangan byudjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari”-186 bet

<sup>40</sup> Allakullayev.A dis. “O‘rta mudalli mo‘ljallangan byudjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari”-186 bet

<sup>41</sup> Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

to'g'risida sivilizatsiya chiqaradi. Byudjet sirkulyarlari Davlat byudjeti loyihasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish jarayonida rahbarlik qilish uchun markaziy davlat hokimiyati organlarining manziliga yuborish jarayoni hisoblanadi.

Demak, yuqoridagilarni umumlashtirgan holda aytish mumkin-ki, davlat byudjeti o'rta muddatli istiqbolini belgilash– bu byudjetni tuzishning maqsadli asosi bo'lib, ushbu jarayonga strategik yondoshuvni ta'minlaydi. Davlat byudjeti o'rta muddatli istiqbolini belgilash yillik byudjet siklining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Davlat byudjetini amalga oshirishda o'rta muddatga rejalashtirishga to'liq o'tish ham umumiy, ham alohida sektorlar bo'yicha ham byudjet ijrosida intizomga erishish imkonini beradi. Hozirda ko'plab davlatlarda davlat byudjetini o'rta muddatga rejalashtirish orqali mamlakatning strategik ustuvorliklarini belgilashda aniqlikni ta'minlab, byudjet mablag'larini taqsimlashini optimallashtirish imkonini bermoqda. Davlat byudjeti o'rta muddatli istiqbolini belgilashda byudjetni to'g'ri shakllantirishdan tashqari, tarmoqlar va alohida tashkilotlar darajasida strategik boshqaruv samaradorligini oshirishda mavjud mablag'larning samarali ishlatish imkonini beradi.

### **1.3. Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishning huquqiy asoslari**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalliy hokimiyat vakolatlarini kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri-ularning byudjet jarayonidagi vakolatlarini oshirish bilan bevosita bog'liq. Chunki mahalliy byudjet mablag'lari hokimiyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi.<sup>42</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar davlat

---

<sup>42</sup> Kasimova. G. A// Mahalliy byudjetlar // o`quv qo`llanma// T.: 2012 y, 24-bet



moliyasi tizimini takomillashtirish bo'yicha ham keng islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda<sup>43</sup>.

O'rta muddatli fiskal siyosat davlat moliyasi tizimidagi islohotlarni o'rta muddatli strategik yo'nalishi to'g'risida axborot olish, shuningdek, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan fiskal siyosatni uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi<sup>44</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil- 22 avgustdagi PQ-3917-son "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va byudjet jarayonida fuqorolarning faol ishtirokini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarorini qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>45</sup>. Mazkur qarorga ko'ra, 2019- yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda fuqorolar ishtirokinig tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan yo'nalishlarni nazarda tutadigan mexanizimi joriy etilishi haqida aytilgan bo'lib, bu qoidaning joriy etilishi bilan mahalliy byudjet siyosatida tub burilishlar amalda joriy etilmoqda.

O'zbekistonda amaldagi tartiblarga muvofiq, davlat byudjeti indeksatsiyalarni qo'llash metodi bilan bir yillik asosda tuziladi. Chunki byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet tashkilotlari o'zlarining istiqbollarni rejalashtirilgan yildan uzoqroq davrga prognozlashtira olmaydi. Buning asosiy sababi esa kelajakdagi makroiqtisodiy o'zgarishlarni va ularning fiskal ko'rsatkichlarga ta'sirini oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligidir. Shu o'rinda, O'rta muddatga byudjetni rejalashtirish – davlat byudjetini bir necha yilga (qoida tariqasida 3-5 yilga) tuzish jarayonidir. Rivojlangan xorij mamlakatlarida ushbu tizim shakllantirilgan. Mamlakatda ham ushbu tizimni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda va dastlabki shart-sharoitlar yaratilmoqda<sup>46</sup>.

---

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 –sonli farmonidan

<sup>44</sup> Djumayev.S.X // Davlat byudjetini o'rta muddali rejalashtirish orqali davlat moliyasi boshqaruvini isloh qilish// iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar// electron jurnal// №5,2020 y

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi " Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va byudjet jarayonida fuqorolarining faol ishtirokini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3917-sonli qarorida

<sup>46</sup><https://uza.uz/uz/posts/zbekistonda-rta-muddatli-byudzh-et-tizimi-zhoriy-etiladi-06-02-2018>

Mazkur me'yoriy hujjat byudjet nazorati subyektlarining huquq va majburiyatlarini tartibga solishda asosiy o'rinni egallaydi, shuning uchun u davlat byudjet nazorati tizimining samaradorligini oshirish sharoitlarini belgilaydi<sup>47</sup>.

Bu borada Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020- yil 24- avgustdagi 506-son qaroriga muvofiq, 2020-2024- yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida asosan o'rta muddatli byudjetli rejalashtirishga o'tish maqsadida soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini va Davlat byudjetini o'rta muddatli davrga tayyorlash tamoyillarini, aniq maqsadlar va ularga erishish muddatlarini belgilovchi hamda fiskal tavakkalchiliklar tahlili hisobga olingan holda o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiyani ishlab chiqish va uning ijrosini ta'minlash mexanizmini amalga oshirish choralarini ko'rish zarur hisoblanadi deb ta'kidlab o'tilgan<sup>48</sup>.

Qonunning ishga layoqatlik darajasi to'g'risida davlat byudjeti mablag'larining nazorati bo'yicha munosabatlar tizimini tartibga solish obyektiv aks ettirilganligi, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha davlat moliyaviy byudjet siyosati maqsadi qonunning faoliyat yuritish vositasi bilan erishilganligidan kelib chiqib fikr yuritish mumkin.<sup>49</sup>

Globalashuv sharoitida davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish, tez o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida o'rta muddatli byudjetni taxminlashtirish, davlat moliyasini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlarini realizatsiya qilishdagi imkoniyatlarini baholash maqsadida O'zbekistonda o'rta muddatli fiskal siyosatni amalga oshirish uslubiyotiga asoslangan davlat moliyasini boshqarish tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim sharoitida davlat byudjeti daromadlarining kelgusi yiliga prognozi va navbatdagi 2 yili uchun

---

<sup>47</sup> Temirov.M.X // O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari// disser.phd / T.: 135- bet

<sup>48</sup> 2020-2024-yillarda // O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2020- yil 24- avgustdagi 2020 yil 24-avgust// 506-son qarori // <https://lex.uz/docs/4966572>

<sup>49</sup> Temirov.M.X // O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari// disser.phd / T.: 135- bet

taxmin ko'rsatkichlari aniqlanadi<sup>50</sup>. Natijada barqaror taraqqiyot yo'liga o'tgan mamlakatlarda o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish amaliyotiga o'tish bilan bog'liq islohotlarni amalga oshirish keng tadqiq qilinib kelinmoqda. Chunki, bugungi kunda qabul qilingan byudjet qarorlari bir necha yil davomidagi oqibatlariga olib keladi va ikki yoki uch yil ichida kutilishi mumkin bo'lgan voqealar operativ choralar ko'rishni talab qilishi mumkin. Ushbu amaliyot aksariyat mamlakatlarda o'rta muddatli byudjet rejalashtirish amaliyotini joriy etishga undaydi.

Mahalliy byudjetlar bilan bog'langan har qanday islohotlar tizimi puxta, keng o'ylangan va aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bo'lishi kerak. Mamlakat byudjeti oldida turgan asosiy vazifa makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishga erishish, hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish va aholiga yaxshi sharoit yaratishdir.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat<sup>51</sup>

- byudjet tizimining yagonaligi;
- byudjet tizimining O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi;
- byudjet tizimi byudjetlarining balanslilik va o'zaro bog'liqligi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish;
- byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning aniq yo'naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati;
- byudjet tizimi byudjetlarining mustaqilligi;
- byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan foydalanishning natijadorligi;
- kassaning yagonaligi;
- byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi;
- ochiqlik.

---

<sup>50</sup> Fayzullayev Yo. Sh., Azizova .I.A // byudjetni o'rta muddali rejalashtirish // T.: 2010 y, 26-bet

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasining // Byudjet kodeksi// 7-modda

Byudjet tuzilishining yagonaligi tamoyili o'zida davlat va mahalliy byudjet daromadlari hamda xarajatlarning yaxlitligi, har bir daromad uchun birlashtirilishi va uning yagona byudjet tomonidan boshqarilishi, jami daromad va xarajatlarning qamrab olinishi, yuritilayotgan hujjatlarning bir xilligini o'zida aks ettiradi.<sup>52</sup>

Byudjet xarajatlarining bugungi kunda miqdor ko'rsatkichlari e'tibor markazida asosiy o'rin olib kelmoqda, ammo sifat jihatdan esa biroz oqsoqlanishlar mavjud. Byudjet xarajatlarining sifat jihatlari makroiqtisodiy miqyosda sezilarli ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'ladigan jihat hisoblanadi<sup>53</sup>.

Yillik byudjetlashtirishda davlat xarajatlarini samaradorligini aniqlash qiyin kechmoqda, o'rta muddatli davrda esa imkoniyatlar ko'payadi. Qolaversa bugungi davlat dasturlari asosan 3 yillik bo'lganligi bois dasturlarga mos xarajatlarni rejalashtirish imkoni bo'ladi. Jumladan, qonunchilikda mavjud kamchiliklar, byudjet va turli dasturlar o'rtasidagi aloqani belgilovchi huquqiy normalar va mexanizmlar mukammal emasligi, shuningdek, byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorlik darajasiga baho berishda ma'lum metodik ko'rsatkichlar ishlab chiqilmaganligi sababli ko'p hollarda samaradorlik va byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish prinsipi bilan o'zaro almashtirish yuz bermoqda.

Davlat byudjetini rejalashtirish joriy metodologiyasida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklovchi bir qator kamchiliklar mavjud bo'lib, ular quyida sanab o'tiladi va bizda ularni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi:

1) Joriy smetali rejalashtirish byudjetdan moliyalashtirilgan xizmat (ish, tovar)larning natijalarini aniqlash imkoniyati juda ham murakkab kechmoqda. Joriy tizimda amalda sarflangan xarajatlarning o'zi va tejalgan mablag'gina natijalar sifatida qabul qilinmoqda.

Mazkur yondashuv byudjetdan moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoniyatini bermaydi. U faqat mablag'lar maqsadli sarflanishini ta'minlash,

---

<sup>52</sup> Kasimova. G.A // Mahalliy byudjetlar// o`quv qo`llanma // T.: 34 bet

<sup>53</sup> Kasimova. G.A // Mahalliy byudjetlar// o`quv qo`llanma // T.: 34 bet

moliyalashtirishning rejalashtirilgan va amaldagi summasini taqqoslash imkoniyatini beradi xolos.

2) Joriy byudjetni rejalashtirish bir yil bilan chegaralanib, amalda byudjet siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning joriy yil doirasidan chetga chiquvchi ustuvor vazifalari va maqsadlariga erishishga yo'naltirish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Natijada o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan milliy va hududiy dasturlar aksariyat hollarda byudjet imkoniyatlari bilan bog'lanmay qolmoqda. Bu esa ularni bajarish muddatlarini bir necha bor qayta ko'rilishiga va dastur tadbirlariga o'zgartirishlar kiritilishiga olib kelmoqda.

3) Amaldagi byudjet uzoq muddatli investitsiya dasturlari (kapital qo'yilmalar) bilan uzviy darajada bog'lanish imkoniyatining chegaralanib qolganligi, investitsiya dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar (yangi quvvatlarni yaratish, amaldagi obyektlarni asbob-uskunalar bilan jihozlash) ishga tushirilganidan so'ng ularni joriy ta'mirlashga xarajatlar talab qiladi. Ammo yangi obyektlarning ishga tushirilishi byudjet prognozi bilan bog'lanmagan, ya'ni unda mazkur obyektlarni joriy ta'mirlash xarajatlari hisobga olinmagan hollar uchramoqda.

Natijada moliya yili mobaynida mazkur obyektlarni moliyaviy ta'minlashga qo'shimcha mablag'larni topish (shu jumladan, rejaga muvofiq ajratilgan mablag'larni qayta taqsimlash yo'li bilan) to'g'risida qarorlar qabul qilinadi. Davlat xarajatlari va qabul qilinayotgan (amalga oshirilayotgan) dasturlarning o'zaro nomuvofiqligi muammolari byudjetni rejalashtirish asosan joriy vazifalarni hal qilishga qaratilganligini ko'rsatadi. Bunda qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda rejalashtirilgan byudjet xarajatlari bilan erishilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar to'la hisobga olinmaydi.

Davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirish negizini "natijaga asoslangan model" tashkil qiladi.<sup>54</sup>

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish –byudjet jarayonini va davlat boshqaruvini samarali shakllantirish tizimi bo'lib, unda xarajatlarni rejalashtirishda

---

<sup>54</sup> Temirov. M.X // O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari// diss.PhD 2019 y, 116 -bet

erishiladigan natijalar bilan bevosita aloqadorlikda amalga oshiriladi. Natijaga qaratilgan byudjetlashtirish resurslarni dastur va natijaga qaratiladigan byudjetlashtirish o'z –o'zidan ustuvor yo'nalishlar o'rtasida byudjet resurslarini optimal taqsimlash masalasini hal qilmaydi, u faqatgina buning uchun qulay sharoit yaratadi.<sup>55</sup>

Shu o'rinda o'rta muddatli byudjetlashtirish (O'MB) - resurslarni taqsimlash va undan foydalanish jarayonida yanada katta mas'uliyatni vazirliklar va tarmoq vazirliklari zimmasiga yuklaydigan hukumatning yagona strategik siyosati. O'MBni muvaffaqiyatli qo'llash uchun qarorlar qabul qiluvchilarga mamlakat siyosatiga mos keladigan ustuvor vazifalarni belgilashni talab qiladi. O'MB yuqoridan pastga qarab mablag' ajratiladigan, mavjud siyosatning joriy va o'rta muddatli xarajatlaridan past baho va bu xarajatlarni mavjud resurslar bilan muvofiqlashtirishdan iborat.

Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Fikrimiz dalili sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 26- dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019- yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021- yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 –sonli qarori hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan qarorga asosan mamalakatimizda birinchi marta 2019- yilgi byudjet parametrlari hamda 2020-2021- yillarga byudjet mo'ljallari qabul qilindi."<sup>56</sup>

Respublikada 2020- yildan boshlab Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining byudjet sohasidagi vakolatlari kengaydi, byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning mas'uliyatini yanada oshirdi, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va mablag'laridan foydalanishda mahalliy davlat hokimiyat organlarining erkinligini ta'minlashga qaratilgan yangi byudjet tizimi joriy etildi. Bunda, respublika byudjet xarajatlari vazirlik va idoralar kesimida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan, mahalliy byudjetlar xarajatlari Xalq

---

<sup>55</sup> Temirov. M.X // O'zbekiston Respublikasida davlat moliya tizimini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari// diss.PhD 2019 y, 116 -bet

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4086 –son "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 –yillarga byudjet mo'ljallari to'grisida" gi qarori

deputatalari mahalliy kengashlari tomonidan tasdiqlana boshladi<sup>57</sup>. Shuningdek, Soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tadbqiq etish maqsadida o`rta muddatli byudjetni ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi “natijaga yo`naltirilgan byudjet” tizimini joriy etilishi 2020-2024-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy yo`nalishlaridan biri etib belgilandi<sup>58</sup>.

Byudjet natijalari Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlisga tasdiqlash uchun yuborilmaydi.


- Oliy Majlisga Moliya vazirligi tomonidan davlat byudjetining bajarilishi to`g`risidagi parametrlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. Ayni paytda davlat byudjetining bajarilishi to`g`risidagi tasdiqlangan hisobot parametrlari mavjud emas.

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlarni o`z yo`nalishida topshiradi. Ba`zan davlat byudjeti parametrlariga o`zgartirishlar Oliy Majlis partiya fraksiyalari, Qo`mitalari tomonidan kiritiladi. Shu jumladan, mahalliy byudjetlarda o`rta muddatli rejalashtirishning huquqiy asoslari quyidagi qonun hujjatlar hisoblanadi. Ushbu 1.5-rasmda keltirilgan

---

57 O`zbekiston Respublikasining 2019 –yil 4-dekabrdaqi O`RQ-589-son “ 2020 yil uchun O`zbekiston Respublikasi davlat byudjeti to`g`risida” gi qonuni

58 O`zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdaqi PQ-455-son “2020-yil uchun O`zbekiston respublikasi davlat byudjeti to`g`risida” qonuni ijrosini taminlash chora tadbirlari to`g`risidagi qarori




## 1.2-rasm Milliy iqtisoy rivojlanish dasturi<sup>59</sup>

Shu jumladan, o'tgan moliya yil uchun byudjetning xarajatlar moddalariga doir hisobot ma'lumotlariga asoslanadigan byudjet xarajatlarini "smetali rejalashtirish" usuli moliyalashtirish natijalarini aniqlash muammosini amalda chetlab o'tadi.

<sup>59</sup> Moliya vazirligi ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi



Aniqroq aytganda, xarajatlarning o‘zi natija sifatida amal qiladi va bunday sharoitda byudjet xarajatlarini moliyalashtirishning samaradorligini aniqlash imkoniyati cheklanadi.



### 1.3-rasm Byudjet so‘rovlarini taqdim etish muddatlaridagi nomuvofiqliklar<sup>60</sup>

Byudjetni o‘rta muddatli davr uchun rejalashtirishda byudjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda bir yilga mo‘ljallangan byudjet jarayonidan o‘rta muddatli byudjetni rejalash jarayonida byudjet so‘rovlarini taqdim etish muddatlarida nomuvofiqlik yuz bermoqda. 3-rasmda byudjet so‘rovlarini taqdim etish muddatlarida amaldagi qonunchilik asosida muddatlari va vakolatlari yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritilishining tasviriy ko‘rinishi ko‘rsatib o‘tilgan.

<sup>60</sup> Amaldagi qonunchilik asosida

## **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'rta muddatli byudjet tuzish konsepsiyasiga ko'ra, o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish jarayoni "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga" yondashuvlari asosida amalga oshirish zarur. Ya'ni, "yuqoridan pastga" yondashuvida makroiqtisodiy prognoz modellari asosida 3-4 yillik byudjetning yuqori chegaralari aniqlanadi, "pastdan yuqoriga" yondashuvida esa vazirlik va idoralarning byudjet so'rovi ko'rinishida byudjet mablag'lariga 3-4 yillik talabi aniqlashga imkon yaratiladi. Bundan tashqari, O'rta muddatga byudjetni rejalashtirish – davlat byudjetini bir necha yilga (qoida tariqasida 3-5 yilga) tuzish jarayonidir. Rivojlangan xorij mamlakatlarida ushbu tizim shakllantirilgan. Shu o'rinda, mamlakatimizda ham ushbu tizimni joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda va dastlabki shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur tizim yaratilishi mamlakatimizda amaldagi tartiblarga muvofiq, davlat byudjeti indeksatsiyalarni qo'llash metodi bilan bir yillik asosda tuziladi. Chunki byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet tashkilotlari o'zlarining istiqbollarni rejalashtirilgan yildan uzoqroq davrga prognozlashtira olmaydi. Buning asosiy sababi esa kelajakdagi makroiqtisodiy o'zgarishlarni va ularning fiskal ko'rsatkichlarga ta'sirini oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligidir.

Byudjet daromadlarining o'rta muddatli istiqbolini belgilash bir yillik rejalashtirishdan tubdan farq qilib, o'ziga xos bosqichlar va bir qancha afzalliklarga ega. Byudjet daromadlarining faqatgina bir yilga rejalashtirishi esa mazkur maqsadlarga erishish bo'yicha chora -tadbirlarni sifatli rejalashtirishga sabab bo'ladi, iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblanadigan ishlab chiqarish korxonalarini o'z faoliyatini davlat tomonidan o'rta muddat uchun ko'zda tutilgan soliq siyosatini hisobga olgan holda rejalashtiradi.

## **II-BOB. MAHALLIY BYUDJETNI O‘RTA MUDDATLI REJALASHTIRISH AMALIYOTINI JORIY ETISH HOLATI**

### **2.1. Mahalliy byudjetni rejalashtirishning rivojlanish tendensiyalari**

Mahalliy byudjet daromadlaridan samarali foydalanishni ta'minlash muammolarini, ulardan foydalanishning hozirgi holati, bu yo'nalishda mavjud bo'lgan muammolar va ularning kelib chiqish sabablarini chuqur va atroflicha tahlil qilmasdan hal qilib bo'lmaydi. Bu maqsadga erishish uchun tahlillarimiz jarayonida biz hududlar kesimida ma'lumotlaridan imkon doirasida foydalanishga harakat qilamiz. Bizning fikrimizcha, bu muammoni dissertatsiya ishimizning markaziy bobi hisoblangan uning 2-bobi doirasida qu'yidagi kesimlarda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda mahalliy byudjetlar daromadlaridan keng foydalaniladi. Chunki mahalliy byudjetlar daromadlari asosan soliqlar orqali ya'ni, ishlab chiqarish korxonalarining turli bosqichlarida takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etadi va yaratilgan mahsulotni taqsimlashda ishtirok etadi. O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda mamlakatimiz parlamentiga har yilgi murojaatnomasida ushbu yilda qo'yilgan asosiy vazifalar sifatida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish, tarmoqlarni xususilashtirish, davlat tomonidan narxlar belgilanishini tartibga solishni bekor qilish va **«yashirin iqtisodiyot»**ga barham berish, byudjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish kabilar belgilandi.

Mamlakatimizda institutsional islohotlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda ijtimoiy hayotimizning sohalarida bo'lgani kabi davlat byudjetini boshqarishda ham ko'plab o'zgarishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning iqtisodiy siyosatni barqaror amalga oshirishida davlat moliyasi asosiy funksiyani bajaradi va davlat moliya tizimining asosini davlat byudjeti tashkil

etadi. U bir tomondan, resurslarning hal qiluvchi qismini o'zida jamlaydi, ikkinchi tomondan barcha moliya muassasalarining o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Mamlakatimizda byudjet tizimini yanada isloh qilish, davlat byudjetini xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish, byudjet istiqbolini belgilashning yangi mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlarini istiqbolini belgilashni takomillashtirishni talab etadi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda mahalliy byudjet ko'rsatkichlari belgilanganidan ham yuqori darajada amalga oshirilishi, defitsitga emas profitsitga erishib kelinmoqda. Iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish borasidagi islohotlar bir qator yo'nalishlarni qamrab oladi:

boshqaruv sohasidagi islohotlar;

byudjet munosabatlarini rivojlantirish va tartibga solish, shu jumladan, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

byudjet jarayonini isloh etish; byudjet sohasini qaytadan tashkil etish va boshqalar.

Samarali va ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni barpo etishda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va YaIMni ko'paytirish zaruriyati boshqaruvning barcha sohalarida to'g'ri va aniq moliyaviy siyosatni shakllantirishni dolzarb etib qo'ymoqda.

Bunda amalga oshirilayotgan qisqa muddatli moliyaviy rejalar siyosatini keng qamrovli tahlil etish va natijalar hisobini yuritish imkoniyatlari cheklanadi. Shu nuqtai nazardan o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirishning (uch yil muddatga) amaliy ahamiyati yanada oshadi.

Ko'plab davlatlar byudjet jarayonida tadbiq etilayotgan hamda davlatning makroiqtisodiy va tuzilmaviy siyosati masalalarini nazarda tutuvchi ko'p yillik

byudjetlashtirishning asosiy jihatlarini umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni olishimiz mumkin:

- eng muhim zaruriyatlar bilan bog'liq istiqbolli maqsadlarni balanslashtiradigan, hozirgi kundagi hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga oluvchi byudjet tuzishning funksional modeli amal qiladi;

- bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun byudjet cheklovlari tizimiga o'tiladi, bunda byudjet va uning alohida moddalari hajmi davlat vakolatli organlari tomonidan mablag'larga so'ralagan ehtiyojlaridan kelib chiqib emas, balki o'rnatilgan limitlardan kelib chiqib aniqlanadi;

- vazirliklar tashabbusi bilan qilinadigan xarajatlar ularning resurslar bilan ta'minlanganligi sharoitidagina qabul qilinadi;


- byudjetni tuzishda butun e'tibor byudjet mablag'larini xarjlash orqali erishish lozim bo'lgan uzil-kesil natijalarga qaratiladi;

- o'ta muhim va alohida ahamiyatga ega xarajatlar resurslarni qayta taqsimlash hisobiga moliyalashtiriladi, qo'shimcha moliyalashtirishga esa ushbu xarajatning umumjamiyat oldidagi natijasi uni oluvchilar va millat-davlat manfaatlariga mos kelishini isbotlab berilgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi;

Bu, avallambor, qisqa muddatli byudjetni rejalashtirish va prognozlashtirish sharoitidagi byudjet xizmatlarining sifatini oshirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, byudjet-soliq siyosatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, xususan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (avvalambor, korxonalar moliyaviy resurslari, aholi daromadlari, to'lov balansining shakllanishi va ishlatilishi ko'rsatkichlari) borasida yanada to'liq va aniq hisob-kitoblarni yuritish zaruriyati paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan davlatda yoki alohida olingan soliq turlari bo'yicha hududdagi mahalliy byudjet munosabatlari borasidagi nazariy tadqiqotlar soliq tizimi, soliqqa tortish tartibi bilan birga mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirish nazarda tutadi. O'zbekistonning o'rta muddatli rivojlanish

strategiyasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, hududlar o'rtasida raqobat muhitini shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan bo'lib, mazkur vazifalarni ta'minlashda rivojlangan davlatlar ilg'or tajribasini o'rganish, ularning ijobiy natijalarini respublikamizda qo'




## 2.2-rasm. Hududlar kesmida mahalliy byudjetlarining 2019-2022 yillardagi daromadlari, xarajatlari va mahalliy byudjetlarning transfertlari o'zgarish dinamikasi<sup>61</sup>

Jumladan, 3-rasmda ko'rish mumkinki, 2019-2022- yillarda barcha mahalliy byudjetlarning jami daromadlari va xarajatlari miqdorida, umuman olganda, o'sish kuzatilgan. Xususan, xarajatlar daromadlarga nisbatan ko'proq oshgan bo'lib, so'ngi 2019-2021- yillarda har yili deyarli 20-30 % o'sishga erishgan. Daromadlar dinamikasi esa 2021- yilgacha barqaror bo'lib, 2022- yilda 2019-2021- yillarga nisbatan keskin oshganini ko'rish mumkin. 2022- yilda byudjet daromadlari 43.0 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, bu esa o'tgan yilga nisbatan 45 foiz o'sishga erishilgan. Shuningdek, 2022- yilda xarajatlar ham keskin oshish natijasida, ya'ni 2022- yilda 57, 1 mlrd.so'm xarajatlarni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilga nisbatan

<sup>61</sup> Молия вазирлиги маълумотлари асосида тайёрланди.

42 foizga ko'p xarajat rejalashtirilgan. Buning asosiy sababi, soliq kodeksining yangidan tahrir qilinishi natijasida mahalliy byudjetlarning to'g'ridan to'g'ri keskin oshishi bo'lgan.



## 2.1 - rasm. Davlat byudjetidagi islohotlar, uning xususiyatlari va o'zgarish tendensiyalari

Shundan kelib chiqib bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni keng qo'llash orqali masalaga tizimli yondashish muhim ahamiyat kab etadi.

## **2.2 Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishda daromad va xarajatlari, ularning tarkibi va barqarorlashtirish amaliyoti.**

O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi bosqichida davlatni yanada rivojlantirish, mavjud sohalarni takomillashtirish, investitsiya faoliyatini yanada samarali boshqarish kabi muhim o'zgarishlarni amalga oshirishda bevosita davlat moliyasini ham zamon talabiga mos qilib tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasi va uning tarkibiy bo'linmalarini samarali boshqarish, byudjet tashkilotlari va ularning amalga oshiradigan funktsiya va vazifalarni nazorat qilish hamda byudjet mablag'larini oqilona taqsimlash bevosita aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Jamiyat a'zolarini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash, ularga sifatli xizmatlar ko'rsatish uchun bevosita byudjet yetarli mablag'larga ega bo'lishi kerak. Shu sababli ham ohirgi yillar mobaynida byudjet tizimi byudjetlarning daromadlarini yanada oshirish, ularning yangidan yangi manbalarini topish bugungi kun byudjet siyosatining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyotining ayniqsa mahalliy byudjetlarning mustaqilligini oshirish, ularning moliyaviy barqaror bo'lishini ta'minlash maqsadida soliq tizimini tubdan isloh qilish va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda, chunki byudjet mablag'larining asosiy daromad manbai soliqlar hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar o'zida murakkab mexanizmni ifodalab, u muayyan hududiy birlikning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy xususiyatlardan kelib chiqib tashkil etiladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlari - mahalliy o'z- o'zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish bilan bog'liq pulli munosabatlar shaklidir. Mahalliy byudjet daromadlari bevosita mahalliy byudjetga tegishli daromadlari hamda respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllantiriladi.

Quyida 2.1 – jadvalda mahalliy byudjetlarning daromadlar va xarajatlar yillar kesimida o'zgarish dinamikasini ko'rib chiqamiz.



**Mahalliy byudjetlarning 2016-2019 –yillardagi daromad va xarajatlari hajmi, ularning o‘zgarish dinamikasi<sup>62</sup>**

| <b>Yillar</b>                                      | <b>Mahalliy byudjetlarning daromadlari<br/>( mlrd.so‘m)</b> | <b>Mahalliy byudjetlarning xarajatlari<br/>( mlrd. so‘m)</b> | <b>Farqi (defitsit profitsit)</b> |
|--|---|--|-----------------------------------|
| <b>2018</b>  | 15919,9   | 20820,8  | -4900,9                           |
| <b>2019</b>  | 2017  | 20745,2  | -2829,8                           |
| <b>O‘shish sur‘ati<br/>(2018 yilga nisbatan) %</b> | 112,5   | 99,6   | 57,7                              |
| <b>2020</b>  | 18329,7   | 25485,5  | -7155,8                           |
| <b>O‘shish sur‘ati<br/>(2017 yilga nisbatan)</b>   | 102,3   | 122,9  | 252,9                             |
| <b>2021</b>  | 31083,0   | 38846,1  | -7763,1                           |
| <b>O‘shish sur‘ati<br/>(2018 yilga nisbatan)</b>   | 169,6   | 152,4  | 108,5                             |

Ko‘rish mumkinki, 2018-2021 – yillarda barcha mahalliy byudjetlarning jami daromadlari va xarajatlari miqdorida, umuman olganda, o‘shish kuzatilgan. Xususan, xarajatlar daromadlarga nisbatan ko‘proq oshgan bo‘lib, so‘ngi 2017-2019- yillarda har yili deyarli 20-30 % o‘shishga erishgan. Daromadlar dinamikasi esa 2019 yilgacha barqaro bo‘lib, 2018- yilda 2017 yilga nisbatan 102,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, 2019- yilga kelib jami mahalliy byudjetlarning daromadlari 169.6 % ga keskin oshganini ko‘rish mumkin. Buning asosiy sababi, soliq kodeksining yangidan tahrir qilinishi natijasida mahalliy byudjetlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri soliqlari hamda bilvosita soliqlardan keladigan tushumlarning keskin oshishi bo‘lgan. Shuningdek, mahalliy byudjet daromadlarga nisbatan xarajatlari ancha ko‘proq bo‘lganini, ya’ni jami mahalliy byudjetlar daromadlari ularning jami xarajatlarga nisbatan so‘ngi

<sup>62</sup> Tadqiqotchi tomonidan [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz) sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

yillarda ko‘payganini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, byudjetlarning o‘zini –o‘zi xarajatlarni to‘la qoplay olmasligini va mahalliy byudjetlarning moliyaviy beqaror bo‘lishini anglatadi. Bu esa quyi byudjetning yuqori byudjetga qaram bo‘lish holatini keltirib chiqaradi. Shu boisdan, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqaror bo‘lishini ta‘minlash uchun, avvalo, ularning daromadlarini barqarorlashtirishga e‘tibor qaratish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet qonunchiligiga ko‘ra, mahalliy byudjetlar kamomad bilan moliya yilini yakunlashi taqiqlanadi va bunday holatda byudjet transfertlari orqali mahalliy byudjetlarning defitsiti qoplanar edi, bu esa o‘z navbatida, mahalliy byudjet bo‘yicha vakolatli mahalliy hokimiyat va moliya oranlarining beparvoligini keltirib chiqargan, chunki baribir ularning vakolatlari kam bo‘lgan va yetarli bo‘lmagan byudjet bo‘yicha qarorlar yuqori byudjet organlari tomonidan qabul qilinar edi.

Aytib o‘tilgan muommalarni bartaraf etish uchun, mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirish maqsadida o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–yil 7- iyundagi “mahalliy byudjetlarni shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish” chora tadbirlari to‘g‘risida PF-5075 –sonli farmoni qabul qilindi va mazkur farmonda aynan mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga e‘tibor qaratildi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklariga quyidagilarni ta‘minlash yuklatilgan:

- o‘z hududidagi soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, ishlamayotgan, iqtisodiy nochor korxonalarini faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirish;

- tegishli byudjetlarning tasdiqlangan daromadlari rejasini bajarishni qonunchilik doirasida xarajatlarni, shu jumladan, ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishni ta‘minlash;

- byudjet tashkilotlari hodimlarining ish haqqi miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqqini oshirish to‘g‘risidagi farmonlarini va boshqa normativ-hujjatlarda belgilangan miqdorlar doirasida oshirish.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 29-iyundagi “ mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 445 –sonli qarori qabul qilindi. Bunda uchta nizom ishlab chiqildi. Ularning mazmuni asosan mahalliy moliya va soliq organlari faoliyatini takomillashtirish hamda mahalliy byudjet tushumlarini ko‘paytirish borasida qarorlar qabul qilish daromadlarni oshirish, yuqori byudjet tomonidan belgilangandaromadlar parametrlarini mahalliy (tuman, shahar) moliya va soliq inspeksiyalari xodimlari tomonidan so‘zsiz bajarilishini ta‘minlashdan iborat. Mazkur belgilangan vazifalar bevosita mahalliy byudjetlarning daromadlar tushumini ko‘paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari barqarorligini ta‘minlash oson vazifa emas, sababi, respublika mahalliy byudjetlarning imkoniyatlari birdek emas hamda ularning daromad manbalari hamda hajmi ham o‘sha hudud salohiyatiga bog‘liqdir. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirishda ularning tarkibini o‘rganish, ularning hajmining yillar kesimida o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish, daromadlar hajmiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash yangi daromad manbalarini topish kabi dastlabki ishlarni amalga oshirish muhimdir.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi haqida gapirilganda, birinchi navbatda, ularning daromadlari va xarajatlar miqdori muvofiqligi tushuniladi. Ko‘rib o‘tganimizdek, mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish, ularning doimiy tushib turishini ta‘minlash muhim masalalardandir, biroq u bilan birga mahalliy byudjetlar daromadlarining oqilona foydalanilishi ham birdek muhim vazifa hisoblanadi. Ma‘lumki, hududiy birliklarning iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan rivojlanishi bevosita mahalliy byudjetlarning hajmiga bog‘liqdir. Xarajatlarni to‘g‘ri samarali tashkil etish, birinchi navbatda, qanchasini aholi ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirish kabi muammolarni hal etish byudjet soliq siyosatining asosiy vazifalari hisoblanadi. O‘zbekistonning byudjet amaliyotida mahalliy byudjetlarning smetalari

yuqori byudjet organlari tasdiqlaydi va mablag‘ ajratadi. Biroq bugungi kun bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy hokimliklarning vakolatlarini oshirish, aholi uchun byudjet jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy davlat hokimiyati va moliya organlari, o‘z navbatida, vakolatlari doirasida, mahalliy byudjet daromadalaridan oqilona foydalanish, mavjud mablag‘larning maqsadli sarflanishi uchun javobgar bo‘lishi zarurdir. O‘zaro manfaatdorlikning mavjudligi hududlarning kompleks rivojlanishi uchun turtki bo‘lishi mumkin. Aynan shu maqsadda byudjetning xarajatlarining maqsadlilikini nazorat qilish, ularni zaruriy sohalarga yo‘naltirishni ta’minlashdir.

O‘zbekiston byudjet kodeksiga ko‘ra, Qoraqolpog‘iston Respublikasi respublika byudjetlarining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetlarining xarajatlari quyidagicha tasniflanadi.

## 2.2-jadval

### O‘zbekiston Respublikasidagi mahalliy byudjetlarning 2016-2019 yillarda qilingan xarajatlari hajmi (mlrd. so‘m) va ularning o‘zgarish dinamikasi<sup>63</sup>

| №   | Маҳаллий бюджетлар номи | 2016    | 2017    | Ўсмиш сур., % | 2018    | Ўсмиш сур., % | 2019    | Ўсмиш сур., % |
|-----|-------------------------|---------|---------|---------------|---------|---------------|---------|---------------|
| 1.  | Андижон вилояти         | 2299    | 1844,1  | 80,21         | 5850,1  | 317,23        | 4510,4  | 77,10         |
| 2.  | Бухоро вилояти          | 1622,9  | 1344,1  | 82,82         | 4373,3  | 325,37        | 3103    | 70,95         |
| 3.  | Жиззах вилояти          | 1292,1  | 1083,9  | 83,89         | 3697,9  | 341,17        | 2534,7  | 68,54         |
| 4.  | Қашқадарё вилояти       | 2244,5  | 1937,3  | 86,31         | 5989,7  | 309,18        | 4415,2  | 73,71         |
| 5.  | Навоий вилояти          | 1083,7  | 881,8   | 81,37         | 3142,7  | 356,40        | 2280,3  | 72,56         |
| 6.  | Наманган вилояти        | 2103,8  | 1703,3  | 80,96         | 5204    | 305,52        | 3921,5  | 75,36         |
| 7.  | Самарқанд вилояти       | 2862,2  | 2396,8  | 83,74         | 7000,5  | 292,08        | 5138,6  | 73,40         |
| 8.  | Сурхондарё вилояти      | 2130,7  | 1756,3  | 82,43         | 2590,7  | 147,51        | 3721,2  | 143,64        |
| 9.  | Сирдарё вилояти         | 861,5   | 779,5   | 90,48         | 1184,6  | 151,97        | 1725,4  | 145,65        |
| 10. | Тошкент вилояти         | 2474,1  | 2434,8  | 98,41         | 7540,9  | 309,71        | 4885,2  | 64,78         |
| 11. | Фарғона вилояти         | 2802,7  | 2267,4  | 80,90         | 6634,9  | 292,62        | 4962,7  | 74,80         |
| 12. | Хоразм вилояти          | 1512,6  | 1225,8  | 81,04         | 3663,7  | 298,88        | 2727,6  | 74,45         |
| 13. | Қорақолпоғистон вилояти | 1919    | 1616,7  | 84,25         | 5363,2  | 331,74        | 3897,9  | 72,68         |
| 14. | Тошкент вилояти         | 2224,8  | 1817,5  | 81,69         | 3023,2  | 166,34        | 4225,8  | 139,78        |
| 15. | Жами                    | 27433,6 | 23089,3 |               | 65259,4 |               | 52049,5 |               |

<sup>63</sup> Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarga ko'ra, respublika mahalliy byudjetlarning xarajatlari 2016-2019- yillarda nobarqaror ko'rinishda bo'lgan. Xususan, 2017- yil mahalliy byudjetlar bo'yicha islohotlar amalga oshirilishi uchun qator qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Mahalliy davlat hokimiyati va moliya organlarining faoliyatini tubdan isloh qilish, ularning vakolatlarini oshirish, byudjet xarajatlarining maqsadlilikini ta'minlash kabi mahalliy byudjet sohasidagi islohotlar 2018- yilda viloyatlar mahalliy byudjetlari xarajatlarning keskin oshishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, mahalliy hududiy birliklarni obodonlashtirish, aholini ijtimoiy – himoya qilish kabi dolzarb masalalar ham mahalliy byudjetlar xarajatlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan.

Natijada, 2018- yilga kelib, mahalliy byudjet xarajatlari, Surxondaryo, Sirdaryo, Toshkent viloyatlaridan tashqari, 3 martaga ko'paydi. 2019- yilga kelib, ko'pgina tashkilotlarning xususiylashtirilishi, mamlakatimizdagi mahalliy hududlarga investitsiyalarning jalb qilinishi, ijtimoiy sohadagi tarkibiy o'zgarishlar oqibatida mahalliy byudjet xarajatlari sezilarli darajada kamaytirildi. Masalan, Buxoro viloyat mahalliy byudjet xarajatlari 2018- yilda 4373,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019- yilga kelib 3013 mlrd. so'm xarajat qilindi va natijada, o'tgan yilgi viloyat mahalliy byudjet xarajatlarining 70,95 foizini tashkil etgan. Surxondaryo, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida esa mahalliy byudjet xarajatlari 2019- yilda o'zlarining 2018- yildagi byudjet xarajatlariga nisbatan deyarli 1,5 barobar ko'proq byudjet mablag'larini sarflashgan.

Mahalliy byudjetlarda soliq-byudjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi «natijaga yo'naltirilgan byudjet» tizimini joriy qilish zarurligi ilmiy asoslangan. Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishda soliq-byudjet siyosatining “natijaga yo'naltirilgan byudjet” tizimi strategik yondashuviga mosligini ta'minlash maqsadida moliyalashtirish manbasi aniq bo'lmaganda loyiha hujjatlarini qurilish-montaj ishlari bilan bir vaqtda

tayyorlash va parallel ravishda moliyalashtirish mexanizmining maqsadga muvofiq emasligidir.

### 2.3-jadval

#### “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan qurilish-ta’mirlesh ishlari bo‘yicha qarzdorlik holati<sup>64</sup>

| №  | Ob’ektlar soni | Ob’ekt nomi      | Ob’ektning shartnoma qiymati | Moliyalash tirilgan ( to‘lab berilgan mablag‘) | Qarzdorlik |
|----|----------------|------------------|------------------------------|--|------------|
| 1. | 90             | Hammasi          | 120477,2                     | 92035,7  | 26817,4    |
| 2. | 5              | 2017 yil ob’ekti | 3527,0                       | 2328,7   | 1198,3     |
| 3. | 14             | 2018 yil ob’ekti | 22718,3                      | 20324,7  | 2393,6     |
| 4. | 32             | 2019 yil ob’ekti | 73525,0                      | 53539,9  | 18361,0    |
| 5. | 7              | 2020 yil ob’ekti | 20706,9                      | 15842,4  | 4864,5     |
| 6. | 32             | 2021yil ob’ekt   | 73525,0                      | 53539,9  | 18361,0    |
| 7. | 0              | 2022 yil         | 0                            | 0  | 0          |

2-jadval ko‘ra, “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi tomonidan mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan qurilish–ta’mirlesh ishlari bo‘yicha qarzdorlik holati 2017 -2021- yillar mobaynida jami obyektlar soni 90 ta bo‘lib, amaldagi tartib bekor qilingandan keyin 2017- yilda obyektlar soni 5 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2018- yilda 14 ta, 2019- yilda esa 32 ta o‘shish sur‘atlari kuzatilgan, pandemiya ta’sirida 2020- yilga kelib obyektlar soni 7 taga tushgan.

### 2.4 - jadval

#### Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti doirasida o‘rta muddatli xarajatlarni rejalashtirilishi va uning ijrosi tahlili, mlrd.so‘mda<sup>65</sup>

| № | Xarajat turlari                      | Yillar |       |       |       |       |       |       |       |
|---|--------------------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
|   |                                      | 2019   |       | 2020  |       | 2021  |       | 2022  |       |
|   |                                      | reja   | ijro  | Reja  | ijro  | reja  | Ijro  | reja  | ijro  |
| 1 | Ijtimoiy soha xarajatlari            | 2 884  | 2 923 | 1 883 | 1 925 | 1 880 | 1 920 | 1 970 | 1 980 |
| 2 | Iqtisodiyotga xarajatlar             | 280    | 289   | 758   | 769   | 820   | 850   | 880   | 890   |
|   | Markazlashtirilgan investitsiyalarni | 97     | 107   | 43    | 56    | 70    | 88    | 77    | 89    |

<sup>64</sup> Muallif hisob kitobi (Surxondaryo viloyati Moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida).

<sup>65</sup> Muallif hisob kitobi (Surxondaryo viloyati Moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida).

|   |  |             |              |              |              |              |              |              |              |
|---|--|-------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
|   | moliyalashtirishga xarajatlar              |             |              |              |              |              |              |              |              |
| 4 | Davlat boshqaruv organlarini saqlash       | 132         | 156          | 145          | 173          | 155          | 167          | 170          | 177          |
| 5 | O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash | 53          | 53           | 62           | 62           | 65           | 65           | 67           | 68           |
| 6 | Ijtimoiy ko'nikma markazlari               | 1           | 1            | 1            | 1            | 1            | 1            | 1            | 1            |
| 7 | Qabullar uyini saqlash xarajatlari         | 2           | 2            | 2            | 2            | 2            | 3            | 2            | 2            |
| 8 | Boshqa xarajatlar                          | 67          | 157          | 125          | 221          | 135          | 225          | 125          | 225          |
| 9 | <b>Xarajatlar jami</b>                     | <b>3 48</b> | <b>3 721</b> | <b>3 077</b> | <b>3 246</b> | <b>3 128</b> | <b>3 319</b> | <b>3 292</b> | <b>3 432</b> |

2.4-jadvalda Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti doirasida o'rta muddatli xarajatlarni rejalashtirilishi va uning ijrosi tahlili keltirilgan unga asosan 2019- yilga qaraganda 2020- yil xarajatlar miqdori 4,9 % ga, 2021- yilga kelib, 5,5 % ga va 2022 yil (prognoz) kelib, 5,8 % byudjet xarajatlari nisbatan miqdori o'sganini ko'rishimiz mumkin. Byudjet xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash hamda iqtisodiyotga yo'naltirilgan bo'lib, unga asosan ijtimoiy soha uchun 2019- yilga nisbatan 2020- yilda 2% ga, 2021- yil uchun 2,2 % va keyingi yillar uchun barqaror holatda byudjetdan mablag'lar sarflangan.

## 2.5-jadval

### Surxondaryo viloyati mahalliy byudjeti doirasida o'rta muddatli daromadlarini rejalashtirilishi va uning ijrosi tahlili, mlrd.so'mda<sup>66</sup>

| №  | Daromad turlari  | Yillar       |              |              |              |              |              |              |              |
|----|--|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
|    |  | 2019         |              | 2020         |              | 2021         |              | 2022         |              |
|    |  | reja         | Ijro         | reja         | ijro         | reja         | ijro         | reja         | ijro         |
| 1. | Soliqlar va mahalliy yig'imlar shaklidagi daromadlar           | 1 559        | 1 844        | 1 221        | 1 397        | 1 222        | 1 398        | 1 233        | 1 401        |
| 2. | Boshqa daromadlar  | 354          | 372          | 1 053        | 1 053        | 1 077        | 1 078        | 1 078        | 1 888        |
| 3. | Mahalliy byudjetlarning yil boshiga qoldiq summasi             | 0,0          | 63           | 0,0          | 0,0          | 0,0          | 0,0          | 0,0          | 0,0          |
| 4. | Aylanma kassa mablag'larining vaqtinchalik jalb qilingan qismi | 17           | 17           | 17           | 101          | 70           | 102          | 70           | 102          |
|    | <b>Jami:</b>   | <b>3 565</b> | <b>3 801</b> | <b>3 094</b> | <b>3 354</b> | <b>3 148</b> | <b>3 356</b> | <b>3 155</b> | <b>3 368</b> |

2.5-jadvalda Surxondaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlari tahlili keltirilgan daromadlar turlari soliqlar va mahalliy yig'imlar shaklidagi daromadlar, mahalliy byudjetning qoldiq, aylanma kassa mablag'larining vaqtinchalik jalb

<sup>66</sup> Muallif hisob kitobi (Surxondaryo viloyati Moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida).

qilingan qismi hamda boshqa daromadlarining 2019- yilga qaraganda 2022- yillarga qadar daromadlar miqdori 6,6 % oralig'ida barqaror holati ta'minlangan.

Xulosa qilib aytganda, har bir islohotni amaliy jarayonga moslash va kutilgan natijaga erishish birinchi navbatda vaqt omilini to'g'ri taqsimlashga qaratiladi. Shu bois mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotini to'liq joriy etish dastlabki byudjet sikli (byudjet kalendari)ni o'zgartirishga olib keladi.

### **2.3 Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning ilg'or xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari**

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqoriligi natijasida davlat xarajatlarining ham o'sishi bir qator davlatlarda o'rta va o'zoq muddatli mo'ljallangan istiqbol ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirigan byudjetlar tuzilishiga olib keldi. Istiqbol ko'rsatkichlari yillik ko'rsatkichlar uchun eng yuqori chegara –bazaviy nuqta bo'lib hisoblanadi.<sup>67</sup>

Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejaga o'tkazishning samaradorligini oshirishda eng samarali usul sifatida xorijiy davlatlarning natijasiga asoslangan byudjetlashtirishni amalga oshirish ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xarajatlarning prognoz ko'rsatkichlari kelgusi davr xarajatlari eng yuqori nuqtasi sifatida belgilanadi hamda boshqa xarajatlarni oshirish uchun tashabbus va takliflarga yo'l qo'yilmaydi. AQSh, Shvetsiya va Niderlandiyada o'rta va uzoq muddatli byudjet prognozlarining joriy byudjet bilan mutanosibligini ta'minlashning eng muhim sharti –bu ularning bitta idora tomonidan tuzilishidir. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Finlandiyada 3 yillik, Turkiyada 5 yillik, Shvetsiya, Ispaniya, Portugaliyada 4 yillik byudjetlar istiqbol ko'rsatkichlari tuziladi va ulardan kelgusi yil byudjetini tuzish va uni Parlament tasdig'iga kiritishda baza sifatida foydalaniladi.<sup>68</sup>

---

<sup>67</sup> Касимова.Г.А. /маҳаллий бюджетлар/ўқув қўлланма/Т.: -2012 йй/ 53-бет

<sup>68</sup> Касимова.Г.А. /маҳаллий бюджетлар/ўқув қўлланма/Т.: -2012 йй/ 53-бет



Bu borada AQSh byudjet strukturalarini amalga oshirishdagi mezonlari va yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

AQSh byudjet strukturasi boshqaruvini shakllantirishda va amalga oshirishda aniq mezonlar, shuningdek, yondashuvlarni belgilab olish uchun shuningdek ushbu strukturalarni mahalliy darajada bajarilish sifatini baholash uchun olib borilayotgan moliyaviy rejalardan xabardor qilgan holda olib borildi. Va ularni o'ziga xos boqichlarga ajratdi: <sup>69</sup>

Birinchi bosqich – 1949-1962 yillar. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni amalga joriy etish yo'lida ilk qadamlarni AQShda Guver komissiyasi<sup>70</sup> 1949- yilda qadam tashlangan.<sup>71</sup> Bu davrda Federal byudjetni dasturiy maqsadli byudjet ko'rinishida taqdim etish shaklida edi. Asosiy e'tibor davlat funksiyalarini bajarishga, tadbirlarni amalga oshirishga va an'anaviy resurslarni sarflash o'rniga natijalarga erishishga qaratildi. 1953- yilda tuzilgan ikkinchi Guver komissiyasi 1951-1952- yillarda o'zlashtirilgan performance budgeting prinsiplarini qo'llash tajribasini tahlil qildi va quyidagi xulosalarga keldi.<sup>72</sup>

Bu prinsiplarni qo'llash tajribasi orqali nimalarga erishildi:

Birinchidan - federal byudjet loyihasi dasturlar faoliyat turlari kesimida Kongressga taqdim etilishi byudjet axborotini tushunish va tahlil qilishni ancha osonlashtirdi, federal hukumat byudjetini davlat siyosati maqsadlarini xarajatlar bilan bog'lovchi va rejalashtirilayotgan davlat xarajatlari davlat siyosati maqsadlariga erishish bilan qay darajada bog'liq ekanligini namoyish etuvchi siyosiy hujjatga aylantirishga ko'maklashdi;

Ikkinchidan-byudjet loyihasiga vazirliklar faoliyatining kutilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy natijalari haqidagi axborotni kiritishga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun vazirliklarning javobgarligini kuchaytirish, davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi;

---

<sup>69</sup> Усков.И.В./ Зарубежный опыт формирования и исполнения государственных и местных бюджетных программ /журнал/Загальни питання економіки/ 31-бет

<sup>4</sup> Birinchi Guver komissiyasi ( rasmiy nomi - The Commission on the Organization of the Executive Branch) 1947 йил июлда тузилган

<sup>71</sup> Azizova I.A // Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish// O'quv qo'llanma// T.: 2010 y// 32-bet

<sup>72</sup> Azizova I.A // Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish// O'quv qo'llanma// T.: 2010 y// 32-bet

Uchinchidan - byudjetga idoralararo dasturlarni kiritish turli vazirliklar faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirishga ko'maklashadi;

To'rtinchidan - davlat siyosati maqsadlarini shakllantirish bosqichida federal byudjet loyihasi ustida ishlashga qonunchilik hokimiyati vakillarini jalb qilish hokimiyat ijro va qonunchilik tarmoqlarining byudjetni tuzish uchun o'zaro javobgarligini o'rnatish imkoniyatini beradi, byudjet loyihasi Kongressda o'tishini yengillashtiradi.<sup>73</sup>

Keyingi berilishi mumkin bo'lgan savol nimalarga erishilmadi:

Birinchi- vazirliklarning xarajatlari aks ettirilgan dasturlarni amalga oshirish uchun jami xarajatlar haqida axborot aksariyat hollarda yetarli va to'liq bo'lmagan, bu esa belgilangan natijalarga erishishning haqiqiy qiymatini aniqlash imkoniyatini bermagan;

Ikkinchi- dasturlarni boshqarish, boshqaruv xarajatlari va boshqa bilvosita xarajatlarni byudjet tasnifida aks ettirishni tashkil etishning yagona prinsiplari ishlab chiqilmagani tufayli dasturlarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar lozim darajada qiyosiy bo'lmagan;

Uchinchi - dasturlarni amalga oshirish va ularning bajarilishi to'g'risida hisobotni taqdim etish sinxronlashtirilmagan. Vaholanki, komissiya byudjet tasnifi, dasturlarning tashkiliy tuzilmasi va hisobot taqdim etish taomillarini muvofiqlashtirish zarur, degan xulosaga kelgan.<sup>74</sup>

Shunday qilib, byudjetlashtirishning bu strukturaviy boshqaruvida bir nechta natijadorlikka erishilgan bo'lsada, buni muvaffaqiyatli deb e'tirof etish mumkin emas edi. Bu prinsiplarni amalga joriy etish taktikasi, ko'zda tutilgandan ham ko'proq qarshilikka uchradi. Bu usul ko'pgina kongresmenlarda norozilik kayfiyatini uyg'otdi. Natijaga yo'naltirilgan byudjetning ilk qadamini kongresmenlar ko'p narsa yo'qotilib kam narsaga erishildi deb hisoblaganlar. AQSh byudjet jarayoni tarixchisi Artur Smitiz. "Ammo, - deb qo'shimcha qiladi u, -

---

<sup>73</sup> Azizova I.A // Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish// O`quv qo`llanma// T.: 2010 y// 33-bet

<sup>74</sup> Azizova I.A // Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish// O`quv qo`llanma// T.: 2010 y// 33-bet

sermazmun dasturiy byudjetni tayyorlash juda og‘ir ish va haqiqiy dasturiy byudjet balki hech kachon tuzilmas. Shunga qaramay, bu idealga yaqinlashish mumkin va ushbu yo‘lda har qanday harakatlar qo‘llab-quvvatlanishi lozim”. deb hisoblagan.<sup>75</sup>

Ikkinchi bosqich – 1962-1971- yillar. Bu bosqichni shunday xarakterlash mumkinki, bu davrda byudjetni o‘rta va uzoq muddatli rejalashtirish, dasturlashni joriy etish bosqichi bilan xarakterlaymiz. 1962- yilda vujudga kelgan resurslarni maqsadlarga ko‘ra taqsimlash Planning - Programming - Budgeting tizimi (PPBS) AQSh mudofaa vaziri Robert Maknamara tashabbusi bilan ishlab chiqilgan. PPBSning bosh vazifasi resurslar - jonli kuch, texnika va front orti ta‘minoti qurolli kuchlarning turlari bo‘yicha optimal (belgilangan byudjet cheklashlari doirasida eng maqbul) taqsimlanishini ta‘minlashdan iborat bo‘lgan.<sup>76</sup>

Byudjetni rejalashtirish va dasturlash tizimidan byudjet tashkilotchilarning yangi avlodlariga quyidagilarni meros qoldirdi:

- 1) vazirliklar va idoralarning ta‘riflangan maqsadlari va funksiyalari;
- 2) qarorlar qabul qilishni axborot bilan quvvatlash sifatining oshishi: vazirliklar va idoralarda normativ xarajatlar, xizmatlar ko‘rsatish hajmlari, maqsadlar hamda ularga erishish darajasini o‘lchash usullari haqida noyob axborot jamlangan edi;
- 3) turli muqobillarni taqqoslash va optimal byudjet qarorlarini qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish tajribasi;
- 4) PPBSning o‘z yechimini topmagan muammolari.<sup>77</sup>

Uchinchi bosqich – 1972-1975 yillar. Bu davrda yangi bosqich boshlandi. Ya‘ni maqsadlar bo‘yicha boshqarish, maqsadlarga erishish uchun vazirlik hodimlarining mas‘uliyati kuchaytirildi va maqsadlarga ko‘ra boshqarish deb nom oldi. Barcha byudjet dasturlari davlat siyosatining yo‘nalishlari bilan kelishilgan holda vazirlikning maqsadlari asosida tuzilishi kerak edi va bir paytlar erishilgan natijalarning ijtimoiy ahamiyatini baholashga urinishdi.

Byudjet byurosi negizida tuzilgan Ma‘muriy-byudjet boshqarmasi (Office of Management and Budget) MVO ni joriy etishda yetakchi rol o‘ynashi lozim edi.

---

<sup>75</sup>Azizova I.A // Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish// O‘quv qo‘llanma// T.: 2010 y// 34-bet

<sup>76</sup>Azizova I.A // Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish// O‘quv qo‘llanma// T.: 2010 y// 34-bet

<sup>77</sup>Azizova I.A // Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish// O‘quv qo‘llanma// T.: 2010 y// 35-bet

Byudjet byurosining barcha vazifalaridan tashqari, mazkur boshqarmaga federal dasturlarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligiga baho berish, harakatlarni idoralararo muvofiqlashtirish, ijro etuvchi hokimiyat federal organlarida tashkiliy tuzilmalar va boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, Oq uyga ularni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash yuklatildi<sup>78</sup>.

To'rtinchi bosqich- 1977-1981 yillar. Byudjetni noldan rejalashtirish ( nolga asoslangan byudjetlashtirish) deb ta'riflanadi. Hamda vazirlik va idoralar har hil darajadagi xarajatlar bilan belgilangan maqsadalarga erishish uchun bir nechta dasturlar tuzdilar. Bu degani, hech bo'lmaganda bitta dastur hozirgi darajadan past bo'lishi kerak edi. Aniqlab olingan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorini baholashga o'tgan davrning tegishli byudjet xarajatlaridan qat'i nazar, " noldan amalga" tadbiiq etilishi kerak edi. Vazirlik va idoralarda mavjud dasturiy tuzilmasi bilan tashkiliy tuzilmani birlashtirish, " Qarorlar qabul qilish" markazlari" ( qarorlar bo'linmalarini tashkil etish byurildi. Va dasturlar bo'yicha qarorlar qabul qilinishi kerak edi. Ishlab chiqilgan dasturlarda ko'rsatilgan qarorlar qabul qilish markazlari birligida tuzilishi kerak bo'ldi. Shuningdek, 1993 yila AQSh hukumatining faoliyati va natijalari to'g'risida qonun qabul qilindi. Belgilangan dasturlarning bajarilishi uchun davlat organlarining mas'uliyati kuchaytirildi. Byudjet doirasida xarajatlar ba'zasi o'rtasida resurslarni qayta taqsimlash orqali mahalliy byudjet boshqaruvchilariga o'z maqsadlariga erishish yo'llarini mustaqil tanlash huquqi berildi. Vazirlik va idoralar har uch yilda tuzatilgan besh yillik strategik rejalarni ishlab chiqishlari shart edi.

Germaniya davlatida yillik byudjet davri o'rta muddatli besh yillik moliyaviy reja asosida Bundestag tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi yil – joriy byudjet yili, ikkinchi yil asosida keyingi byudjet shakllantiriladi, navbatdagi uch yil – bu byudjet davri maydonini vaqt jihatidan optimal rejali davrdir. Moliyaviy rejalashtirish texnikasi vaqtni "sirg'aluvchi" tavsifga ega. Moliyaviy reja har yili yangidan tuzilib va rejalashtirish davri bir yil oldinga suriladi. Bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davr o'zgarishlariga yanada egiluvchan harakatlanish imkonini

---

<sup>78</sup> Дейкин А.И. Механизм федерального бюджета США. - М.: Наука, 1989. - 10-б.

beradi. Birinchi ikkita o'rtta muddatli rejaviy yilni moliyaviy rejalashtirish jarayonida kutilayotgan iqtisodiy davr o'zgarishlarini hisobga olgan holda umumiy iqtisodiy prognozlashtiriladi. Oxirgi, uch yil ko'rsatkichlari bunday o'zgarishlarini hisobga olmagan holda rejalashtiriladi.

Bugungi kunda, Fransiyada ko'p yillik byudjetni rejalashtirish prognozlar asosida tuzish jarayoni majmuasi amaliyotda yo'q bo'lib, unga qaramay, mudofaa va dengizdagi hududlarini moliyalashtirish kabi davlat xarajatlarini uzoq muddatni nazarda tutuvchi qonunlar orqali tartibga solinadi. Shuni eslatib o'tish lozimki, 1947-1975- yillarda besh yilga mo'ljallangan indikativ rejalashtirishni nazarda tutuvchi moliyaviy siyosatni amalga oshirilgan davrda Fransiyaning iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi va g'arb dunyosiga o'z vaqtida o'rnak bo'lgan. Bunday ta'rif davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi darajasining pasayganligi bilan izohlash mumkin. Fransiya byudjet jarayoniga cheklangan resurslar miqdori tamoyili xos bo'lib, parlament byudjetning xarajatlar qismini daromadlariga ko'ra tasdiqlaydi.

Kanada iqtisodiy istiqbolga byudjet hisob-kitoblarini davlatning moliyaviy siyosat va xarajatlarni boshqaruvchi maxsus tuzilma orqali amalga oshiriladi. Ko'p yillik byudjetlarni tuzish jarayonida "yuqoridan pastga" tamoyili strategik maqsadlarni aniqlab olishga xizmat qilinadi, har bir xarajat moddalari bo'yicha batafsil ko'rib chiqish imkonini beruvchi "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida operativ rejalashtirish orqali to'ldiriladi.

Yaponiyada doimiy ravishda byudjetni rejalashtirish ko'p yillik byudjetlar asosida amalga oshiriladi. Lekin moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan davlat byudjeti markaziy hukumat byudjeti (umumiy schot), ko'p sonli maxsus byudjetlar va davlat korporatsiyalari byudjetlarida iborat. Byudjet tizimining oxirgi ikki bo'g'ini hajmiga ko'ra umumiy schyotdan oshiq bo'lib, investitsion xarakterga ega. Davlat investitsiyalari va qarzlari maxsus schyotdan sanoat investitsiyalari, shaharlarni rivojlantirish, energetika va boshqa uzoq muddatli xarajatlar moliyalashtiriladi. Huddi shunday rolni davlat korrupsiyalari, shuningdek hududiy miqyosda faoliyat ko'rsatuvchi korporatsiyalar transport, baliq ovlash, o'rmon va

qishloq xo`jaligini saqlab turish orqali bajaradi. Agarda byudjetdan qo`shimcha moliyalashtirish to`g`risida qaror qabul qilinsa, u zahira moliyaviy fondi hisobiga amalga oshiriladi. Ya`ni Yaponiya byudjet mablag`larini boshqarishda chegaraviy-me`yyoriy rejim qo`llaniladi.

O`rta muddatli istiqbolni belgilsh va ko`p yillik byudjetlashtirish ko`plab mamlakatlarda amaliyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Shu bilan birga , Avstralyada byudjetni ishalab chiqarish jarayonida moliya vazirligi har kelgusi uch yillik uchun istiqboldagi xarajatlarni baholaydi. Daniyada ham uch yilga budjetdan moliyalashtirishni prognozlashtiriladi. Finlandiyada moliyaviy chora-tadbirlarning vaqt gorizonti bir plyus uch yildan iborat. Gresiya budjetini shakllantirilishidagi o`ziga hos ttomoni shundaki, Milliy Iqtisodiyot Vazirligi tomonidan tuzilgan budjet investitsiyalari davlat budjetiga hech qanday o`zgarishlarsiz kiritiladi. Irlandiyada budjet hisob-kitoblari resurslarga extiyojlarni uch-to`rt yilga oldindan prognozlarini nazarda tutadi. Ushbu prognozlar gorizonti har yili o`zgarib turadi va bu iqtisodiyot hamda budjetni o`rta muddatda boshqarish vositasidir. Gollandiyada prognozlarni yaqin budjet yili va keyingi to`rt yilga tuziladi va doimiy ravishda bu jarayon davom etadi. Budjet tendensiyalaridagi har bir o`zgarish besh yillikdagi mos o`zgarishlarni to`g`irlashni oldindan aniqlab beradi. Portugaliyada to`rt yilga mo`ljallangan investitsiyalar va xarajatlar bo`yicha alohida tasdiqlangan rejalar asosida dasturlar va loyihalar me`yori tuziladi. Ispaniyadagi budjet jarayoni ko`p yillik budjetlar orqali davlat sektorining to`rt yil doirasida makroiqtisodiy va makromoliyaviy faoliyati natijalarini tahlil etish imkonini beradi. Shvesiyada uch yillik budjet sikli joriy etilgan bo`lib, shuningdek qabul qilingan qarorlar va moliyaviy majburiyatlarning oqibatlarini oldindan ko`ra olish uchun davlat budjeti daromadlari, xarajatlari va saldosi to`rt yillik prgnozlarini ishlab chiqiladi. Turkiyada yillik budjetni afzal ko`rilsada, uning ko`rsatkichlari davlat sektori uchun majburiy va hususiy sektor uchun tavsiya etilgan besh yillik mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning maqsadli ko`rsatkichlariga bog`liq bo`ladi.

Shu o`rinda Rossiya Federatsiyasida budjetni natijaga yo`naltirilgan o`rta muddatli rejalashtirish tizimi asosida shakllantirish yuzasidan orttirilgan tajribasini

batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Rossiyada Federatsiyasida ham budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini ko‘zlovchi natijaviylikka yo‘naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish, bularda vaqt gorizontlarini o‘rta muddatga belgilash orqali yil doirasidan chiquvchi maqsadli-dasturlarni to‘liq moliyalashtira hamda ulardan kutilayotgan natijalarni monitoringini olib bora olish va baholashlarni samarali tashkil etish uchun federatsiyada bir qator institutsional va budjet-soliq islohotlari amalga oshirib kelinmoqda.

## 2.6-jadval

### Byujdet islohotlarininig mohiyati<sup>79</sup>

|  | Xarajatlarni boshqarish<br>(1991-1999 gg.)   | Natijalarni boshqarish (to‘liq o‘tish<br>muddati 2008 yildan boshlab)   |
|--|--|---|
| Rejalashtirish<br>gorizonti                          | 1 yil  | 3 yil   |
| Moliyalashtirish<br>uslubu                           | <ul style="list-style-type: none"> <li>• xarajatlarni boshqarish</li> <li>• budjet tashkilotlari tarmog‘ini saqlash</li> </ul>   | <ul style="list-style-type: none"> <li>• xarajat majburiyatlarini bajarish</li> <li>• davlat (mahalliy) xizmatlarini moliyalashtirish</li> <li>• umumjamiyat ahamiyatiga molik natijalarni moliyalashtirish</li> </ul>            |
| Budjet<br>mablag‘larini<br>sarflashda<br>mustaqillik | <ul style="list-style-type: none"> <li>• maqsadli ishlatilish</li> <li>• budjet mablag‘larini ishlatilishi bo‘yicha hisobot</li> </ul>   | Budjet xarajatlari orqali erishiladigan natijalarni nazorati: <ul style="list-style-type: none"> <li>• xarajatlar samaradorligi</li> <li>• budjet xizmatlari sifati</li> <li>• taqsimlovchi vakolatlarini kengaytirish</li> </ul> |
| Budjet jarayonining<br>tarkibi                       | <i>Texnika:</i> daromad va xarajatlarni chegaralari-ni belgilash <ul style="list-style-type: none"> <li>• makroiqtisodiy prgnoz</li> <li>• normativlar, tarifalar</li> <li>• Indeksatsiya</li> </ul> | <i>Siyosat:</i> qanday asosda moliyalashtirish: <ul style="list-style-type: none"> <li>• ustuvorliklar(strategiya)</li> <li>• maqsadlar va natijalar</li> </ul>   |

Xususan natijaviylikka yo‘naltirilgan O‘rta muddatli rejalashtirish tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu amaldagi budjetlashtirish tizimidan butunlay farq qilib, bir qator yangi tushunalar, elementlarni kirib kelishiga sababchi bo‘ldi. Budjet-lashtirishninig yangi uslubini joriy etish orqali paydo bo‘lgan

<sup>79</sup> Л.Н. Богданов, БОР в России: опыт и перспективы, 2007 йил 29 мартдаги семинар таъдимоти, [www.undp.uz](http://www.undp.uz)

quyidagi elementlarning har birining ahamiyati oqilona pirovard natijalarni ko‘zlovchi qarorlar chiqarishga asos yaratishi va budget jarayoniga yanada izchillik olib kirganligi bilan yuqoridir:

- O‘rta muddatli moliyaviy rejalashtirish;
- Dasturli-maqсадli yondashuv (NYB);
- Budgetni joriy majburiyatlarga asoslangan budget(JMB) va qabul qilinuvchi majburiyatlarga asoslangan budget(QQMB)ga ajralishi;
- Budget bo‘g‘inlarini qaytadan tashkil etish;
- Budget xarajatlarning samaradorligini ichki nazorati va monitoringi.

Budget sohasida joriy etilgan natijalarni boshqarish tizimiga o‘tish(2008 yil 1 yanvardan) avvalgi yillarda bo‘lib kelgan xarajatlarni boshqarish tizimidan qanday farq qilishi, umuman amalga oshirilayotgan budget islohotlarining mohiyati quyidagi jadvalda aks ettirilgan (3.2-jadval):

Birgina 2003-2007 yillar davomida amalga oshirilgan budget islohotlarini kuzatar ekanmiz, budget mablag‘larini boshqaruvchilar nuqtai-nazaridan olib qaraganda shu qisqa davr ichida butunlay yangicha yondoshuvga o‘tilganiga guvoh bo‘lamiz. 2003 yil 4 iyulda “«O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v Federalnyy zakon «Ob obshchix principax organizatsii zakonodatelnykh (predstavitelnykh) i ispolnitelnykh organov gosudarstvennoy vlasti sub’ektov Rossiyskoy Federatsii” №95-FZ-sonli Federal qonunning qabul qilinishi bilan federal, hududiy va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayoni boshlandi. 2003-2005 yillarda budget mablag‘larini boshqaruvchilar sifatida xokimliklar maydonga chiqqan bo‘lsalar, hozirga kelib budget mablag‘larini boshqaruvchilar budget xizmatlarini taqdim etuvchilar hisoblanadi. Avvallari budget tashkilotlari, umuman budget uchun xarajatlarni moliyalashtirish uchun manba soliqlar, ajratma va yig‘imlar bo‘lgan bo‘lsa, ya’ni daromaddan kelib chiqqan holda xarajatlar me’yori belgilangan bo‘lsa, endilikda xarajatlarni jon boshiga qarab moliyalashtirish, ya’ni budget xizmatlarini ko‘rsatilayotgan kishilar sonidan kelib chiqqan holda jon boshiga bazaviy me’yorlar asosida manbalar belgilanadi. Ayniqsa rag‘batlantiruvchi kuch



bo‘lib avval iqtisodiy o‘shish hisoblangan bo‘lsa islohotlar xizmatlarga to‘lovlarni rag‘batlantiruvchi kuch sifatida oldinga surmoqda.

Umuman olganda, ko‘plab iqtisodchi olimlar fikrlariga e‘tibor qaratsak, ularning xorij tajribasiga murojaat qilishlarini tez-tez kuzatamiz. Biroq, birgina mamlakat tajribasini to‘lig‘icha biror mamlakatga joriy etib bo‘lmaydi. Uzil-kesil qarorlarga kelish bir necha mamlakatlardagi umumiy tendensiyalarni o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu paragrafda biz budjetlashtirish gorizontining o‘rta muddatga belgilash amaliyotini tadbiq etib kelayotgan bir qator xorijiy mamlakatlarni ko‘rib chiqdik va ulardagi ko‘p yillik budjetlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgandik. Bunday yondoshuv O‘zbekistonda ham ko‘p yillik budjetlashtirish amaliyotini tadbiq etishda, o‘rta muddatli istiqbolni belgilash amaliyotida o‘z yo‘limizni tanlab olishimizda hamda xorijiy mamlakatlarda erishilgan tajribalardan o‘z o‘rnida va oqilona foydalana olishimizda yordam beradi.

Ushbu bobga xulosa qilib shuni aytish mumkin-ki, davlat budjetini o‘rta muddatli rejalashtirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati deb nomlanmish birinchi bobimizda davlat budjetini o‘rta muddatli rejalashtirishning mohiyati va zarurligini, O‘zbekiston Respublikasida joriy etish shart-sharoitlarini hamda davlat budjetini o‘rta muddatli rejalashtirish amaliyoti yuzasidan xorijiy tajribalarni o‘rganib chiqdik. Bunga asoslangan holda shuni aytish mumkin-ki, davlat budjetini o‘rta muddatga prognozlashtirish orqali bugungi qarorlarni kelgusida erishiladigan makroiqtisodiy va makromoliyaviy natijalar bilan bog‘lash imkoni tug‘iladi, dasturli-maqсадli loyihalar orqali budjetdan moliyalashtirishda aniq maqsad va natijaviylikka erishiladi. Respublikamizda ushbu amaliyotga o‘tish borasida bir qator xalqaro grant va loyihalar asosida ko‘plab seminarlar, treninglar, o‘quv safarlarini tashkil etish borasida ancha ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, birinchi bobimizda ko‘rib chiqqanimizdek, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar borasida va zaruriy qonuniy-me‘yoriy asos yaratish borasida undan-da ko‘proq ishlarni amalga oshirish hali oldimizda turibdi. Bunda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalaridan oqilona foydalana olish zarur.

O'zbekistonda ham mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli yillik rejalashtirish amaliyotini tadbiq etishda, o'rta muddatli istiqbolni belgilash amaliyotida o'z yo'limizni tanlab olishimizda hamda xorijiy mamlakatlarda erishilgan tajribalardan o'z o'rnida va oqilona foydalana olishimizga yordam beradi.

## **2-bob bo'yicha xulosalar**

1. Bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish, bunda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni keng qo'llash orqali masalaga tizimli yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Har bir islohotni amaliy jarayonga moslash va kutilgan natijaga erishish birinchi navbatda vaqt omilini to'g'ri taqsimlashga qaratiladi. Shu bois mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotini to'liq joriy etish dastlabki byudjet sikli (byudjet kalendari)ni o'zgartirishga olib keladi.

3. Mahalliy byudjetini o'rta muddatga rejalashtirish orqali bugungi qarorlarni kelgusida erishiladigan makroiqtisodiy va makromoliyaviy natijalar bilan bog'lash imkoni tug'iladi, dasturli-maqсадli loyihalar orqali byudjetdan moliyalashtirishda aniq maqsad va natijaviylikka erishiladi.

4. Surxondaryo viloyatida mahalliy byudjet mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlari mamlakatimiz respublika byudjeti bo'yicha mablag'larning sarflanishi asosiy yo'nalishlariga mos. Bu, eng avvalo, mamlakat miqyosida yagona moliyaviy siyosatning yuritilganligi bilan belgilanadi.**III-BOB.**

## **MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING KELGUSIDAGI USTUVOR YO'NALISHLARI**

### **3.1. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlash**

So'ngi bir necha o'n yil mobaynida tadqiqotchilar fiskal siyosat va iqtisodiy o'sish darajasi orasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qilishgan. Bu sohaga katta

hissasini qo'shgan olimlardan Arrov va Kurz<sup>80</sup> iste'molchilarning shaxsiy iste'moldan hamda davlat aksionerlik kapitalidan ijtimoiy samara olishi modelini takomillashtirdi. Ular davlat mablag'lari iqtisodiy o'sish, davlat kafolatidagi kredit berishda umuman davlatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy rol egallashini ta'kidlab o'tadilar. Keyinchalik boshqalar tomonidan ham davlatning iqtisodiy o'sishga davlat xarajatlarning bog'liqligi doirasida ko'plab muqobil modellar ishlab chiqildi, ayniqsa, bu borada Barro<sup>81</sup> tomonidan olib borilgan tadqiqotlar katta hissa qo'shdi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimizda mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari miqdorining yalpi hududiy mahsulot o'sishiga ta'siri bo'yicha ekonometrik tahlil olib bordik. Mazkur ilmiy ishda mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini baholashda panel korrelyatsion va regression tahlillarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq ko'rdik. To'plangan amaliy ma'lumotlarimiz, jumladan, maxsus ko'rsatkich, ya'ni panel ma'lumotlari asosida tahlil qilinib, xususan, ushbu panel birliklari sifatida mamlakatimizdagi 14 mahalliy byudjetlar xarajatlari, daromadlari, YaHM byudjet transfertlari ta'sirini hududlar kesimidagi ma'lumotlar bazasi 2017 – 2022- yillar aks ettirilgan. Mazkur ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, panel ma'lumotlari asosida regression va korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Panel ma'lumotlari asosida ekonometrik tahlilni amalga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlari va daromadlari va YaHM o'rtasida ta'sirini baholash imkoniyatini beradi. Ushbu modellarni tuzishda hozirgi kunda ekonometrikada keng qo'llanilayotgan STATA 16 foydalanamiz. Ko'p omilli regression va korrelyatsion ekonometrik modelini tuzishda natijaviy omil sifatida tanlangan mahalliy byudjetlari xarajatlari (Exp) ta'sir qiluvchi omillar mahalliy byudjet daromadlari (Rev), byudjet transfertlari (Bud\_tr) va YaHM ( $GDP_t$ ) belgilanib, tadqiqot gipotezalar bo'yicha ushbu omillar

---

<sup>80</sup>Arrow, K. and M. Kurz(1970),PublicInvestment, theRateof Return, and OptimalFiscal Policy.Baltimore: The Johns Hopkins University Pres

<sup>81</sup> Barro,R. (1990)," Governmentspending a simplemodelofendogenousgrowth," Journal of PoliticalEconomy, 98(5): 103-25,

Barro,R. (1991), "Economicgrowthin a cross-section of countries," Quarterly Journal of Economics, 106: 407-44

byudjet xarajatlari chegaraviy miqdoriga bog‘liq va yuqori ta’sirga ega deb, model tuzamiz.

$$\text{Log}(\text{Exp}_{it}) = \beta_{1i} + \beta_2 * \text{Log}(\text{Rev})_{it} + \beta_3 * \text{Log}(\text{Bud}_{tr})_{it} + \beta_4 * \text{Log}(\text{GDP}_r)_{it} + e_{it} \quad (1)$$

$$i = 1, 2, \dots, 14; t = 1, 2, \dots, 6;$$

### 3.1-jadval

#### Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlashga ta’sir etuvchi omillarning tasviriy statistikasi

| O‘zgaruvchilar    |            | O‘zgaruvchilar-ning o‘rtachasi | Standart chetlanish | O‘zgaruvchilar-ning maksimum nuqtasi | O‘zgaruvchilarni ng minimum nuqtasi | kuzatuvlar |
|-------------------|------------|--------------------------------|---------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|------------|
| <b>Log_Exp</b>    | jami       | 7, 6963                        | 0,483778            | 6,553157                             | 8,706932                            | N=84       |
|                   | Birgalikda |                                | 0,368102            | 6,997713                             | 8,141327                            | n=14       |
|                   | O‘zaro     |                                | 0,326658            | 7,128811                             | 8,306582                            | T=6        |
| <b>Log_Rev</b>    | jami       | 7,7655                         | 0,757642            | 6,305655                             | 9,940165                            | N=84       |
|                   | Birgalikda |                                | 0,692519            | 6,804688                             | 9,575135                            | n=14       |
|                   | O‘zaro     |                                | 0,351181            | 7,047496                             | 8,368548                            | T=6        |
| <b>Log_Bud_tr</b> | Jami       | 4, 583668                      | 9,14965             | -31,86105                            | 8,509921                            | N=63       |
|                   | Birgalikda |                                | 9,153265            | -20,66774                            | 8,100998                            | n= 13      |
|                   | O‘zaro     |                                | 5,127734            | -13,81468                            | 31,17658                            | T-bar=4,84 |
| <b>Log_GDP_r</b>  | Jami       | 10, 29245                      | 0,604686            | 8,824619                             | 11,82837                            | N=84       |
|                   | Birgalikda |                                | 0,511888            | 9,362774                             | 11,37758                            | n=14       |
|                   | O‘zaro     |                                | 0,345543            | 9,363416                             | 10,95323                            | T=6        |

3.1-jadvaldagi panel ma’lumotlari asosida o‘zgaruvchilarning tasviriy statistikasidan mahalliy byudjetlar xarajatlarining ( $\text{Log}(\text{Exp}_{it})$ ) o‘rtacha tebranishi 7,69 miqdorni tashkil etsa, uning maksimum qiymati 6,55 ni va minimum qiymati 8,7 ni tashkil etadi, hamda standart chetlanishi 0,48 ni tashkil etishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning mahalliy byudjet xarajat miqdorlari o‘rtasida juda katta farqlanmasligini anglatadi. Mahalliy byudjet daromadlarining ( $\text{Log}(\text{Rev}_{it})$ )

o‘rtacha tebranishi 7,76 miqdorni tashkil etsa, uning maksimum qiymati 6,3 ni va minimum qiymati 9,9 ni tashkil etadi, hamda standart chetlanishi 0,75 ni tashkil etishini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning mahalliy byudjet daromadlari o‘rtasida juda katta farqlanmasligini kuzutishimiz mumkin.

### 3.2-jadval

#### Mahalliy byudjetlari xarajatlari chegaraviy miqdori, mahalliy byudjet daromadlari, byudjet transfertlari, YaHM o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqligi tahlili.<sup>82</sup>

| Korrelyatsion bog‘liqlishi Ehtimollilik | Mahalliy byudjetlari xarajatlari | Mahalliy byudjet daromadlari | Byudjet transfertlari | YaHM     |
|---|----------------------------------|------------------------------|-----------------------|----------|
| Mahalliy byudjetlari xarajatlari        | 1.000000                         |                              |                       |          |
|   | -----                            |                              |                       |          |
| Mahalliy byudjet daromadlari            | 0.7449*                          | 1.000000                     |                       |          |
|   | 0.0000                           | -----                        |                       |          |
| Byudjet transfertlari                   | 0.0803*                          | -0.2326*                     | 1.000000              |          |
|   | 0.0017                           | 0.0000                       | -----                 |          |
| YaHM                                    | 0.7102*                          | 0.6204*                      | -0.2214               | 1.000000 |
|   | 0.0000                           | 0.0000                       | 0.0812                | -----    |

Mahalliy byudjetlarning xarajatlarini o‘rta muddatli rejalashtirishda chegaraviy miqdorlarini ishlab chiqish maqsadida 2017-2022- yillardagi mahalliy byudjetlar xarajatlariga ta’sir etuvchi omillar sifatida yalpi hududiy mahsulot hajmi, mahalliy byudjetlar daromadlari hajmi, mahalliy byudjetlarga berilayotgan byudjet transfertlari hajmi kabi ko‘rsatkichlar tanlab olindi. Milliy iqtisodiyotga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlariga r-Pirson korrelyatsion bog‘liqligi ta’sirini o‘rganamiz. (2-jadval)

r-Pirson korrelyatsiya jadvali koeffitsientlari 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik jadval asosida hisoblanganda statistik ahamiyatli deb topilib, Mahalliy byudjetlari xarajatlari va mahalliy byudjet daromadlari o‘rtasida 0,7449 bo‘lsa byudjet transfertlari bilan 0,0803 va YaHM o‘rtasida esa 0,7102 korrelyatsion bog‘liqligi aniqladik.

Regressiya omillarini tanlashda ushbu omillar o‘zgarish bilan o‘zaro ichki aloqadorligi bo‘lmasligi zarur. Ya’ni tadqiqot qilinayotgan omillar o‘rtasida

<sup>82</sup> Ma’lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

multikorrellik ( $r_{yx_1} > r_{x_2x_1}, r_{yx_2} > r_{x_2x_1}$ ) muammosi mavjud bo'lmashligi zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillarni davom ettirgan holda ushbu ko'rsatkichlari asosida istiqbol davrga mo'ljallangan ilmiy prognozlarni shakllantirish maqsadida yillar mobaynida o'zgaruvchilarni regression tahlil qilishda "Eng kichik kvadratlar" usulidan foydalanamiz. (1-rasm)

Mazkur empirik tahlilda O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjet xarajatlari miqdoriga va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modeli natijalarini foizda ifodalash maqsadida «Logarifm» funksiyasida amalga oshiramiz.

| Source   | SS         | df | MS         | Number of obs | = | 63     |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model    | 12.204424  | 3  | 4.06814135 | F(3, 59)      | = | 86.06  |
| Residual | 2.78896519 | 59 | .047270596 | Prob > F      | = | 0.0000 |
| Total    | 14.9933892 | 62 | .241828859 | R-squared     | = | 0.8140 |
|          |            |    |            | Adj R-squared | = | 0.8045 |
|          |            |    |            | Root MSE      | = | .21742 |

| log_Exp    | Coef.    | Std. Err. | t    | P> t  | [95% Conf. Interval] |
|------------|----------|-----------|------|-------|----------------------|
| log_Rev    | .5568617 | .0851084  | 6.54 | 0.000 | .3865603 .7271632    |
| log_Bud_tr | .0161193 | .0031068  | 5.19 | 0.000 | .0099026 .022336     |
| log_GDP_r  | .2701701 | .0987327  | 2.74 | 0.008 | .0726064 .4677338    |
| _cons      | .6056433 | .5954877  | 1.02 | 0.313 | -.5859249 1.797211   |

### 3.1-rasm. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning yig'ma ekonometrik modeli (pooled model) natijalari (1-model)<sup>83</sup>

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdoriga va unga ta'sir etuvchi omillar yig'ma regression statistik tahlili asosida 1-model asosida regressiya tenglamasini tuzib olamiz.

$$\begin{aligned} \mathbf{Log(Exp_{it})} = & \mathbf{0,605} + \mathbf{0,55} * \mathbf{Log(Rev)_{it}} + \mathbf{0,016} * \mathbf{Log(Bud_{tr})_{it}} + \\ & + \mathbf{0,27} * \mathbf{Log(GDP_r)_{it}} + \mathbf{e_{it}} \quad (2) \end{aligned}$$

Ushbu regressiyadagi barcha omillar 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik ahamiyatli bo'lib, mahalliy byudjetlar daromadlarining bir foizga oshirish mahalliy

<sup>83</sup> Barro,R. (1990)," Government spending a simple model of endogenous growth," Journal of Political Economy, 98(5): 103-25,  
Barro,R. (1991), "Economic growth in a cross-section of countries," Quarterly Journal of Economics, 106: 407-44

byudjetlar xarajatlarning chegaraviy miqdorini 0,55 foizga oshishiga olib kelsa, byudjet transfertlari va YaHMni 1 foizga oshirish esa ushbu ko'rsatkichni mos ravishda 0,016 va 0,27 foizga oshishiga olib keladi degan xulosani shakllantirish imkonini beradi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarning chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning ma'lumotlari hududlar va yillar kesimida o'zgarish yuz berganligi sababli tahlillarni o'zgarimas effektlar va tasodifiy effektlar ekonometrik modelidan foydalanish zarur hisoblanadi.

| Fixed-effects (within) regression        |           | Number of obs                     | =     | 63                |                      |
|--|-----------|-----------------------------------|-------|-------------------|----------------------|
| Group variable: id                       |           | Number of groups                  | =     | 13                |                      |
| R-sq:                                    |           | Obs per group:                    |       |                   |                      |
| within                                   | = 0.8771  | min                               | =     | 2                 |                      |
| between                                  | = 0.6402  | avg                               | =     | 4.8               |                      |
| overall                                  | = 0.7129  | max                               | =     | 6                 |                      |
| corr(u_i, Xb) = -0.3380                  |           | F(3,47)                           | =     | 111.84            |                      |
|  |           | Prob > F                          | =     | 0.0000            |                      |
| log_Exp                                  | Coef.     | Std. Err.                         | t     | P> t              | [95% Conf. Interval] |
| log_Rev                                  | .3284869  | .0762399                          | 4.31  | 0.000             | .1751119 .4818618    |
| log_Bud_tr                               | .0015444  | .0029524                          | 0.52  | 0.603             | -.004395 .0074839    |
| log_GDP_r                                | .6422042  | .0906112                          | 7.09  | 0.000             | .459918 .8244905     |
| _cons                                    | -1.376593 | .5713476                          | -2.41 | 0.020             | -2.525996 -.2271904  |
| sigma_u                                  | .27676786 |                                   |       |                   |                      |
| sigma_e                                  | .11904552 |                                   |       |                   |                      |
| rho                                      | .84387486 | (fraction of variance due to u_i) |       |                   |                      |
| F test that all u_i=0: F(12, 47) = 12.48 |           |                                   |       | Prob > F = 0.0000 |                      |

### 3.2-rasm. Mahalliy byudjetlar xarajatlarning chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarimas effektlar (fixed effects model) ekonometrik modeli natijalari (2-model)<sup>84</sup>

Mahalliy byudjetlar xarajatlarning chegaraviy miqdoriga va unga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarimas effektlar (fixed effects model) regression statistik tahlili asosida 2-model asosida regressiya tenglamasini tuzib olamiz.

$$\begin{aligned} \text{Log}(Exp_{it}) = & -1,37 + 0,3284 * \text{Log}(Rev)_{it} + 0,0015 * \\ & \text{Log}(Bud_{tr})_{it} + +0,6422 * \text{Log}(GDP_r)_{it} + e_{it} \quad (2) \end{aligned}$$

<sup>84</sup> Barro,R. (1990)," Governmentspending a simplemodelofendogenousgrowth," Journal of PoliticalEconomy, 98(5): 103-25,

Barro,R. (1991), "Economicgrowthin a cross-section of countries," Quarterly Journal of Economics, 106: 407-44

Ushbu regressiyadagi 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik ahamiyatli bo'lganlari bo'yicha xulosa qilsak, mahalliy byudjetlar daromadlarining bir foizga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini 0,32 foizga oshishiga olib kelsa, YaHMning 1 foizga oshirish esa ushbu ko'rsatkichni 0,64 foizga oshishiga olib keladi degan xulosani shakllantirish imkonini beradi.

Yuqorida amalga oshirilgan o'zgarmas effektlar modeli xulosasida F-test gipotezasini tekshirish imkonini beradi.

Ya'ni bu yerdagi F-test gipotezasi quyidagidan iborat bo'ladi:

$H_0$ : kuzatuv o'tkazilayotgan ma'lumotlar hududlar kesimida o'zaro farq yo'q.

$H_1$ : kuzatuv o'tkazilayotgan ma'lumotlar hududlar kesimida o'zaro farq bor.

Yuqorida amalga oshirilgan o'zgarmas effektlar modeli xulosasida F-test gipotezasiga ko'ra  $H_0$  ni inkor etib, (rho:0,84) 84 foiz holatda mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorining o'zgarishiga hududlar o'rtasida o'zaro ta'sir bilan izohlash mumkin degan xulosaga kelinadi. Ya'ni ushbu xulosaga ko'ra, yig'ma model (pooled model) natijalari o'rinli emas degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqotlarni davom ettirgan holda tasodifiy effektlar (random effects) ekonometrik modelini tuzib olamiz.

| Random-effects GLS regression |           | Number of obs                     | =     | 63     |                      |          |
|-------------------------------|-----------|-----------------------------------|-------|--------|----------------------|----------|
| Group variable: id            |           | Number of groups                  | =     | 13     |                      |          |
| R-sq:                         |           | Obs per group:                    |       |        |                      |          |
| within                        | = 0.8652  |                                   | min   | =      | 2                    |          |
| between                       | = 0.7392  |                                   | avg   | =      | 4.8                  |          |
| overall                       | = 0.7652  |                                   | max   | =      | 6                    |          |
| corr(u_i, X) = 0 (assumed)    |           | Wald chi2(3)                      | =     | 306.90 |                      |          |
|                               |           | Prob > chi2                       | =     | 0.0000 |                      |          |
| log_Exp                       | Coef.     | Std. Err.                         | z     | P> z   | [95% Conf. Interval] |          |
| log_Rev                       | .3869852  | .0782723                          | 4.94  | 0.000  | .2335744             | .5403961 |
| log_Bud_tr                    | .0069702  | .0029054                          | 2.40  | 0.016  | .0012758             | .0126647 |
| log_GDPr                      | .5330306  | .0934815                          | 5.70  | 0.000  | .3498102             | .716251  |
| _cons                         | -.7474616 | .5845725                          | -1.28 | 0.201  | -1.893203            | .3982794 |
| sigma_u                       | .15171257 |                                   |       |        |                      |          |
| sigma_e                       | .11904552 |                                   |       |        |                      |          |
| rho                           | .61891929 | (fraction of variance due to u_i) |       |        |                      |          |



**3.3-rasm. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning tasodifiy effektlar (random effects model) ekonometrik modeli natijalari <sup>85</sup>**  
**(3-model)**

Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdoriga va unga ta'sir etuvchi omillarning tasodifiy effektlar (random effects model) regression statistik tahlili asosida 3-model asosida regressiya tenglamasini tuzib olamiz.

$$\begin{aligned} \mathit{Log}(Exp_{it}) = & -0,74 + 0,3869 * \mathit{Log}(Rev)_{it} + 0,0069 * \\ & \mathit{Log}(Bud_{tr})_{it} + +0,5330 * \mathit{Log}(GDP_r)_{it} + e_{it} \quad (2) \end{aligned}$$

Ushbu regressiyadagi barcha omillar 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik ahamiyatli bo'lib, mahalliy byudjetlar daromadlarining bir foizga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini 0,38 foizga oshishiga olib kelsa, byudjet transfertlari va YaHMning 1 foizga oshirish esa ushbu ko'rsatkichni mos ravishda 0,006 va 0,53 foizga oshishiga olib keladi degan xulosani shakllantirish imkonini beradi.

Hisoblangan yig'ma, o'zgarmas tasodifiy effektlar modellarning ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, farq juda katta emasligini kuzatish mumkin. Mazkur modellardan qaysi biri yaxshiroq ekanligini aniqlash uchun xorijlik iqtisodchi olim J. Xausman testidan foydalangan holda hisob-kitoblar amalga oshirildi. Xausman testiga ko'ra, agar regressor ( mustaqil o'zgaruvchi) va qoldiqlar o'rtasida korrelyatsiya mavjud bo'lmasa, o'zgarmas va tasodifiy effektlar mavjud bo'lib, ammo o'zgarmas effektlar samarasiz hisoblanadi. Regressor va qoldiqlar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lmasa, o'zgarmas effektlar mavjud, lekin tasodifiy ta'sir mavjud emas, deb qaraladi. Agar chizma ahamiyatli bo'lsa, ehtimolligi 5 foizdan kam bo'lsa, o'zgarmas effektlar modeli yaxshiroq model hisoblanadi. Agar mazkur ehtimollik ko'rsatkichi 5 foizdan katta bo'lsa, tasodifiy effektlar modeli yaxshiroq deb qaraladi. Xausman testi natijalari tasodifiy effektlar modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatmoqda. Tasodifiy effektlar modeli yaxshiroq ekanligi R-qiyamat ehtimolligi ko'rsatkichiga ko'ra

---

<sup>85</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

nolinchi gipoteza va muqobil gipoteza farazidan foydalanib aniqlandi. Unga ko'ra nolinchi gipoteza sifatida tasodifiy ta'sir modeli qabul qilinib, uning muqobil varianti, o'zgarmas ta'sir modeli rad etildi. Tadqiqotimizdagi Xausman testi ( $x^2$ ) ni statistik muhimlik darajasi 5 foizdan kichik bo'lgani va R-qiymat 0.0000 ga tengligi o'zgarmas effektlar modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatadi. Mazkur testdan keyingi qoldiqlar (residuals) o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik testini o'tkazamiz. Ushbu testning natijasini 4-rasmdan ko'rishimiz mumkin.

|            | —— Coefficients —— |          |                     |                             |
|------------|--------------------|----------|---------------------|-----------------------------|
|            | (b)<br>f           | (B)<br>r | (b-B)<br>Difference | sqrt(diag(V_b-V_B))<br>S.E. |
| log_GDPPr  | .6422042           | .5330306 | .1091737            | .                           |
| log_Rev    | .3284869           | .3869852 | -.0584984           | .                           |
| log_Bud_tr | .0015444           | .0069702 | -.0054258           | .0005248                    |

b = consistent under Ho and Ha; obtained from xtreg  
 B = inconsistent under Ha, efficient under Ho; obtained from xtreg

Test: Ho: difference in coefficients not systematic

chi2(3) = (b-B)' [(V\_b-V\_B)^(-1)] (b-B)  
 = 40.69  
 Prob>chi2 = 0.0000  
 (V\_b-V\_B is not positive definite)

### **3.4-rasm. Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarmas effektlar (fixed effects model) va tasodifiy effektlar (random effects model) tanlash uchun J. Xausman testi natijalari<sup>86</sup>**

O'zgarmas effektlar modelidagi qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik testi qoldiqlar o'rtasida korelyatsiya mavjudligini tekshiramiz.

|  |          |
|--|----------|
| H0: $\sigma(i)^2 = \sigma^2$ for all i |          |
| chi2 (13)                              | = 32.38  |
| Prob>chi2                              | = 0.0021 |

<sup>86</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

### 3.5-rasm. O'zgarma effektlar modelidagi qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik testi qoldiqlar o'rtasida korelyatsiya mavjudligini tekshish Vald testi natijalar<sup>87</sup>

O'zgarma effektlar modelidagi qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik testi qoldiqlar o'rtasida korelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Chunki nolinchii gipotezani o'tkazganimizda P-qiymati 5 foizdan kichik bo'lib, unga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjud emasligi inkor etilib, muqobil gipotezaga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjudligi qabul qilinadi.

Modelning ishonchliligini tekshirish natijasida, mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarma effektlar o'sib borishiga ta'sir qiluvchi koeffitsientlar ta'siri yuqori ekanligidan dalolat beradi.

### 3.3-jadval Mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning yig'ma, tasodifiy va o'zgarma effektlar ekonometrik modellari natijalari<sup>88</sup>

|                | Yig'ma Model | O'zgarma effektlar modeli | Tasodifiy effektlar modeli |
|----------------|--------------|---------------------------|----------------------------|
|                | log_Exp      | log_Exp                   | log_Exp                    |
| log_Rev        | 0.557***     | 0.328***                  | 0.387***                   |
|                | (6.54)       | (4.31)                    | (4.94)                     |
| log_Bud_tr     | 0.0161***    | 0.00154                   | 0.00697*                   |
|                | (5.19)       | (0.52)                    | (2.40)                     |
| log_GDPr       | 0.270**      | 0.642***                  | 0.533***                   |
|                | (2.74)       | (7.09)                    | (5.70)                     |
| _cons          | 0.606        | -1.377*                   | -0.747                     |
|                | (1.02)       | (-2.41)                   | (-1.28)                    |
| N              | 63           | 63                        | 63                         |
| R <sup>2</sup> | 0.814        | 0.877                     | 0.765                      |


Qavslar ichidagi ko'rsatkichlar standart xatolik P-qiymatdagi, \*  $p < 0.05$ , \*\*  $p < 0.01$ , \*\*\*  $p < 0.001$

Xulosa qilib aytish mumkinki, panel ma'lumotlari asosida uchta model orqali tahlil qilinganda o'zgarma effektlar modeli eng maqbuli hisoblanadi. Mazkur

<sup>87</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

<sup>88</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi ishlanmasi

modelning mustahkamligini aniqlash testi, ya'ni qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik mavjud emasligi modelning prognoz qilish imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi. Demak, o'zgarmas effektlar modeli asosida mahalliy byudjet chegaraviy miqdorlarini o'rta muddatga prognoz qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



**3.6-rasm. Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining 2023 yil va kelgusi ikki yil uchun talab etiladigan dastlabki miqdorlari prognoz ko'rsatkichlari (mln.so'mda)<sup>89</sup>.**

Amalga oshirilgan ekonometrik tahlil natijasida mahalliy byudjetlarning daromadlar va xarajatlarning chegaraviy miqdorini o'zgarmas effektlar modeli asosida 2023-2025- yillarga prognoz ko'rsatkichlarini amalga oshirdik. Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetining o'rta muddatli prognozida xarajatlar miqdori daromadlardan deyarli ikki barobar ortiqligi va keyingi ikki yilda bu farq 2,2 va 2,25 barobarga ortishi mumkinligini anglatadi. Xulosa sifatida, Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetlarining daromadlari va xajatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni o'rta muddatli istiqbolda aniq prognoz qilish va uni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish zaruriyatini anglatadi. Ya'ni, biz tanlagan o'zgarmas effektlar modeli asosidagi regressiyadagi 5 foizlik ahamiyat darajasidagi statistik ahamiyatli bo'lganlari bo'yicha xulosa qilsak, mahalliy byudjetlar

<sup>89</sup> Ma'lumotlar asosida tadqiqotchi tomonidan tuzildi

daromadlarini bir foizga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlarining chegaraviy miqdorini 0,32 foizga oshishiga olib kelsa, YaHMning 1 foizga oshirish esa ushbu ko'rsatkichni 0,64 foizga oshishiga olib degan xulosani shakllantirish imkonini berishni anglatadi. Surxondaryo viloyati mahalliy byudjetlarining daromadlari va xajatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirishda tabiiyki YaHM va daromadlar miqdorining ortishi xarajat miqdorining ortishiga olib kelsada, hisob-kitoblarga ko'ra ularning har 10 foizga ortishi mos ravishda xarajat o'rtasidagi kamomadni 6,8 foizga va 2,6 foizga kamaytirishga xizmat qiladi.

### **3.2. Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishni ustuvor jihatlari**

Aholi ijtimoiy barqarorligini qanchalik yuqori darajada ekanligini ko'rish bu mahalliy byudjetlarini o'zini o'zi boshqarish jihatidan bog'liq hisoblanadi. Moliyaviy menejmentning eng muhim funksiyalaridan biri moliyaviy rejalashtirishdir. Mahalliy byudjetni rejalashtirish va tayyorlash mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi va mas'ul organlar tomonidan belgilangan ustuvorliklar asosida mahalliy byudjetning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari tahliliy xulosalari yig'iladi. Mahalliy byudjetni bevosita tasdiqlash, mahalliy o'z-o'zini boshqarish vakillik organi tomonidan amalga oshiriladi va xalq mafaatlari ifodalaydi.

Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli davr uchun tuzish zaruriyati bilan bog'liq, normativ akt bilan tasdiqlangan rejalar shaklida taqdim etilgan o'rta muddatli davr uchun moliyaviy faoliyat ma'lum mezonlar bo'yicha guruhlangan xarajatlar va daromadlarni inventarizatsiya qilish subyektlari sanaladi.

Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishni amalga oshirilishi kerak bo'lgan yagona metodologiya bu ijtimoiy normalarni qo'llashdir.

Mahalliy byudjetlar o'rta muddatli rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash ijro etish, mahalliy byudjetlar byudjetiga muvofiq amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishdagi muammolar:

- Byudjetlararo transfer munosabatlarning muvozanatini ta'minlash;
- O'rta muddatli rejalashtirish tizimini takomillashtirish va tartibga solish;

- Byudjet jarayonidagi resurslar iqtisodiy va moliyaviy tizimini maqsadli mustahkamlash va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha uslubiy yondashuvlar, usullar va usullarni ishlab chiqish;

- Byudjetni shakllantirish va byudjet mablag'larini taqsimlash;

Byudjet tizimi va byujet jarayoni bu- byudjet tizimini isloh qilish, to'plaganlarni tushunishni talab qiladi, tajriba, evolyutsion jarayonlarni aniqlaydi va o'rganadi va umumlashtirib, ularni amaliyotga tadbiq etish tamoyillari va usullarini ishlab chiqadi.

Byudjet daromadlarining asosiy manbasi sifatida birinchi navbatda soliq tizimini takomillashtirishdir. Ya'ni:

- Soliq yig'ilishining ko'payishini ta'minlash;
- Muddati o'tgan qarzlarning muddatini qisqartirish;
- Moliyaviy nazoratni kuchaytirishdan iboratdir.

Aholi ijtimoiy barqarorligini qanchalik yuqori darajada ekanligini ko'rish bu - mahalliy byudjetlarini o'zini o'zi boshqarish jihatidan bog'liq hisoblanadi. Mahalliy byudjetni rejalashtirish va tayyorlash mahalliy hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi va mas'ul organlar tomonidan belgilangan ustuvorliklar asosida mahalliy byudjetning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari tahliliy xulosalari yig'iladi.

- Mahalliy byudjetni bevosita tasdiqlash, mahalliy kengashlar tomonidan amalga oshiriladi va xalq manfaatlarini ifodalaydi.

### **Mahalliy budjetni o'rta muddatli rejalashtirish tizimining vositalari**

#### **Vositalar**

|   |                                       |                                     |                                       |                           |
|---|---------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------|
| 1 | Budjet va soliq salohiyatini aniqlash | Budjet daromadlarini rejalashtirish | Ijtimoiy moliyaviy standartlar tizimi | Minimal darajadagi budjet |
|---|---------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------|

#### **Investitsion jozibadorlik**

|   |                                    |  |  |  |
|---|------------------------------------|--|--|--|
| 2 | Istiqbolli budjetni rejalashtirish |  |  |  |
|---|------------------------------------|--|--|--|


#### **Uslub**

|   |   |  |  |  |
|---|---|--|--|--|
| 3 | O'rta va uzoq muddatli konsolidatsiyalashgan moliyaviy rejalashtirish dasturi |  |  |  |
|---|---|--|--|--|

### 3.7-rasm Mahalliy byudjetni o`rta muddatli rejalashtirish tizimining vositalari<sup>90</sup>

- Mahalliy byudjetlarni o`rta muddatli davr uchun tuzish zaruriyati bilan bog`liq, normativ akt bilan tasdiqlangan rejalar shaklida taqdim etilgan o`rta muddatli davr uchun mezonlar bo`yicha guruhlangan xarajat va daromadlarni inventarizatsiya qilishni taqozo etadi.

- Ilmiy izlanishlar ko`rsatishicha, mahalliy byudjetni o`rta muddatli rejalashtirishdagi mavjud muammolar 5-rasmda keltirilgan.



### 3.7-rasm Mahalliy byudjetlarni o`rta muddatli rejalashtirishdagi muammolar<sup>91</sup>

- Byudjet tizimi va byudjet jarayoni byudjet tizimini isloh qilish, to`plaganlarni tushunishni talab qiladi, tajriba, evolyusion jarayonlarni aniqlaydi, o`rganadi va umumlashtirib, ularni amaliyotga tatbiq etish tamoyillari va usullarini ishlab chiqadi.

<sup>90</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>91</sup> Muallif ishlanmasi

- Byudjet tizimini umumlashtirish asosida mavjud yoki yangi usullar, uslublar, yondashuvlar, tamoyillarni ishlab chiqish, mantiqiy va matematik bog‘liqliklar, modellar, algoritmlar va ularning yordami bilan byudjet tizimining optimal tuzilmasini va o‘rtasidagi munosabatlarni asoslash uning elementlarini optimallashtirishning nazariy qoidalarini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

- Nazorat va samarali tizim joriy etilishi ishlashiga qarab to‘lash, sarf-xarajatlar muammolarini hal qilish uchun byudjet mablag‘lari shaxsiy javobgarlikni joriy etish mumkin, shuningdek, shakllantirish uchun byudjet tizimini barcha darajadagi boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari byudjetlar, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishidir.

Byudjet balansiga ta’sir etuvchi omillar: soliq to‘lovchilardan soliq undirish samaradorligini pasaytirish xarajatlari, emissiya va emissiyasiz manbalarni kengaytirish, byudjet taqchilligini moliyalashtirish, soliqqa oid bo‘lmagan daromad turlari ulushini oshirish, tashqi va ichki qarzlarni qisqartirishdir.

Byudjet tizimini umumlashtirish asosida mavjud yoki yangi usullar, uslublar, yondashuvlar, tamoyillarni ishlab chiqish, mantiqiy va matematik bog‘liqliklar, modellar, algoritmlar va ularning yordami bilan byudjet tizimining optimal tuzilmasini va o‘rtasidagi munosabatlarni asoslash uning elementlarini optimallashtirishning nazariy qoidalarini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

Nazorat va samarali tizim bu -joriy etilishi ishlashiga qarab to‘lash, sarf – xarajatlar muammolarini hal qilish uchun byudjet mablag‘lari shaxsiy javobgarlikni joriy etish mumkin, shuningdek, shakllantirish uchun byudjet tizimini barcha darajadagi boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari byudjetlar, byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishidir.

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetni amalga oshirish uchun mahalliy hokimiyat organlari o‘zini-o‘zi boshqarish o‘z maqsad va vazifalarini aniq bilishi kerak. Dastur va maqsad usulini joriy etish ham birdek muhim mintaqaviy va mahalliy darajada rejalashtirish, ammo bir qator maqsadli dasturlarni boshqarishni qiyinlashtiradigan muammolar va shunga ko‘ra dasturiy maqsadli byudjetlarning bajarilishiga to‘sqinlik qiladi.



Ushbu muammolarni hal qilish uchun bizga quyidagilar kerak bo‘ladi:

- maqsadli dasturlardan kutilayotgan natijadorlikning aniq baholash mezonlari va asosiy ko‘rsatkichlari shakllangan bo‘lishi kerak;

- maqsadli dasturlar amalga oshirishga qaratilgan jarayonni osonlashtiradigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda aniq maqsadlar ularning bajarilishini nazorat qilish kerak;

- mahalliy hokimiyat maqsadli dasturlar shu tadbirlarni o‘z ichiga olishi kerak;

- maqsadli dasturda, hajm ko‘rsatkichlari va shahar muassasalari faoliyatning barcha turlari uchun sifat maqsadli dasturlarda aks ettirilgan.


Mahalliy byudjetni samaradorligini oshirishning ilg‘or yo‘nalishi mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish istiqbolli moliyaviy reja hisoblanadi.

Strategik hujjatlar va maqsadli dasturlar byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish hisobiga olingan holda amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun asosiy funktsiya mavjud vaziyat, o‘tmish va rivojlanish istiqbollari tahliliga ega bo‘lishi kerak.

Mahalliy byudjetlarni o‘rta muddatli rejalashtirishni takomillashtirish maqsadiga quyidagilar kiradi:

- uzoq muddatli dasturlar doirasida byudjet strategiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash har bir mahalliy byudjet uchun moliyaviy resurslarni yaratadi;

- “elektron byudjet” axborot tizimining rivojlanishini ta’minlash bu esa bevosita moliya organlari ochiqligini oshiradi. Mahalliy hokimiyat boshqaruvini soddalashtirish xarajatlarni kamaytirish, mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan foydalanishni nazorat qilish.



### **3.8-rasm. Mahalliy byudjetlarni o'rtamuddatli rejalashtirishni takomillashtirishning konseptual asoslari<sup>92</sup>**

Tadqiqot ishimizda hozirgi kunda byudjetlarni, jumladan, mahalliy byudjetlarni o'rtamuddatga rejalashtirish jarayonidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga va mavjud mexanizmlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi

<sup>92</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

“Mahalliy byudjetlarni o‘rta muddatli rejalashtirishning tashkiliy, amaliy va muvofiqlashtiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan takomillashtirilgan konseptual asoslari” ishlab chiqildi. Ushbu konseptual asos uchta o‘zaro bog‘lanuvchi va to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lib, fikrimizga, ularga amal qilish mahalliy byudjetlarni o‘rta muddatga to‘g‘ri rejalashtirishga hamda respublika byudjetini o‘rta muddatli rejalashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi, o‘z navbatida respublika byudjetini o‘rta muddatli rejalashtirish jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi.

Byudjetni o‘rta muddatli istiqbolini belgilashning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Byudjet xarajatlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. U yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aynan o‘rtacha muddatli davrda davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va keng amalga oshirish yo‘li bilan yechish mumkin.

Aniq maqsadlarga erishish uchun tuzilgan har qanday dastur byudjetni moliyalashtirish dasturiga aylanadi. Bunday dasturlar tuzilganida byudjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish va moliyalashtirish natijalarining nomuayyanligi muammolari o‘z-o‘zidan qoladi;

- Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjet mablag‘larini tasarruf etish borasidagi mustaqilligini oshirish va ishning o‘lchash mumkin bo‘lgan aniq natijalari uchun ularning javobgarligini kuchaytirish imkoniyatini beradi. Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish joriy etilishi bilan byudjet jarayoni o‘rta muddatli makroiqtisodiy doiraga tushiriladiki, bu vazirliklar va idoralarning rahbarlari, byudjet mablag‘larini oluvchilarni o‘z siyosatining ustuvor vazifalarini yanada aniqroq ta’riflashga va bu vazifalar bir-biriga zid bo‘lmasligi haqida qayg‘urishga majbur yetadi;

- Byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirishning bir yillik ko‘rsatkichlaridan byudjetni rejalashtirish jarayonini kelgusi yillar davom ettirish uchun foydalaniladi.

Bundan maqsad – byudjetning barqarorligi va vorisiyligini ta'minlash, uning ochiqligi va asoslanganlik darajasini oshirish;

- Byudjetdan mablag' ajratish asosli ravishda, davlat siyosatining ustuvor vazifalariga, ishlab chiqilgan byudjet dasturlariga muvofiq, ularning unumdorlik darajasiga baho berish asosida belgilanishi ta'minlanadi;

- Byudjet ko'rsatkichlarini tasniflash yagona tizimidan foydalanish prinsiplarini, ularni davlat boshqaruvining barcha darajalarida hisob-kitob qilish va hisobot berish metodologiyasini belgilanadi. Bu byudjetning ochiq va oshkoraligini sezilarli darajada oshiradi, fiskal intizomni ta'minlash mexanizmlarini belgilaydi, davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy organlari o'rtasida byudjet mustaqilligini nazarda tutadi, ichki va tashqi audit, davlat moliyaviy nazoratining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'rta muddatli strategiyasi– iqtisodiyotni rivojlantirish maqsad va mo'ljallari hamda ularga erishishning davlat tomonidan rejalashtirilayotgan samarali yo'llari va vositalarining kompleks tizimidir.

- Makro iqtisodiy vaziyatning miqdor ko'rsatkichlari va sifat tavsifini, o'tgan davrlarda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari rivojlanishining yakuniy natijalarini;

- makroiqtisodiy, tarkibiy va ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini;

- mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognozlarini, shu jumladan, makro iqtisodiy prognozlarni;

- iqtisodiyotdagi ijobiy tarkibi o'zgarishlar, ilmiy-texnika salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishi, ishlab chiqarish va iste'mol dinamikasi, turmush darajasi va sifatining o'sishi, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, sanitariya va aholini ijtimoiy ta'minlashning prognoz baholarini;

- iqtisodiyot tarmoqlari, sektorlari va sohalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va mo'ljallarini;

- ustuvor vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari va mexanizmlari majmuini.

Makroiqtisodiy prognozlarni o'rtacha muddatli byudjet jarayoniga samarali tatbiq etish uchun uch darajada bir qator institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir;

Ma'lumki, rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakatimizda davlat byudjet xarajatlarini rejalashtirishning zamonaviy vositalari va ilg'or usullarini qo'llashga alohida urg'u berilmoqdaki, bu o'z navbatida kelajakda davlat byudjetining maqsadli va natijaga asoslangan holda amal qilishini ta'minlaydi.

Byudjet tizimi murakkab mexanizm bo'lib, muayyan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarining butun majmui asosida shakllanadi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining shakllanishi va rivojlanishida tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichida davlat tomonidan tartibga solish muhim rol o'ynaydi. Davlat o'z funktsiya vazifalarini bajarishiga, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishiga imkon beradigan qurol va dastaklardan biri – davlat byudjetidir.

Iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida mamlakat moliya tizimi va uning barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, korxonalar va uy xo'jaligi moliyasining umumiy tavsifi sifatida yuqori natijalarga erishish, pul mablag'laridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish bosh mezon sifatida e'tirof etiladi. Albatta, har bir mamlakatning byudjet tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, demografik va turli xildagi maqsadlardan kelib chiqib rejalashtiriladi va ijrosi ta'minlanadi. Bu borada moliyaviy siyosatning muhim jihatidan biri davlat byudjeti loyihasini ishlab chiqish va tashkillashtirish, moliyaviy resurslarning aniq manzilli bo'lishi asosida rejaning bajarilish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Rejalashtirish va uning ijrosini ta'minlash borasidagi murakkab hamda bir moliyaviy yilga mo'ljallangan byudjet loyihasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilab beruvchi bo'g'in hisoblanadi. So'nggi vaqtlarda yuz berayotgan, ayniqsa, pandemiya sharoitida jahon miqyosida moliya tizimidagi nomutanosibliklarning turli nisbatlari iqtisodiyotning real sohalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib boshlagan sharoitda.

Albatta, har bir davrda yuzaga kelgan vaziyat o'zining kelib chiqish sabablari va yuzaga keltirgan oqibatlarini bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar byudjet loyihasini ishlab chiqish va uning ijrosini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini tezkor amalga oshirishni takomillashtirish maqsadida rejalashtirilgan byudjet jarayonidan o'rta muddatli rejalashtirish tizimini joriy etish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Davlat byudjeti xarajatlarining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai nazaridan baholashni dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholash, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklanish maqsadga myvofiq emas. Bunda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qanday darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'jalikning yakuniy natijasi byudjet xarajatlarining umumiy hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, byudjet mablag'laridan to'g'ri, tejimli va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham, hozirgi sharoitda byudjet xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga, byudjet assignovaniyalaridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning butun tizimiga alohida e'tibor berish lozim.

Albatta, davlat byudjeti bilan bog'langan har qanday islohotlar tizimi puxta, keng o'ylangan va aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda bo'lishi kerak. Mazkur davlat byudjeti islohotlarining markaziy o'rnida byudjet loyihasini rejalashtirish eng asosiy, kerak bo'lsa, butun mamlakat taqdirini hal qiluvchi (ayniqsa, o'tish davriga xos mamlakatlar uchun) kuch bo'ladi. Byudjetni rejalashtirishning asosiy obyektiga yo'naltirishning eng muhim richag bu unga sarflanayotgan xarajat hisoblanadi. Shu boisdan, amalga oshirilayotgan xarajatlarni ma'lum majburiyatlarini mustahkamlash (yoki yuklatish) evaziga ham tayanish mumkin.

Mamlakatimizda byudjet tizimini o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirishga o'tkazish bo'yicha ishlar ancha oldin boshlangan va bugungi kunda yanada avj olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda. Byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish haqida gap borganda ko'p hollarda asosan ikkita masalaga ya'ni, byudjetning

daromadlar qismini ta'minlab beradigan iqtisodiy o'sish va uning barqaror bo'lishi hamda xarajatlarning natijador bo'lishi haqida fikrlar bildiriladi. Byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirishni zaruratga aylantiradigan xarajatlarning natijador bo'lishiga e'tibor qaratamiz. Chunki byudjetni o'rta va uzoq muddatga tuzilishi zaruriyati, avvalo, davlat oldiga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifasini uzoq muddatli jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Huddi uzoq va o'rta muddatli rejalashtirish kabi natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish yoki dasturiy-maqсадli moliyalashtirishga o'tish ham ko'p yillardan beri mamlakatimiz byudjet tizimi kun tartibidagi masaladir. Bunda alohida e'tibor beriladigan masala shundan iboratki, natijaga yo'naltirilgan byudjelashtirishga o'tish uchun byudjetni o'rta va uzoq muddatli rejalashtirish mexanizmlari bo'lishi kerakligi ta'kidlanib kelinadi.

Bu o'rinda fikrimizcha, agarda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish (dasturiy-maqсадli moliyalashtirish) tizimi yoki uning elementlari bo'lmasa, byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirishning mantiqiy asoslari yo'qoladi. Ya'ni, byudjetni o'rta va uzoq muddatga rejalashtirish aynan natijalarga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralardan biridir.

Zamonaviy sharoitlarda davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish, tez o'zgaruvchan bozor muhiti sharoitida o'rta muddatli byudjetni taxminlashtirish, davlat moliyasini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'rta muddatli ustuvor yo'nalishlarini realizatsiya qilishdagi imkoniyatlarini baholash maqsadida O'zbekistonda o'rta muddatli fiskal siyosatni amalga oshirish uslubiyotiga asoslangan davlat moliyasini boshqarish tizimi joriy qilindi. Ushbu tizim sharoitida davlat byudjeti daromadlarining kelgusi yiliga prognozi va navbatdagi 2 yili uchun taxmin ko'rsatkichlari aniqlanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni<sup>93</sup>asosida amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar davlat moliyasi

---

<sup>93</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi // "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"dagi PF-4947

tizimini takomillashtirish bo'yicha ham keng islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Ma'lumki, o'rta muddatli davlat byudjeti daromad va xarajatlari rejasini o'zida namoyon qiluvchi o'rta muddatli fiskal siyosat davlat moliyasining istiqboldagi iqtisodiy taraqqiyotni o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlariga uyg'unlashgan ravishda shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Xususan, O'zbekistonda davlat byudjetini o'rta muddatli rejalashtirish: o'rta istiqbolga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining kompleks dasturlarini realizatsiya qilish amaliyotining joriy etilganligi, ushbu dasturlarni ichki va tashqi qarz mablag'larini jalb qilish bo'yicha davlat qarz siyosatini yuritilayotganligiga ham bog'liq bo'lmoqda.

Bundan tashqari Harakatlar strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida byudjet daromadlari va xarajatlarining xalq uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash, shuningdek, davlat moliyasini boshqarishda o'rta muddatli modelga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilganini ta'kidladi.

Mamlakatimizda amaldagi tartiblarga muvofiq, davlat byudjeti indeksatsiyalarni qo'llash metodi bilan bir yillik asosda tuziladi. Chunki byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va byudjet tashkilotlari o'zlarining istiqbollarni rejalashtirilgan yildan uzoqroq davrga prognozlashtira olmaydi. Buning asosiy sababi esa kelajakdagi makroiqtisodiy o'zgarishlarni va ularning fiskal ko'rsatkichlarga ta'sirini oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligidir.

Mamlakatlarning maqsadlari turli xil bo'lsada, bugungi kunda uning eng zarurlari Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan jamlanib "barqaror rivojlanish maqsadlari" nomi ostida targ'ib etib kelinmoqda. Ushbu maqsadlar 17 tani tashkil etib, maqsadlar tarkibida 169 vazifa va ularni bajarilishini monitoring qilish va baholash uchun foydalaniladigan 244 ta indikatorlardan iborat<sup>94</sup>. O'zbekistonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jumladan, barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha tashabbuslar ham doimo

---

<sup>94</sup>Birlashgan millatlar tashkiloti internet sayti (unstats.un.org) ma'lumotlari



qo'llab-quvvatlanib kelingan. Xususan, mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni belgilash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 20- oktabrdagi 841-sonli "2030- yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, mamlakatimizda milliy barqaror rivojlanish maqsadlari belgilab olinada va ular umumiy soni 16 tani tashkil etadi hamda ularga erishish uchun 124 ta vazifalar tanlab olingan.

Shuningdek, keyinchalik ushbu vazifalarni bajarilishini monitoring qilish uchun ishchi guruhi tomonidan 206 ta indikatorlar shakllantirildi.

Aynan ushbu indikatorlardan mamlakatimiz byudjet tizimida o'rta va uzoq muddatlarda natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishda foydalanilishi mumkin. Buning uchun dastlabki qadamlar qo'yildi deyishimiz mumkin. Jumladan, mamlakatimizda aynan 2019- yil uchun tasdiqlangan davlat byudjeti bo'yicha davlat byudjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bog'liqligi tahlili amalga oshirildi va u 71,5 foizni tashkil etmoqda . Bu esa natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tishda barqaror rivojlanish maqsadlaridan foydalanish mumkinligini kamida 71,5 foizga isbotlamoqda.

O'rta muddatli rejalashtirish amaliyoti kategoriyasining uslubiy, tashkiliy va huquqiy jihatlarini aniq tushunish, ushbu asosda byudjetga doir munosabatlar majmui izchil faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning ta'sirchan vositasini yaratish, mamlakatda mavjud byudjet jarayonini o'rta muddatli byudjetlashtirish prinsiplariga asoslanadigan zamonaviy byudjet jarayoniga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish zarur.

Buning uchun bir qancha uslubiy yondashuvlar, muddatlar, amaldagi qonunchilik qoidalarini qayta ko'rish, shuningdek, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish va mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish izchil joriy etish talab qilinadi. Shu bilan bir vaqtda, o'rta muddatli rejalashtirish imkoniyatlari

ancha uzoq muddatlarda va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligi hamda izchilligi sharoitlarida ro'yobga chiqarilishi mumkin.

Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotini samarali joriy etishning asosiy shartlari quyidagilardir:

1) o'rta muddatli rejalashtirish amaliyotini ijtimoiy xarajatlarni boshqarish sohasida belgilangan muddatlar bilan, shu jumladan, yillik byudjet siklida sinxronlashtirish zaruriyati, zero o'rta muddatli rejalashtirining asosiy maqsadi - siyosat va ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun yanada mustahkamroq zamin yaratish. Bunga —sirpanuvchi uch yillik jarayonini joriy etish yo'li bilan erishish mumkin bo'ladi. Bunda bir siklning 2 va 3 yillari keyingi siklning 1 va 2 yillari boshiga aylanadi. O'rta muddatli byudjetlashtirish bunga ikki sikl o'rtasida izchil aloqa mavjud bo'lgan holdagina erishishi mumkin. Ayrim holatlar yuz berishi rejalarda og'ishlarga sabab bo'lishi va 2-3 yil rejalariga o'zgartirishlar kiritishni talab etishi mumkin, lekin buning uchun sabablar aniq va ravshan bo'lishi kerak. Ayni shu sababli o'rta muddatli rejalashtirishni tayyorlashda 2 va 3 rejalar uchun aniq rejalarini belgilash va yillar o'rtasidagi aloqalarni aniqroq tushuntirish lozim. Bu mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ustuvor vazifalarining uzoq muddatli mufassal tahlili sifatli tayyorlanishiga bog'liq bo'ladi va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning mablag'lar bo'yicha qulay yo'nalishini tanlashni belgilaydi.

2) Daromadlar olish yoki xarajatlarni amalga oshirish prognozidan og'ish riskini boshqarish taomillarini belgilash. Prognozlar va xarajatlar limitlari mumkin qadar realistlik bo'lishi uchun o'ta optimizmdan ham, pessimizmdan ham uzoq yurish kerak. Buning uchun tayyorlangan xarajatlar rejalarida og'ishlarga o'z vaqtidan chora ko'rishning ishonchli choralari ega bo'lish lozim.

3) Bir sikldan boshqa siklga o'tishda xarajatlar limitlari mumkin qadar barqaror bo'lishi kerak va bu limitlar darajasining moliyaviy doirada qat'iy belgilangan siyosat va ustuvor vazifalar bilan izchil aloqasi mavjud bo'lishi lozim. Xarajatlar limitlarida og'ishlarning ko'pligi xarajatlarni rejalashtirish va byudjetni ijro etish qoniqarsiz bo'lishiga olib keladi. Bir sikldan boshqa siklga o'tishda o'zgarishlar minimal bo'lishi va tashqi omillardagi o'zgarishlarni va konkret siyosiy

o'zgarishlarni aks ettirishi lozim. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

- o'rta muddatli rejalashtirish siklining dastlabki bosqichida xarajatlarning real va barqaror limitlarini ko'p yillik byudjetlar loyihalarining o'ta aniq modellari asosida belgilash;

- prognozlashtirilgan daromadlardan og'ishlar yuz berganida harakatlarning aniq va tushunarli jarayonini oldindan belgilash maqsadida risklarni boshqarish rejasini tayyorlash. Bu holda xarajatlar limitlari mavjud resurslarning realistik hajmi doirasida belgilanishi mumkin. Bunda xarajatlar limitlarini belgilash jarayoni ochiq va oshkora bo'lishi, muayyan parametrlar hamda omillarga asoslanishi, ularga har qanday o'zgartirishlar kiritish aniq va ob'ektiv zaruriyatni talab etishi lozim;

- xarajatlarga oid majburiyatlar reestrini yaratish va uni byudjet jarayoni bilan bog'lash hamda mavjud byudjet mablag'lari doirasida qaysi majburiyatlar va qay darajada bajarilishi mumkinligiga baho berish.

4) Mavjud resurslarga va xarajatlarga oid talablarga baho berishda asos bo'ladigan axborot oqimlarining ishonchliligi va o'z vaqtida olinishi. Ma'lumotlar ishonchli emasligi bir sikldan boshqa siklga o'tishda beqarorlikka olib keladi. Bu joriy va bulg'usi vaziyatni noto'g'ri tushunishga asoslanuvchi loyihalar va qarorlar qabul qilish uchun yaxshi tayanch nuqtasi bo'lmaydi. Axborot oqimlari ma'lumotlarining ishonchliligini ta'minlashda statistik ma'lumotlar olish, ularni solishtirish va sifatni nazorat qilish jarayonlarini qayta ko'rish ishlarini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

5) O'rta muddatli rejalashtirish jarayoni joriy (asosiy) xarajatlarning o'zgarmas ustuvorliklarini tanqidiy tahlil qilishga stimullar yaratishi lozim. U nisbatan muhimroq yangi majburiyatlarni moliyalashtirish uchun joriy xarajatlardan mablag'larni ajratish imkoniyatini ko'rib chiqishga rag'batlantirishi, eskirgan va samarasiz maqsadlarga xarajatlar taqsimlanishining oldini olishi kerak. Shu sababli, quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– dasturlarning maqsadlariga erishish uchun dasturlarning amaldagi majburiyatlarga va taklif qilinayogan yangi majburiyatlarga daxldor resurslari o‘rtasida mablag‘larni yanada aniqroq ajratish va taqsimlash;

– o‘rta muddatli rejalashtirishni tayyorlashda tadbirlar qiymatining ishonchli hisob-kitobini o‘tkazish. Bu eng muhim dasturlar davlat siyosatining ustuvor vazifalariga muvofiq birinchi navbatda bajarilishi uchun byudjet mablag‘larini darajalashtirish jarayonini yengillashtiradi;

– byudjetning oshkoraligini va natijalar haqidagi axborotning ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha aniq talablar qonun darajasida belgilanmagan bo‘lsa-da, mazkur omil natijaviylikka yo‘naltirilgan byudjetni o‘rta muddatli rejalashtirish texnologiyasiga o‘tishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Masalaning yechimi sifatida byudjetning ochiqligini ta‘minlash bo‘yicha batafsil talablarni, shu jumladan, moliya organlarining axborot portallarini tashkil etish, axborotni ifodalash shakli va aholi bilan o‘zaro aloqalarga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish taklif qilinadi;

– byudjetni hisob-kitob qilish, dasturlarni tahlil qilish, unumdorlikni kuzatish jarayonlarining formallashtirilgan tavsifi bo‘yicha batafsil uslubiy tavsiyalarga ega bo‘lish kerak. Jarayonlar tavsifini mamlakat darajasida ishlab chiqishni tashkil etish, normativ-huquqiy asosga kiritish, pilot loyihalar doirasida mintaqalarni jalb qilish tavsiya etiladi.

6) o‘rta muddatli byudjetlashtirish jarayoni xarajatlarga oid yangi majburiyatlar uchun dasturlarni tanlashning strategik doirasini ta‘minlashi va bu majburiyatlarning mamlakatni rivojlantirish strategiyasi hamda unga erishish maqsadlari bilan aloqasini ko‘rsatishi lozim. O‘rta muddatli rejalashtirish siyosat, strategiya va byudjetdan mablag‘ ajratishni birlashtirishga harakat qiladi. U strategiyalar o‘rtasida ham, mazkur strategiyalar doirasida ayrim majburiyatlar o‘rtasida ham, moliyalashtirish manbalaridan qat’i nazar, murosa yo‘llarini qidirishi kerak. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi:

– mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o‘rta muddatli strategiyasini tayyorlashni tashkillashtirish va hukumat resurslarga oid o‘rta muddatli

cheklashlarni hisobga olgan holda byudjet siyosati muqobillarini tanlashi jarayonini belgilash;

- moliyaviy va boshqaruv
- strategiyasini ta'minlash uchun umumiy moliyaviy doirani belgilash

va amalga oshirish;

- vazirliklar va idoralarga tarmoq siyosatini tayyorlash hamda o'rta muddatli byudjet dasturlarini ishlab chiqish uchun zarur byudjet-iqtisodiy tahlil amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni belgilash.

Ma'qullangan xarajatlarga oid yangi majburiyatlar byudjetni samarali ijro etish uchun javobgarlikni belgilashga asos sifatida aniq bo'lishi uchun o'rta muddatli byudjetlashtirish va byudjet jarayoni mushtarak bo'lishi kerak. Har qanday byudjet tizimida xarajatlarga bo'lgan ehtiyojlar ularni moliyalashtirish uchun mavjud resurslardan ortiq bo'ladi. Xarajatlarni tasdiqlash borasida aniqlik mavjud bo'lmasa, amalga oshirish samarasiz bo'ladi, resurslar behuda sovriladi. Real natijalarga erishish uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- o'rta muddatli byudjetlashtirishga asoslangan byudjet takliflarini ta'riflashda va xarajatlarga doir yangi takliflarni belgilashda rahbariyat va siyosiy jarayon ishtirokchilari samarali qatnashishlari lozim, zero o'rta muddatli byudjetlashtirish resurslarni safarbar etish va taqsimlash yuzasidan yanada samaraliroq qarorlar qabul qilishni nazarda tutadi;

- jamiyatning faol siyosiy ishtirokini tashkil etish, shu jumladan, siyosiy vazifalar bo'yicha qarorlarni ochiq qabul qilish - masalan, parlament a'zolari uchun amaliy seminarlarni muntazam o'tkazish vositasida;

- dasturlarning siyosiy vazifalarga muvofiqligini va 3 yil mobaynida mavjud bo'lgan resurslar realistik tushunilishini ta'minlash;

- byudjet mablag'larining samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Tejab qolingan mablag'lar byudjetlashtirishning boshqa ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadida qayta taqsimlanishi mumkin;

– o‘rta muddatli byudjetlashtirishni amalga oshirish jarayoni ustidan surunkali monitoringni tashkil etish.

Amalda davlat byudjeti davlat mablag‘laridan konkret foydalanish rejasi hisoblanadi. Ayni shu rejani amalga oshirish chog‘ida byudjet xarajatlarning samaradorligini aniqlash zaruriyati tug‘iladi. Bu quyidagi savollarga javob topishni nazarda tutadi: davlat pullari nimaga sarflandi, bu xarajatlar qanday natija berdi, pirovard natijalar va amalga oshirilgan xarajatlarning o‘zaro nisbati qanday?

Byudjet xarajatlarning samaradorligi keng tushuncha bo‘lib, u iqtisodiy baholardan tashqari ijtimoiy va siyosiy baholarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli, ularning samaradorligini xarajatlar va daromad kabi miqdor ko‘rsatkichlari bilan o‘lchash mumkin emas. Byudjet xarajatlarning samaradorligini qisqa davr doirasida ham o‘lchab bo‘lmaydi. Ijtimoiy sohaga byudjet xarajatlarini moliyalashtirishning samaradorlik darajasiga baho berish uchun iqtisodiyotning korporativ sektori mezonlarini (—shu yerda va hozir daromad olish) qo‘llash noo‘ringina emas, balki mantiqqa zid hamdir.

Davlat siyosatining maqsad vazifalariga erishish uchun byudjet resurslaridan samarali foydalanishning ahamiyati barcha mamlakatlar uchun oshib bormoqda. Zero, fuqarolar yanada sifatliroq va arzonroq ijtimoiy xizmatlarni, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi hamda ochiq va oshkoraligini oshirishni talab qiladilar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga kelsak, bu strategik vazifani yechishda taraqqiyot rivojlanishning uzoq muddatli maqsadlariga erishish shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ko‘pgina mamlakatlar ijtimoiy moliyani boshqarish tizimini modernizatsiya qilish yo‘lida jiddiy qadamlar tashladilar. —Katta sakkizlik mamlakatlarida yangicha yondashuvlar mas‘uliyatli byudjet-soliq siyosatini yuritishga, moliyaviy barqarorlikni, davlat xarajatlarning samaradorligini ta‘minlash maqsadida o‘rta va uzoq muddatli byudjetni rejalashtirishga e‘tiborni hamda soliq to‘lovchilarning mablag‘laridan foydalanish natijalari uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutadi.

Katta sakkizlik mamlakatlari Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ijtimoiy moliya sohasida amalga oshirgan tahliliy va uslubiy materiallar, kodekslar va qo'llanmalarni tayyorlash, shuningdek, erishilgan taraqqiyot monitoringi va tegishli texnik yordam ko'rsatish borasidagi tadbirlarda ishtirok etdilar. Bu mamlakatlar bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarga byudjet islohotini amalga oshirishda yordam ko'rsatish tashabbusini qo'llab quvvatlamodalar.

Hozirgi vaqtgacha to'plangan amaliy tajriba asosida ijtimoiy moliyani boshqarish sohasini yanada rivojlantirish va uning samaradorligiga baho berishga ishonchli zamin yaratish uchun umume'tirof etilgan prinsiplar, standartlar va mezonlar ta'riflandi.

Har bir mamlakatda ijtimoiy moliyani boshqarish uch darajada asoslangan qarorlar qabul qilish va ularni samarali amalga oshirishga qaratilishi lozim:

- makrodarajada byudjet-soliq ishini rejalashtirish: yig'iladigan soliqlar va rejalashtirilgan xarajatlarning umumiy hajmi, profitsit, taqchillik va hokazolarning hajmi, shuningdek netto-qarzlari yoki zahiralar hajmi;

- soliq solish hamda davlat sektorini rivojlantirish sohasida ustuvor vazifalarni belgilash: siyosiy maqsadlarni, soliq solish bo'yicha aniq choralarni belgilash, xarajatlarni taqsimlash yo'nalishlarini tanlash;

- byudjet va uning ijrosini batafsil ishlab chiqish: byudjetni rejalashtirish va qabul qilish, ijro etish, nazorat qilish, monitoring, hisobdorlik, byudjetlar auditi, aktivlar va majburiyatlarni boshqarish, mablag' jalb qilish va soliq solish.

Ijtimoiy moliyani boshqarishning uchala darajasi ham bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan shu sababli soliq va byudjet siyosatining ustuvor vazifalarini noto'g'ri belgilash va (yoki) byudjetlarni ishlab chiqish va ijro etishdagi kamchiliklar makrodarajada byudjet-soliq ishini rejalashtirishning samaradorlik darajasi pasayishiga olib kelishi mumkin.

O'z navbatida, makrodarajadagi beqarorlik nafaqat ushbu darajadagi byudjetning samaradorligini, balki keyingi ikki darajada ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini ham yo'qqa chiqarishi mumkin.

Byudjet xarajatlari va umuman davlat byudjetining samaradorligini miqdor jihatidan o'lchashning xususiyati shu bilan belgilanadiki, ularning ko'rsatkichlari byudjetning jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy roli bilan bog'lanadi. Davlat byudjeti YaIM hajmi, inflyatsiya sur'ati, investitsiyalar hajmi, ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojlanishi, aholi daromadlari, eksport va importning o'zaro nisbati va hokazolar bilan bog'liq bo'lgan muhim makroiqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi. Bunda byudjet taqchilligi va profitsiti, davlat qarzining mavjudligi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu kontekstda byudjet asosan iqtisodiyot va ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiladi. Makroiqtisodiy mutanosiblik va bunda erishilgan ijtimoiy soha rivojlanishining ijobiy dinamikasi davlat byudjetining samaradorligini belgilaydi.

Byudjet xarajatlarining samaradorlik darajasiga baho berishda muayyan talablarga rioya etilishi lozim. Ularning eng muhimlari:

- byudjet xarajatlarining samaradorligini aniqlashning umumiy metodologik prinsiplarini, mamlakat iqtisodiyoti, moliya va byudjet tizimining real holati va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini hisobga oluvchi ilmiy yondashuv;

- agar yaqin davr va kelajak uchun mo'ljallangan byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari aniq belgilanmagan, bosh maqsadlar va birinchi darajali vazifalar ta'riflanmagan bo'lsa, xarajatlari samarali bo'lishi mumkin emas. Bunda ilgari ko'rilayotgan choralar va qabul qilish mo'ljallanayotgan qarorlarning asosiligi qabul qilinayotgan qarorlar munosabati bilan davlat xarajatlarining umumiy qiymatinigina emas, balki uzoq muddatli moliyaviy oqibatlarini ham aniqlash imkoniyatini beruvchi tegishli hisob-kitoblar bilan qo'llab-quvvatlanishi lozim;

- byudjetlashtirishning unumdorligi byudjet tarmog'ining isloh qilinishiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu boradagi tadbirlar byudjet tashkilotlari maqomini va ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplarini isloh qilish, davlat aholiga ko'rsatayotgan xizmatlar sifatini oshirish, xizmatlar ko'rsatishni moliyaviy ta'minlashning yangi



shakllariga o'tish, byudjetlarni ijro etish taomillarini takomillashtirishni, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishni nazarda tutadi Bu byudjet sohasi xodimlarining kasbiy mahorati darajasini yuksaltirishni talab etadi.

Bundan tashqari, natijalarga erishilishi haqidagi ma'lumotlardan davlat boshqaruvining barcha darajalarida qarorlar qabul qilish jarayonida faol foydalanish ham muhimdir. Buning uchun erishilgan natijalar haqida axborot berish samarali tizimini ishlab chiqish zarur. Bunday ma'lumotlardan davlat organlari faoliyatining strategik va operativ rejalarini ishlab chiqish yoki ularga aniqlik kiritish, shuningdek to'plangan tajribadan saboqlar olish uchun foydalanilishi lozim.

O'rta muddatli rejalashtirish amaliyotining samaradorligi davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar darajasiga bog'liq.

Bu quyidagilarni anglatadi:

- davlat organlarining hisobdorlik tizimini takomillashtirish. Buning uchun davlat boshqaruvi sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar

- monitoringining ishonchli tizimini yaratish (mazkur tizim o'rta muddatli va natijaviylikka yo'naltirilgan rejalashtirishni joriy etishning muhim natijalaridan biriga aylanadi) va jamoatchilik bu ma'lumotlar bilan tanishishi uchun keng imkoniyat yaratish lozim;

- jarayonining ochiq va oshkoralik darajasini oshirish, shu jumladan, fuqarolarni davlat organlari faoliyatining natijalari va davlat boshqaruvining barcha darajalarida byudjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligi haqida hukm chiqarish imkoniyatini beruvchi axborot bilan ta'minlash;

- turli bosqichlarda byudjet jarayonini amalga oshirishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilishning samarali vositalarini yaratish (teskari aloqa mexanizmlarini shakllantirish, byudjet xizmatlari sifatiga jamoatchilik tomonidan baho berish tizimini yaratish, hukumat dasturiy hujjatlarini yaratishda fuqarolik jamiyati ishtirokining tartib-taomillarini ishlab chiqish va boshqalar). Boshqacha aytganda, byudjet xarajatlari va umuman byudjetning samaradorlik darajasiga baho berishda jamoatchilik fikrini hisobga olish muhimdir, chunki aynan aholining keng

qatlamlari davlat tomonidan ko'rsatiladigan bepul ijtimoiy xizmatlarning pirovard iste'molchilari hisoblanadi.

Shunday qilib, byudjet jarayonining samaradorlik darajasiga baho berish, bir tomondan, davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish va byudjet sektorini restrukturizatsiya qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi, boshqa tomondan esa, keng tarkibiy va institutsional islohotlarning sur'atlari va yo'nalishlariga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va byudjet siyosatining mushtarakligini ta'minlash davlat o'z funksiyalarini bajarishining samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ma'muriy islohot va davlat xizmati islohotini samarali amalga oshirish islohotlar jarayoni bilan bir vaqtda davlat organlari faoliyatining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday takomillashtirishning bosh maqsadlari, birinchidan, samaradorlik yoki unumdorlikni oshirish, ya'ni davlat organlarining funksiyalarini bajarishga xarajatlarni qisqartirish, davlat xizmatlarining sifatini saqlab qolgan yoki yanada yaxshilangan holda ularni arzonlashtirish, ikkinchidan, davlat xizmatida faoliyatni doimiy yaxshilashning ichki rag'batlarini yaratish, shu jumladan, tashkiliy jihatdan rivojlanish hamda ish texnologiyalarini optimallashtirishdan iborat. Ma'muriy islohot doirasida qo'llanilgan yangi iqtisodiy mexanizm unga lozim darajada faol tus berish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish, uning o'zini-o'zi rivojlantirishini ta'minlashga qodir hisoblanadi.

O'rta muddatli rejalashtirish amaliyotida byudjet mablag'larining samaradorlik, natijaviylik va erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlari haqida so'z yuritishda, tahlil etish obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim tizimini olgan holda uning ba'zi bir jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish va shu orqali ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, turmush farovonligiga erishish maqsadida ta'lim tizimiga yildan-yilga e'tibor kuchaytirib kelinmoqda.

Ta'lim sohasidagi natijaviylikni baholash (tahlil etish) uchun, eng avvalo, quyidagi savollarga javob topish lozim bo'ladi:

1. Byudjet xizmatlarining ko'rsatkichlari va hajmi qanday bo'lishi lozim. Maktab ta'limida byudjet xarajatlari maktab tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish uchun yo'naltiriladi. Shu bois, bu yerda asosiy ko'rsatkich va hajm o'quvchilar sonidir. Misol uchun, bir tumanda 30 ming o'quvchi tahsil olmoqda deylik.

2. Byudjet xizmatlarini amalga oshirish uchun qancha mablag' zarur bo'ladi. Bu yerda maktab tarbiyalanuvchilari uchun yo'naltirilgan jami pul mablag'lari tushuniladi. Masalan, n-yil uchun ta'lim sohasiga ajratilgan jami byudjet mablag'i 200 mln.so'm.

3. Eng muhimi, pirovard natija deb qaysi ko'rsatkichni qayd etamizki, u o'zi bilan ta'lim jarayoni sifatiga to'la baho bera olsin. Bu borada ilgari qo'llangan turli ko'rsatkichlarni qo'llash mumkin, ya'ni: qizil shahodatnoma bilan bitirgan o'quvchilar soni; turli fan olimpiyadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilar; turli sohalarda yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar soni va boshqalar. Ammo, biz shunday o'lchov birligini topishimiz lozimki, unda bir hududda joylashgan barcha maktablarni solishtirish imkoniyati mavjud bo'lsin. Maktab dargohlari uchun eng asosiy ko'rsatkich bu – davlat yakuniy imtihoni natijalari asosida —a'lo va —yaxshi baho olgan o'quvchilar sonidir. Bu ko'rsatkich barcha maktablar uchun umumiy va bajarilishi lozim bo'lgan vazifadir. Lekin, bu ko'rsatkich o'zida shunday muhim voqelikni aks ettiradiki, bu kelajakni belgilovchi yoshlarning bilim darajasini obyektiv baholash muammosidir.

Maktab ta'limining byudjet xizmatlari samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etish uchun quyidagi 3 ta baholash mezonlariga to'xtalishimiz zarur. Ular:

a) iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi: bu byudjet xizmatlarining iqtisodiy qiymatiga baho berib, tahlil etadi. Keltirilgan misolimizni davom ettirib shuni aytish mumkinki, bu yerda o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasiga sarflar to'g'ri keladi. Unda ta'lim sohasiga xarajatlarning yillik hajmi 10 mln.so'm bo'lib, jami 106 nafar o'quvchi tahsil oladi deb faraz qilamiz. Bu esa, 10 mln.so'm uchun 106 nafar o'quvchi qanday tahsil olishini tahlil etishimiz mumkin. Eng muhimi, me'yoriy

moliyalashtirish asosida 1 nafar o'quvchiga bir o'quv yili davomida qariyb 9,4 ming so'm to'g'ri kelishini ko'ramiz;

**- Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi:**

Byudjet xizmati / byudjet loyihasi qiymati = umumiy o'quvchilar soni / ta'lim xarajatlari = 106 (o'quvchi) / 10 mln.so'm

**- Natijaviylik ko'rsatkichi:**

Pirovard natija / byudjet xizmati = "a'lo" va "yaxshi" baholi o'quvchilar soni / umumiy o'quvchilar soni =  $106 \frac{\text{o'quvchi soni}}{10 \text{ mln so'm}}$

**- Byudjet xarajatlari samaradorligi ko'rsatkichi:**

Provard natija / byudjet loyihasi qiymati = "a'lo" va "yaxshi" baholi o'quvchilar soni / ta'lim xarajatlari = 35.1 %

b) natijaviylik ko'rsatkichi yoki ta'lim jarayoning sifati: byudjetdan amalga oshirilayotgan xarajatlarning natijasida ko'rsatilgan byudjet xizmatlarining sifati (nafi) qandayligi muhim. Bizning misolimizda natijaviylik davlat yakuniy imtihonida —a'lo va —yaxshi bahoga erishgan o'quvchilar bo'lsa, o'rta hisobda 35% teng deb hisoblaymiz;

v) *byudjet xarajatlarining samaradorlik ko'rsatkichi:* bu yerda amalga oshirilgan sarf-xarajatlarning haamda erishilgan natijalar o'rtasidagi nisbatni ko'rishimiz mumkin. Bizning misolimizda davlat yakuniy imtihonidan —a'lo va —yaxshi bahoga bitirgan 37 nafar o'quvchi hamda ularga sarf etilgan 10 mln.so'm mavjud. Eng asosiysi esa, —a'lo va —yaxshi baho bilan tugatgan o'quvchilarning 1 nafariga to'g'ri keladigan bir yillik mablag' 270 ming so'mga tengdir.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ta'lim sohasi qay darajada samarali yoki samarasiz (byudjet xarajatlariga nisbatan) ekanligini aniqlash muammosi vujudga keladi. Buning uchun erishilgan natijalarimizni o'tgan yilgi natijalarga yoki shu tarmoq (tuzilma, tashkilot)ni boshqasi bilan taqqoslash zarur. Taqqoslash natijasida olingan dinamikani tahlil etish asosida erishilgan samaradorli (samarasizlik) qaysi omillar yuzaga keltirilganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, keltirilgan ko'rsatkichlarni o'zaro bog'lab tahlil etish ham muhim.

Keltirilgan o‘zaro aloqadorlik shuni bildiradiki, iqtisodiy samaradorlikni natijaviylikka ko‘paytirsak amalga oshirayotgan byudjet xarajatlarining samaradorligini baholay olish imkiniyatiga ega bo‘lamiz. Bundan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- natijaviylikni saqlash uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ya’ni ko‘rsatilayotgan xizmatlarga xarajatlarni shunday qisqartirishimiz lozimki, bunda xizmatlarning sifati pasaymasin;


$$\frac{\text{Бюджет хизмати}}{\text{Бюджет лойиҳаси қиймати}} * \frac{\text{Пировард натижа}}{\text{Бюджет хизмати}} = \frac{\text{Пировард натижа}}{\text{Бюджет лойиҳаси қиймати}}$$

### 3.9-rasm. Samaradorlik ko‘rsatkichlarining o‘zaro aloqasi<sup>95</sup>

- iqtisodiy samadorlikni saqlash uchun esa natijaviylikni oshirish, ya’ni sifatni shunday oshirish lozimki, xarajatlar o‘zgarmasdan qolsin.

Samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasini tahlil etish negizida shunga guvoh bo‘lish mumkinki, bu ko‘rsatkich qaysi omil ta’sirida shakllandi. Keltirilgan 2-namunada ko‘rish mumkinki, agar iqtisodiy samaradorlik 10% o‘sgan bo‘lsa (o‘shish indeksi 1,1), natijaviylik ko‘rsatkichi 10% kamaygan (o‘shish indeksi 0,9) bo‘lsa, unda byudjet xarajatlarining samaradorligi ta’lim jarayonining sifati ko‘payganidan dalolat beradi.

<sup>95</sup> Ataniyazov .J.X , Allakuliyev A.B.// maktab ta’lim sohasida o`rta muddatli natijaviylikka yo`naltirilgan byudjetlashtirish // “ Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy electron jurnali // № 2, mart-aprel 2015 yil 3 bet



**3.10-rasm. Byudjet xarajatlari samaradorligini o‘zgarish dinamikasi sabablarini aniqlash**

Tahlil etish mobaynida nafaqat byudjet xarajatlari samaradorligini (yoki samarasizligini) baholash bilan birgalikda qaysi ta’lim muasasasida qanday muammolar mavjudligiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Vaziyatni aniqroq namoyon etish uchun turli darajadagi maktablarni o‘zaro taqqoslab, qaysi birida qanday muammolar mavjud va qay daraja ekanligini bilib olamiz.

